


87
T-81



Mirzakalon
ISMOILIY

INSON HUSNI

ODAMIYLIK
QISSASI



84
I-81
Mirzakalon
ISMOILIY

INSON HUSNI



ZIYO NASHR

Toshkent
2019

Qayta nashrga tayyorlovchi

TOHIR MALIK

«Farg‘ona tong otguncha», «Bizning roman», «O‘zingdan ko‘r» asarlarining muallifi, jahon adabiyotining yuzdan ortiq sara asarlari tarjimoni, atoqli adib Mirzakalon Ismoiliiy ijodining ma‘lum qismi ma‘rifiy mavzuga bag‘ishlangan. Uning 1960–1980-yillarda nashr etilgan «Odamiylik qissasi», «Inson husni», «Qizlar daftariga» asarlari mashhur bo‘lgan edi. Mazkur kitob ana shu asarlar jamlanmasidir. Shuningdek, «Bunisi sizlarga, yigitlar» deb nomlangan, yakuniga yetmay qolgan asardan ham namunalar o‘rin olgan.

© Mirzakalon Ismoiliiy, 2019.

© «Ziyo nashr» nashriyoti, 2019.

ISBN 978-9943-5705-3-5

2546/1

304220002 AKU

INSON HUSNI



ODAMIYLIK
QISSASI

GO'ZALLIK

YUZ CHIROYI

Go'zallik tabiatning yaxshi ne'matlaridan biri. Bu tabiatning barcha mahsuliga mushtarak ne'mat. Biz buni insonlardagina emas, o'simliklarda ham, jonivorlarda ham ko'ramiz. Bahor kezlari rang-barang gullarga ko'milgan daraxtlarni, yashil may-salari selkillab turgan yaylovlarni, g'o'zalari barq urgan chaman dalalarni ko'rganimizda:

– O, naqadar go'zal! – deb yuboramiz.

Bizni o'ziga shaydo qilgan bu go'zallik tabiatdagi go'zallik edi. Biz esa insondagi go'zallik haqida gaplashmoqchimiz. Insondagi go'zallik oddiy «chiroy» so'zi bilan ifoda qilinadigan tor ma'no emasligini, aksincha, murakkab tushunchaga ega ekanini bilamiz. Darhaqiqat, go'zallik birgina qomatning kelishganida yo chehraning chiroyida emas. Bular faqat tashqi surat, ya'ni kitob muqovasiday gap. To'g'ri, nomi kishini hayratda qoldiradigan, muqovasi nihoyatda chiroyli bezalgan kitobni ko'rganingizda ixtiyoringiz shu kitobda bo'lib qoladi. Lekin ismi jismiga yarashadimi, ya'ni mazmuni ham muqova bezagiday go'zalmi, buni o'qiganingizdan keyin bilasiz. Yaxshi bo'lsa, o'qigan saringiz o'qigingiz keladi – lazzatlanasiz. Yomon bo'lsa-chi? Ensangiz qotadi, siz uni dabdabali ismiga ham, chiroyli muqovasiga ham qaramay, tashlab qo'yasiz. Demak, tashqi surat ichki mazmunga o'xshash bo'lishi kerak ekan. Aks holda unday go'zallikning qiymati bir chaqa. U tashi yaltiroq'-u ichi qaltiroq, puch, aldamchi surat.

Lekin inson muqova emas. Uning ma'naviy qadr-qiymati ham varaqlar ichida jimgina yotgan unsiz satrlar emas. Inson –

u yaratuvchi, u barcha xilqat ichida eng yuksagi, eng qudratlisi, eng farosatlisi, eng aql-u idroklisi. Demak, go'zallikning ham eng yuksagi, eng mazmunlisi, eng chiroylisi insonda.

Xo'sh, go'zallik o'zi nima?

Go'zallik nima ekani haqidagi mulohazalarimizga o'tishdan oldin bu so'zning lug'aviy ma'nosini aniqlab olsak. Hayotda, ayniqsa odamlar orasidagi oddiy muomalada ba'zan so'zlar asl ma'nosiga qarab ishlatilmaydi. Bunga u so'zlarning o'zaro yaqinligi yo ma'nodoshligi sabab bo'lsa kerak. Masalan, «Falonchining yuzlari qizarib ketdi», deb aytishadi. Holbuki, bu yerda yuzlari emas, «betlari» deyilishi kerak edi. Nimaga desangiz, odamda moddiy ma'nodagi yuz bitta bo'ladi. Bu yuzga qoshko'z, og'iz-burun, iyak, ikkita bet, ikkita quloq va peshana kiradi. Agar «yuzlari qizardi» deyilsa, avvalo, bu odamda yuz bitta emas, bir qancha ekani, qolaversa, u yuzlaridagi hamma a'zolar birdaniga qizargani anglashilishi kerak edi. Lekin biz buni bilibmi-bilmaymi, savod jihatidan noto'g'ri anglaymiz. Xuddi shunga o'xshash, «go'zal» so'zini ham o'z ma'nosida ishlatmaymiz. Holbuki, bu so'z chiroy, husn, jamol, ruxsor, ko'rk, ko'hlik, suluv kabi bir qator so'zlar ma'nosini o'z tarkibida saqlash bilan birga insondagi eng yaxshi fazilatlar majmuasi bo'lmish odamiylik tushunchasini ham anglatadi. Shuning uchun, «chiroyli odam» deyilganda, biz bu odamning tashqi qiyofasi chiroyli ekanini, «go'zal odam» deyilganda esa uning ichki dunyosi ham chiroyli ekanini anglaymiz.

Faraz etaylik, siz hovlingizga bir tup daraxt yo bir tup gul ekdingiz. U tutdi, yaproq chiqardi, chiroyli bo'lib o'sdi, tanasi yo'g'on tortdi, surxlari yashil yaproqlarga burkandi. Ekkan ko'chatingiz yaproq chiqarish bilan bir vaqtda, shubhasiz, ildiz ham otdi. Yaproqlar quyoshdan nur, havodan azot olib ildizlarga hayot berdi. Ildizlar esa yerdan oziq olib o'zakni, yaproqlarni boqdi. Bir vaqt qarabsizki, hayot barq urib turgan chiroyli bir o'simlik hosil bo'libdi. Siz unga qarab zavqlanasiz, havasingiz keladi. Bordi-yu, sizda g'urur uyg'otib o'sayotgan ana shu chiroyli o'simlik shoxlarini birov kelib kallakladi, ildizlarini qirqib

tashladi. Xo'sh, endi nima bo'ladi? Endi havodan, oziqdan mahrum bo'lgan yolg'iz tana quriydi. Demak, o'simlikning yashashi, ya'ni siz-u bizda havas, zavq uyg'otgan ko'rkamligini saqlab qolishi uchun yaproqlari ham, ildizlari ham hayotiy ahamiyatga ega ekan.

Go'zallik ham bamisoli daraxt. Yaprog'i axloq, ildizi ichki dunyo, mevasi yaxshi fazilat. Xulosa qilib aytganda, odam bolasidagi go'zallik tabiat ato qilgan husnu jamoldan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarini o'z ichiga olgan odamiylikdan iboratdir. Mana shunday go'zallik insonga husn beradi. Bu xil go'zallik yaproqlarsiz, ildizlarsiz qurishi muqarrar bo'lgan daraxtga sira-sira o'xshamaydigan, qurimaydigan, o'lmaydigan, boqiy go'zallikdir.

Bir misol. Qoshlari qalam, ko'zlari xumor, lablari la'l, betlari shirmon, qomati sarv, tabassumi jonga qasd qilg'uvchi bir jonon ro'parangizdan kelaverdi. Siz uni ko'rdingiz-u surat bo'lib qoldingiz, yo tik qarashga botinolmadingiz ibo qo'ymadi. Lekin dovdir ko'zlaringiz shu noyob husn asiri bo'lib, ixtiyor no'xtangizni uzib ketdi. Siz har qancha harakat qilsangiz ham bo'lmadi, jilovlarini ushlatmagan ko'zlaringizni to'xtatolmadingiz, to'g'rirog'i, to'xtatishga qurbingiz yetmay, mayliga qo'yib berdingiz. «Go'zal» esa nozik oyoqlari ostida xoksor bo'lganingizga parvo qilmay, yonginangizdan to'vus yurishi qilib o'tib ketdi. Siz endi go'zallik tarkibidagi xulq shartini buzib, jonon orqasidan suqlanib qarab qoldingiz. U ketdi. Siz bo'lsangiz nojo'ya harakatingizni ko'rib turganlar ko'zida o'zingizni yerga urib qoldingiz. Bu qilig'ingiz sizdagi axloqning, demak, go'zallikning qusurli ekanini ko'rsatdi.

Endi hushingizni olgan jonon masalasiga kelaylik. Undagi go'zallik hammaga ko'z-ko'z qilib yurilgan tashqi bisotmide yo haqiqat – buni bir qarashda yo bir ko'rishda bilib bo'lmaydi. Siz unga mahliyo bo'lganingizda masalaning shu nozik tomonini nazardan qochirgan edingiz.

Xayr, bo'lar ish bo'ldi. Endi bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish qabilida o'sha «go'zal» bilan bir suhbatlashib ko'raylik.

Mana, ro'parangizda, yumshoq divanda chalishtirig'liq oyoqlarini tizzasidan yuqorirog'igacha ochib qo'yib, filtrli sigareta chekib o'tiribdi. U sigareta kulini nariroqdagi kuldonga borib to'kishga erinib, oyoqlari ostidagi ipak gilamga qoqyapti. Xonada o'zidan katta odamlar bor, ular orasida odob saqlash zarur. Ammo «go'zal» bunga e'tibor qilmaydi. Sharaqlab kuladi, bo'lar-bo'lmas gaplar gapiradi. Shu pardasizlik ustiga bir chol-u kampir kirib keldi. Bular xalq xizmatida keksaygan, Vatanga qator-qator o'g'il qizlar, nevara chevaralar bergan hurmatli kishilar. Bu nuroniy siymolarni ko'rganda o'tirganlar duv o'rinlaridan turib, ularni to'rga taklif qildilar. «Go'zal» esa ularga peshvoz chiqmadigina emas, hatto oq sochlari hurmati uchun o'rnidan ham qo'zg'alib qo'ymadi. Siz undagi bu oshkor gumrohlikni, odam qadrini yerga urguvchi xunuk beodoblikni ko'rib labingizni tishladingiz, ustingizdan bir chelak sovuq suv quyib yuborilganday junjikib ketdingiz.

Xo'sh, bunga nima deysiz? Shoxlari kallak urilgan, ildizlari qirqilgan quruq tana shu emasmi? Insonda ayanch, jirkanch hissini uyg'otadigan xunuklik, nogironlik shu emasmi?

Ha, barakalla, xuddi shuning o'zi. Demak, chiroyliman deb o'ziga bino qo'yib yurgan, ya'ni hozirgina siz ko'rgan «chiroy» bilan yashash xayolini qilgan «go'zal» bir haqiqatni nazardan qochirgan. Bu insoniy haqiqat shunday:

– Sen har qancha yasanib-tusanmagin, lablaringni, kiprik qoshlaringni, betlaringni har xil ranglar bilan bo'yamagin, turli-tuman taqinchoqlar taqmagin, baribir, insoniy fazilating bo'lmagandan keyin sen xunuksan, sen jirkanchsan, sen nogironsan! Bilib qo'y, senga inson husnini beradigan, nomingni pok, bedog' saqlaydigan narsa yuzingga surtgan bo'yoqlar, quyushqondan chiqib ketgan bachkana kiyimlar, turli zeb-u ziynatlar emas, yo'q, aslo bular emas! Senga bu husnni chiroyli axloq, odob, madaniyat, yaxshi fazilat beradi!

Ha, xuddi shular beradi! Shuning uchun chiroyim bor deb taltayish o'zini chalg'itish bo'ladi. Chunki yuz chiroyi o'tkinchi narsa. Bundan tashqari, yuz chiroyining tushunchasi ham

har xil. Lablari qalin, ko'zlari ola Afrika jononlariga, yuzlari cho'zinchoq, sochlari sap-sariq ingliz tannozlariga nazar solsangiz, chiroy tushunchasi dunyo xalqlarida turlicha ekaniga ishonch hosil qilasiz. Ammo insoniy, ma'naviy go'zallik hamma xalqlarda bir xil tushuniladi, bir xil qadrlanadi.

Odam bolasi shu umumbashar go'zallik, insoniy go'zallik uchun kurashishi, shu oliy maqsad yo'lida sira charchamay, sira erinmay kurashishi kerak. Chunki insonga haqiqiy husnni insoniy xulq-atvor, insoniy fazilat beradi.

Bunday go'zallik inson tirikligida ham, dunyodan o'tganda ham uning aynimaydigan husni, abadiy siymosi bo'lib qoladi. Shuning uchun ulug' rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexov: «Insonda hamma narsa go'zal bo'lmog'i lozim, yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham», degan edi.

Keksalar o'gitiga quloq solsangiz, «Go'zallik yuzda emas, aqlda», deydilar. Ha, avlodlar, zamonlar hikmati bu. Darhaqiqat, aql-u farosatdan, insoniy axloq va fazilatdan mahrum bo'lgan yuz chiroyi faqat tajribasiz, qo'nimsiz ko'zlarnigina mahliyo qila oladi. Bu mahliyolik ham tez orada o'z o'rnini pushaymonlikka bo'shatib beradi. Nimaga desangiz, bu xil chiroy odamda hayot ishq, yashash istagi uyg'otmaydi, uyg'ota olmaydi ham. Bunday go'zallik qog'ozdan yasalgan hidsiz nayzon guldari farq qilmaydi.

Bilasiz, qog'oz gulni hech kim dimog'iga keltirib tutmaydi, hidi yo'q. Uni hech kim chakkasiga taqmaydi, nafosati yo'q. Lekin yerdan unib chiqqan, hayot nash'alari burqib turgan eng oddiy gulni ham odam sevadi, hidlaydi, ardoqlab chakkasiga taqadi.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tilgan gaplarni yuz chiroyiga, ya'ni go'zallikning moddiy nishonalariga oid gaplar edi, deyishimiz mumkin. Chunki biz hozirgacha olgan chiroy go'zallikning bir qarashdayoq ko'zga chalinadigan tomoni edi. Endi uning haqiqiy tomoni, ya'ni insoniy chinakam inson qiladigan ma'naviy tomoni haqida so'z yuritsak.

Go'zallikning bu tomoni shu qadar keng, shu qadar serratmoqchi, uni aytgan bilan ado qilib bo'lmaydi. Lekin biz ma'naviy go'zallikni hayot taqozosiga qarab shu moddalarga bo'ldik:

ODAMIYLIK

Inson ilmi yo ijtimoiy mavqeyidan, yoshi, yo kasb-koridan qat'i nazar, har kun, balki, har soat odamlar bilan muomalada bo'ladi. Odamlar jamoasidan ayri yashash mumkin bo'lmaganidek, xizmat burchi yo turmush ehtiyoji bilan ham odamlarga ro'para kelmaslikning iloji yo'q. Bu esa, odam ishi odam bilan bitadi, degan so'z. Lekin bu ish shirin bitadimi yo achchiq – bunisi muomala egasining xulq-atvoriga, qo'pol yo muloyim muomalasiga bog'liq. Nimaga desangiz, shirin muomala bilan bitmaydigan ish ham bitadi, qo'pol muomala bilan esa bitadigan ish ham bitmay qolishi mumkin. Lekin bu gapimizdan: «Faqat ishni bitirib olish uchungina xushmuomalada bo'lish kerak ekan-da», degan xulosa chiqmasligi kerak, albatta. Rostda, insonni chinakam inson qiladigan narsa uning yaxshi fazilatlari bo'lsa, xushmuomalalik shu yaxshi fazilatlarning eng muhim shartlaridan biridir. Bunday o'ylab qarang-a, odamning yaxshi yo yomonligi, axloqi yo axloqsizligi, madaniyatli yo madaniyatsizligi, shafqatli yo shafqatsizligi, soddaligi yo kibr-u havoliligi yurish-turishidan ham oldin muomalasidan bilinadi. Shuning uchun o'z qadr-u qiymatini bilgan odam eng avval muomala odobining g'omini yeydi.

Ma'lumki, yuqorida ishora qilib o'tganimizdek, odam bolasi dunyoda yakka-yolg'iz yashamaydi, yashay olmaydi ham. Bu odamzod paydo bo'lgandan beri davom etib, kun sayin kuchayib borayotgan bir haqiqat. Inson onadan tug'ilgandan boshlab butun umrini, butun hayot faoliyatini jamiyat ichida, odamlar orasida o'tkazadi. U xoh uyida bo'lsin, xoh ish joyida bo'lsin, odamlarga to'qnashmay iloji yo'q. Shuning uchun

u o'zini jamiyatga mos tutishga, ya'ni tevaragidagi odamlarni hurmat qilishga, o'zi ham ulardan hurmat ko'rishga intilishi kerak. Bu esa har bir kishidan odamshavandalikni talab qiladi.

Barchaga yaxshi ma'lumki, inson mehnat qurollarini yasashi, takomillashishi bilan hayvondan farq qiladi. Bizning nazarimizda, insonning yana bir ustunligi unda aql-idrok, fahm-farosat bilan birga til ham borligidadir. U shu til bilan mo'jizalar yaratishi mumkin.

Qars ikki qo'ldan chiqadi, deydilar. Janjal ham ikki tomonning qo'pol muomalasidan chiqadi. Bir qo'lingiz band bo'lsa chapak chalolmaganingiz singari, bir tomon og'ir bo'lsa, yani tilini tiysa, janjalning ham uni o'chadi.

Bir misol. Avtobusda odam tiqilib ketdi. Igna tashlasangiz yerga tushmaydi. Bunday hollarda yo'lovchilarning bir-birlariga urinishlari, turtinishlari, siqilishlari, tabiiy. Bir yo'lovchi oradan qisilib o'tib ketayotib, boshqa bir yo'lovchiga bexosdan tegib ketdi. U bunisiga bir o'qrayib qaradi-yu, jon-jahdi bilan itarib tashlab: «Ho'kiz! Ko'zingga qarasang o'lasanmi!» deb qichqirdi. Oralab o'tayotgan yo'lovchida ayb yo'q edi. Buni qo'pol muomala qilgan kishi ham bilardi. Bila turib, gunohsiz odamni haqorat qildi. Xafa qilingan yo'lovchi, dag'al kishiga teng bo'lgisi kelmadimi yo asli tabiati shunday xushmuomalalik edimi, har qalay, unga bir jilmayib qaradi-yu:

– Kechirasiz, yo'lcilik ekan, – deb qo'ya qoldi.

Agar xushmuomalalik kishi o'z qadr-qimmatini yerga urib haligi qo'pol bilan teng bo'lsa, o'rtada janjal chiqar, ikkala-sining ham dili bekor siyoh bo'lardi. Ammo u xijolatpazlik dardini qo'polga yuklab, o'zi yengilgina tushib ketdi. Yo'q, o'zi tushib ketmadi, uni orqasidan ofarin o'qigan kishilarning minnatdor ko'zlari kuzatib qoldi.

Yana bir misol. Shunday oilalar bo'ladiki, o'zlari alohida tursalar ham, shovqinlari butun mahallani tutadi. Bundaylar dastidan mahalla-ko'y ham halovatidan ayriladi.

Ori rost, bunaqalar oz, lekin yomon narsaning oziga ham chidab bo'lmaydi.

Yangiyerlik Pardaxon yon qo'shnisi Sobiraxon dastidan dod deyishga keldi. Bu ayol o'zini jamiyatga foydali ishdan olib qochgani yetmay, dalada sharaflı mehnat bilan band bo'lgan eri Ibroyimjon akaga hech kun bermaydi. Erining topgan-tutganini qoqib olib, magazinma-magazin yurgani yurgan. Ro'zg'or ishiga qayrilib ham qaramaydi. Eri daladan horib tolib kelsa, unga soladigan dasturxonı janjal bo'ladi. «Menga u kerak, menga bu kerak», deb butun mahallani boshiga ko'tarib shovqin soladi. Mana shu yerda bitta savolga ehtiyoj tug'ilib qoldi. Xo'sh, yomon tili, yomon xulqi bilan qo'ni-qo'shnilarini ko'chib ketish darajasiga keltirgan bu nodon xotinga endi ular qaysi ko'z bilan qarashadi? Albatta, yomon ko'z bilan! Har kim undan o'zini olib qochishga tirishadi.

Jamiyatimizda madhini doston qilsa arziydigan ajoyib oilalar had-hisobsiz. Bunday shirin oilalarni ko'rganingda yo maqtovini eshitganingda sevinib, teringga sig'may ketasan, kishi. Odamzodning, tarixning, zamonning intilishi shu, deysan.

Ha, shu!

Yon qo'shnimning oilasi ana shundayidan. Qo'shnim o'zimizning mahallamizdagina emas, butun shaharda hurmatlı odam. Bunday katta hurmatga sazovor bo'lishiga, avvalo, uning o'zi, odobi, ayniqsa, odamshavandaligi sabab bo'ldi. U uyida, ya'ni oila a'zolari orasida; ko'chada, ya'ni el-yurt o'rtasida; ishda, ya'ni jamoa qatorida o'zini bir xilda tutadi. Odatlarida, o'zini tutishida soxtalik, xo'jako'rsinlik yo'q. Muhitidagi odamlarning hammasiga bir xil hurmat, bir xil munosabatda bo'ladi. Kattani katta deb yaltoqlik qilmaydi, kichikni kichik deb dimoq ko'tarmaydi. Yana bir ajoyib fazilati shundaki, ish tanlamaydi, qanday ish bo'lsa, u ish o'z ijrosini kutib turgan bo'lsa, darrov qo'l uradi. Bu oilada er ham, xotin ham davlat idoralarida ishlaydi. Qaysi biri xizmatidan ilgari kelsa, uy ishini saranjomlab qo'yadi. Er: «Men erman!» – deb kekkaymaydi, xotin: «Men ham ishlab keldim» – deb firoq qilmaydi. Bordi-yu, birontasi tashqi sabab bilan xafa ko'rinsa, ikkinchisi darrov joniga ora kiradi. Mana, yigirma yildan ortiq qo'shnichilik qilamiz, lekin biron marta bu oiladan nojo'ya ovoz chiqqanini bilmaymiz.

Balki, bu oilada hech qachon past-u baland gap bo'lmaz?

Qaydam. Shamolsiz fasl bormikan? Bo'lmasa kerak. Ammo shamol bo'ladi, daraxtlarni sindirib, tomlarni qo'porib ketadi. Yer-u ko'k to's-to'polonga to'lib, olam ostin-ustin bo'ladi. Bu xil shamolni «bo'ron-dovul» deydilar. Shamol bo'ladi, beozorgina esib, o't alafarni salom berdirib o'tadi. Bu xilini «yel» yo «shabada» deydilar.

Qo'shnimizning uyida hech qachon bo'ron turmaydi. Onda-sonda faqat yel esarmish. Shunday paytlarda bir tomon o'zini bosib, muloyim muomalasi bilan bo'ron yo'lini to'sarmish...

Jaholat ko'p yomon narsa. Bu shunday bedod, shunday beomonki, izmini berib qo'ygan kishi keyin attang deydi. Yuqorida keltirgan misolimizdagi yo'lovchi jaholatga yo'l bermadi. Aksincha, xushmuomalasi bilan jaholat unini o'chirdi. Ajabo, shunday qattiq, o'rinsiz haqoratdan keyin o'zini bosish, buning ustiga tag'in jilmayib turib shirin so'z aytish u kishiga oson bo'ldimikan? Yo'q, albatta. Bunday qilish oson emas, juda qiyin. Xalqimizda: «Ishning osoniga yugurgan odam odam emas, og'irini qilgan odam odam», degan gap bor. Ko'rdingiz, xushmuomalali yo'lovchi ishning qiyinini qildi. Shuning uchun ham bizning husn tavajjuhimiz o'sha odamshavanda kishida qoldi.

Men Farg'ona shahrida bir odam bilan tanishdim. U oshxonada ovqat yeb o'tirgan ekan. Biz yonidagi bo'sh o'rinlarga kelib o'tirdik. Do'stim kesatikka o'xshagan bir jilmayish bilan:

– Bu kishi Karimjonboy bo'ladilar, – dedi.

«Boy» so'zini g'alati qilib aytdi. Men yalt etib u kishining yuziga qaradim. Qosh-ko'zlari porillab turgan yoqimtoy chehrasiga qizillik yugurdi. U bir yoqqa shoshayotganday, ovqatini naridan beri yedi-yu, biz bilan xayrlashib chiqib ketdi. Ana shundan keyin do'stim uning ta'rifi qilib berdi:

– Ko'p bema'ni odam. Ignadan chiqqanday toza usti boshini, chiroyli basharasini ko'rgan kishi unga mahliyo bo'lib qolishi mumkin. Lekin aslida unday emas. Bizning mahallamizda turadi, bilaman-da. Har kun ishdan uyiga xo'mrayib, o'qrayib keladi. Uydagilari qullar ekanmi, deb o'ylaysiz. Ko'zlaridan qon,

tilidan zahar tomadi. Karimjonni ko'rar-ko'rmas xotinini titroq bosadi, bolalari har yoqqa urib ketishadi. Karimjon yetti qavat ko'rpachada o'tirib olib, «uni qil!» deb xotiniga, «buni qil!» deb bolalariga baqiradi. Xotin bechoraning umri shu uy ishlari, bag'ritosh er tashvishlari bilan o'tayotganini, ya'ni u ham shu oila baxt-saodati uchun eridan kam xizmat qilmayotganligini Karimjon nazariga ilmaydi.

«Men ishlab charchab keldim, senlar uyda o'tiribsanlar!» deb bola-chaqasiga kun bermaydi. Keyin ko'chaga, samovarga chiqib, yarim kechagacha xandon uradi. Ana shunaqa «boy» bu!

Bunday odamlarni xalqimiz «ko'cha xandoni, uy zindoni», deb to'g'ri aytadi.

Afsuski, ana shu Karimjonga o'xshaganlar, ayniqsa kekkaygan ba'zi kamfarosat yoshlar hayotni, ularning o'zlarini ham bezaydigan odamiylik shartlariga e'tibor qilmaydilar, aksincha, buni o'z erklariga kishan deb biladilar. Shuning uchun og'izlaridan nima kirib, nima chiqishi bilan, oqibatda boshqalarning dilarini og'ritib qo'yish bilan ishlari bo'lmaydi.

Qo'pol muomala, ayniqsa, dag'al so'z bag'ri qattiq, fahmi past odamni ham ranjitmay qo'ymaydi. Jamiyatning axloq normalariga itoati bilan chiroy to'kib yurgan odamlarga esa bu xil muomala nihoyatda qattiq botadi. Dili ozor topgan odam soatlab, balki, kunlab o'ziga kelolmay, qo'li ishga bormay qoladi. Demak, qo'pol so'z yo xunuk muomala inson dilini og'ritish bilan birga jamiyat ishiga ham zarar berar ekan. Badfe'l odamlarning sho'rlari shundaki, ular xatti-harakatlari, bema'ni xulq-atvorlari oqibatida boshqalarga ma'naviy, hatto moddiy zarar yetkazayotganlarini fahmlamaydilar. Balki, oralarida fahmlaydiganlari ham topilar, lekin ular kirib qolgan noto'g'ri yo'llaridan qaytish g'amini yemaydilar.

Ma'lumki, vaqtida yopib qo'yilmagan ochiq darchadan it ham, mushuk ham kirib chiqaveradi. Shunga o'xshash, nazoratsiz qolgan og'izdan ham bodi kirib, shodi chiqishi mumkin. Insof bilan o'ylab qaralganda, dag'al so'zning ham, shirin so'zning ham chiqadigan joyi og'iz bo'lgandan keyin, undan

birovning ko'ngil jomini sindiradigan sovuq, xunuk so'z emas, odamda hurmat hissini oshiradigan shirin so'z chiqsa, buning savobiga kim yetsin! Axir, bunday shirin so'z muomala ega-sining odamiylik fazilatiga faqat toj bo'lib tushadi-ku!

Ba'zi tajang, muomalasi qo'pol, so'zi sovuq, to'ng odamlar-ning shu kamchiliklari betlariga solinsa, ular, do'stona pand-u nasihatdan jirillab, yo dilingizni siyoh qilishadi, yo bo'lmasa, asab chatoq, asab buzuq, deb o'zlarini oqlashga tushishadi. To'g'ri, asablari buzuq odamlar yo'q emas, bor, bu ham bir kasallik. Ammo tuzalmaydigan, shifo ko'tarmaydigan kasallik emas. Oldi olinmagan, vaqtida shifo tadbirlar bilan no'xta uril-magan har qanday kasallik tanada yayrab, pirovardida odamni abgor yo nobud qilgani singari, asab kasalligiga yo'yilayotgan qo'pollik, tajanglik ham odamni axiri juvonmarg qiladi.

Ajabo, qo'pollik faqat asab kasalligining oqibatimi?

Yo'q! Zinhor, yo'q! To'g'ri, qo'pollikni tug'diradigan illatda asab kasalligining ham nuqsi bo'ladi, lekin hamma vaqt emas. Bunda, asosan, odamning o'zi, o'z xulq-atvori aybdor. Bunday odamlar inson husnining yuksak shartlaridan biri bo'lgan andishani bilmaydilar. Ular og'izlaridan chiqqan har qanday dag'al so'z boshqaga qattiq botishi, ba'zan fojia bilan tugashi mumkinligini o'ylamaydilar. Shuning uchun ularni «Tuzal-maydigan odamlar», deb aytishga og'zimiz bormasa ham, lekin «Yomon odamlar», deb dadil ayta olamiz. Chunki:

*Yomon o'zini bilmaydi,
O'zgani ko'zga ilmaydi.*

Markaziy gazetada axloq mavzusida bir maqola bosildi. «Eh, sen hali ko'p narsalardan bexabarsan», deb sarlavha qo'yilgan ana shu maqolada yuksak odamiylik hissiga ega bo'lgan fazi-latli kishilar haqida hikoya qilinadi. Ana odamiylik, ana ahillik, ana odamlar to'g'risida g'amxo'rlik! Qarang, korxonaning ish jarayonida ham emas, cho'milgani borgan joyida mayib bo'lgan ekan. Korxona jamoasi uning g'omini yeb, to tuzalguncha par- vona bo'libdi. Yigit korxona ravnaqi o'ziga bog'liq katta mu-

taxassis yo farang ishchi ham emas, ovozi endi do'rillab kelayotgan g'o'r shogird ekan. Ana shu o'smir ishchini korxona jamoasi o'lim changalidan qutqazib qolibdi.

Ana shu maqolani o'qib, o'zimni anchagacha bosib ololmadim. Zamonamizda, katta oilamizda odamlar bir-birlariga suyanchiq, bir-birlariga rahnamo, bir-birlariga hamdard ekanlari vujudimni quvonch hayajoni bilan to'ldirgan edi. Axir, bu maqolada inson taqdiri, inson qadri haqida, chin odamiylik haqida gap bor edi!

Ha-da, biz yaxshi odamlarning yaxshi ishlarini ko'rganimizda hamisha mana shu taxlit tanamizga sig'may quvonamiz. Biz ham o'shanday yaxshi kishilarga o'xshashga intilamiz, yaxshilardan ibrat olib, yomon tomonlarimizni tezroq yo'qotishga urinamiz. Chunki:

*O'rganmagan o'rtanar,
Har qadamda turtinar.*

Ammo o'z jonining huzurini ko'zlab, boshqalar dilining og'rishi bilan ishlari bo'lmaydigan toshbag'irlar hamisha el orasida nafrat uyg'otib kelganlar. Ular inson burchlaridan biri – o'ziga qarshi nafrat uyg'otishda emas, sharaf, hurmat uchun kurashishda ekanini esdan chiqaradilar. Oqibatda, qing'ir yo'lda qinqayib olib, birovlariga ozor berishni o'zlariga «martaba» deb biladilar. Holbuki, undaylarning qanaqa odamliklarini boshqalarga qilgan muomalalari-yu og'izlaridan chiqqan so'zlari fosh qilib qo'yadi. Bunday xulq-atvor uni er-tami-kech oshna-og'aynilaridan ham ayiradi.

Ba'zan shunday yoshlar ham uchrab qoladiki, ular davra madaniyatini, davrada o'zini tutish rasmini pisanq qilmaydilar. Agar har qanday davra yo gurungda jo'ralar yoshi hamma vaqt ham bir xil bo'lavermasligi nazarga olinsa, bunday paytlarda og'izga, ayniqsa, ehtiyot bo'lish zarurati tug'iladi. Nimaga desangiz, biron yoshi kichikroq odam qavatida o'tirgan yoshi katta kishi oldida o'zidan kichikni yo jo'rasini mensimay xunuk so'z bilan so'ksa yo hazillashib og'zini chakki qilsa, bu odobsizlik katta yoshdagi odamga juda malol keladi. Darhaqiqat, og'zi

beposhna kishi xohlabmi-xohlamaymi katta yoshli odamni haqorat qilib qo'yadi. Oqibatda bu odam haligi xo'roztabiat «chapani»dan yuz o'girib ketadi.


Xuddi shunga o'xshash, katta yoshli kishilar kichiklar oldida birovni so'ksa yo og'zig'a bema'ni so'z olsa, unday odam yoshlar nazaridan qoladi. Haqiqatan ham, katta yoshli odam og'zidan chiqqan har qanday dag'al so'z yoshlar og'zidan chiqqan yomon so'zdan yuz chandon xunuk eshitiladi. Bunday paytlarda og'zini chakki qilgan yoshlarni tarbiyasizlikda koyib qo'ya qolishsa, kattalarga nima deyish kerak bo'ladi?

Ma'lumki, yoshlar kattalarga faqat biron narsa o'rganish, ularning turmush tajribalaridan, hikmatli so'zlaridan bahramand bo'lish uchungina yaqinlashadilar. Demak, odam qayerda, kimlar orasida ekanini nazardan qochirmasligi, o'zining xulq-atvori, yaxshi fazilati bilan boshqalarga ibrat bo'lishi zarur. To'g'ri-da:

*Yaxshidan ot qoladi,
Yomondan dod qoladi.*

Ba'zi birovlar odamiylik shartining muhim talablaridan birini unutib qo'yadilar. Charog'on hayotimiz, odamiylikka xos axloqimiz har bir kishidan halollikni, adolatparvarlikni, rostgo'ylikni talab qiladi. Jamiyatimiz tabiati, yuksak intilishimiz taqozosi shunday.

Chunki harom bor joyda – razillik, adolatsizlik bor joyda – jabr, yolg'on bor joyda – tuhmat tantana qiladi. Odamlar orasidagi pok muhabbatlarga putur yetkazadigan bu illat jamiyatni orqaga, faqat orqaga sudraydi. Rizqi ro'zini tirnoq ostidan qidiradigan fosiqlarning tiraqaylashlari somonxonagacha bo'lsa ham, lekin ularning bir kunlik umri jamiyatga juda qimmat tushadi. Bundaylar, «Odam xatodan xoli emas», deyilgan turmush haqiqatini pisand qilmay, birovlarining pashshadek xatolarini yo kamchiliklarini tuyadek qilib ko'tarib chiqadilar. Holbuki, har bir toza niyatli kishining muqaddas burchi yiqilganni ustiga chiqib depsash emas, balki qo'ltig'idan olib turg'azish, ya'ni xatosini dushmanlarcha bo'rttirmay, do'stlarcha tuzatishiga yordam be-



rishdir. Bu xil odamlar jamiyatni yomonlardan tozalayapman, deb ayyuhannos tortsalar ham, aslida, sabl jonlarining huzurini deb aziz jonlarni qurbon qilishni, demak, qilvirlik bilan martaba orttirishni ko'zda tutadilar. Bular uchun xato – jinoyat! To'g'ri, do'stlar ko'rsatganlaridan keyin takrorlanaveradigan xato bora-bora jinoyatga aylanadi. Lekin bilmasdan qilib qo'yilgan birgina xato uchun odam boshini yeyishga qasd qilish odamiylikning pok nomiga, «Odam – odamning do'sti», deyilgan haqiqat tantanasiga suiqasd degan so'z. «Inson» deyilganda, uning ko'p ajoyib fazilatlari qatorida vijdoni bilan irodasi ham ko'z o'ngingga keladi. Odamiylikning bu ikki durdonasidan ayrilgan kishi insonlik shon-u sharafigan ham ayriladi. Shuning uchun:

*Vijdon quli,
Iroda begi bo'li!*

Yana bir toifa odam bor. Bu xillar hamma vaqt haqli-yu, boshqalar nohaq. O'zinikini ma'qul bilishadi, boshqanikini yerga urishadi. Donishmandmi desangiz, gaplaridan latta hidi keladi. Shunisi achinarliki, ular g'animat umrlarini g'iybat bilan o'tkazib, jamiyat nafi uchun arzirli biror narsa qilmaydilar, qilsalar ham qo'l uchida, mendan ketguncha, egasiga yetguncha qabilida. Qo'llariga qil tushib qolsa-chi! O-o, uni ham qirq yorib, qirq qiyiq qidiradilar. Bundaylar hayotga, to'g'ri yo'ldan borayotgan to'g'ri odamlarga qing'ir ko'zoynak bilan qarashga odatlanib qolganlar. Shuning uchun hamma narsa qiyshiq, hamma qing'ir ko'rinadi ko'zlariga. Holbuki, odam bolasining vazifasi, jamiyatdagi burchi shu jamiyatdagi yaxshi narsalarning ko'payishi uchun kurashishdir. Hayotdagi, odamlardagi ayrim kamchilikni dastak qilib olib, hamma narsani qoraga chiqarish – faqat yovuz niyatli kishininggina ishi! Garchi xalq maqolida «Dili qing'irning tili qing'ir» deyilsa ham, biz undaylarga mana bunday deyishimiz kerak:

Agar odam bo'laman desang:

*To'g'ridan qing'ir qidirma,
Qing'irdan to'g'ri qidir!*

Kattalarning odamiylik fazilatları, ma'naviy go'zalliklari yoshlar uchun hamma vaqt ibrat maktabi bo'lib kelgan. Hozir esa ayniqsa. Shuning uchunmi, katta odam ekanliklarini noto'g'ri tushunadigan ba'zi kattalarning ayrim qiliqlari ko'zimizga juda xunuk ko'rinadi. Natijada yoshlar ulardan ibrat olishga emas, uzoqroq yurishga harakat qilib qoladilar.

Men bultur bir katta idora oldida og'aynimni ko'rib qoldim. Hamisha kulib, chaqchaq urib yuradigan dilkash odam edi u. Qarasam: qovoqlari osilgan, hafsalasi pir.

– Ha, qovog'ingdan qor yog'ib qolibdi, burga tepdimi? – dedim kuldirgim kelib.

Do'stim kulmadi. Ko'nglidagini aytsa, ta'bi battar xira bo'ladigandek:

– Yo'q, o'zim, – deb qo'ya qoldi.

Men qo'ymadim:

– Yo'q, bir sir bor, yashiryapsan.

U tan oldi.

– Anavining oldiga keluvdim, – dedi katta idoraga ishora qilib.

– «Anavi»ning kim?

– Kattakonimiz-da.

– Arz bilan keluvdingmi?

– Go'rnimi! Kasaldan turgan ekan, bir ko'rib ketay, deb keluvdim.

– Xo'sh?

Do'stim jahlini zo'rg'a bosib turgan ekanmi, birdan portlab ketdi:

– Qabulxonasida ikki soat o'tirsam bo'ladimi! Qani endi kirishga ruxsat bersa!

– Kutib o'tirganingni bilmagandir balki?

– E, kotibani kirgizdim, falonchi do'stingiz sizni ko'rgani kelibdi deng, deb.

– Xo'sh?

– «Bugun qabul kuni emas», debdi.

Xaxolab kulib yubordim.

– Sen ham xo'p anoyisan-da, eshigini ochib kiravermaysanmi!

— Ochishga-ku ochdim, lekin kirmadim. Ostonasidan turib: «Hayf senga amal!» dedim-u, eshigini taq yopib, chiqib ketdim.

Biz uchalamiz yoshlikda birga o'qigan, keyincha bola-chaqalarimiz bilan bir-birimiznikiga bordi-keldi qilib yurgan juda yaqin, dilkash o'rtoqlar edik. U katta amalga mingandan keyin esa og'aynilarini tanimay qo'ydi. Ko'cha-ko'yda yo biron marosimda ittifoqo ko'rishib qolsak, o'rtamiyona gavdasini baland tutib, osilgan qovoqlari ostidan xo'mrayib qaraydigan kibrli ko'zlari-ning qirini bir tashlab, yonimizdan kekkayganicha o'tib ketaverar edi. Amal burunlariga qurt tushirib qo'yadigan bunday odamlar vazifasida uzoq turmay, yana eski muhitiga, ya'ni amaldorligida tanimay qo'ygan oshna-og'aynilari yoniga qaytib kelishlari muqarrarligini nazardan qochiradilar-da, amalga boshqalardan go'yo yuqoriroq bo'lgani uchun berilgan siylov deb qaraydilar.

Holbuki, amal fazilat emas, vazifa. Ammo uni fazilatga aylantirish — odamlilik qadr-qimmatini biladigan kishilarninggina qo'llaridan keladi. Bizning sho'ring qurg'ur amaldor oshnamiz esa vazifasini fazilatga emas kibr-u havoga aylantirdi. Oyoqlari yerda yursa ham, kallasi osmonda suzdi. Chunki u sharq donishmandlaridan Abdurahmon Jomiyning bir hikmatli ogohini nazardan qochirgan edi. Donishmand deydi:

*Mansab bilan balandmas odam,
Mansab odam bilan muhtaram.*

Ko'p o'tmadi. Do'stimiz yaqinda mansabdan tushdi. Endi u bizni, eski og'aynilarini ko'rganda, og'zi qulog'iga yetib tirjayadi, bizdan oldin salom beradi, ikki bukilgudek bo'lib qo'limizni oladi. Lekin sovib ketgan ko'nglimizni ololmaydi. Neajab:

*Havosi qanday bo'lsa,
Navosi ham shunday.*

Odamiylik sha'niga dog' tushiradigan illatlar to'g'risidagi gapimizga hazrati Alisher Navoiyning quyidagi tabarruk so'zlari bilan xotima bersak:

*Otang bolasi bo'lma,
Odam bolasi bo'!*

MEHNATSEVARLIK

Yuqorida biz ko'rib o'tgan odamiylik insondagi ma'naviy go'zallik tarkibida naqadar muhim o'rin tutsa, mehnatsevarlik ham o'sha tarkibda odamiylikdan kam o'rin tutmaydi. Aslida insonga ma'naviy husn beradigan bir tushunchadagi ikkita so'z bular. Shuning uchun ularni bir go'zal chakkasiga taqilgan qo'shaloq gul desa bo'ladi.

Mehnat – qudrat demak. Inson hayotini bezaydigan, unga baxt-saodat keltiradigan, boylik, farovonlik baxsh etadigan yagona kuch mehnatdir.

Mana shu yerda o'tmish donishmandlarining: «Inson mehnatda, faqat mehnatda buyukdir. Mehnatga muhabbati qancha qizg'in bo'lsa, uning o'zi shuncha ulug'vor, ishi esa shuncha unumli, chiroylidir», degan hikmatli so'zlari esga tushadi.

Odam bolasining umri bitta-bittadan g'isht terib ko'tarilgan binoga o'xshab ketadi. Binoning mustahkam turishi, uzoq umr ko'rishi, ishlatilgan materialning sifatidan tashqari, poydevorining yaxshi-yomonligiga bog'liqdir. Metin poydevorga o'rnatilgan bino qanchalik mustahkam bo'lsa, yoshlikdanoq biron hunar yo kasb etagini mahkam ushlab olgan yigit-qizlarimiz ham hayotda o'sha hashamatli bino kabi savlat to'kib o'tishadi. Ammo inson savlati har qanday bino hashamatidan baland. Chunki u hashamati bilan ko'zlarni qamashtiruvchi ko'p qavatli binolarnigina emas, fazoga uchirilayotgan mo'jiza kemalarni ham yaratuvchi, ijod qiluvchi, sayqal, bezak beruvchi aqlli, irodali kuchdir. Faqat inson ana shunday aqlli, irodali kuch da-

rajasiga ko'tarilish uchun mehnat qozonida rosa qaynab, biron hunar yo ixtisos egasi bo'lmog'i lozim.

Hunar tanlash masalasida esa hozirgi yoshlarimizning iqbollari juda baland. Bironta hunar o'rganish tilagi bilan hayotga nazar solsak, mehnat ijod sohasi shu qadar ko'pligini ko'ramizki, buni katta baxt, katta davlat deb sanash kerak. O'tmishda, ota-bobolarimiz davrida, hatto bugungi biz keksalar hayotga endi-endi qadam tashlagan yoshlik paytlarimizda kasb-hunar doirasi shu qadar tor edi, bir qarashdayoq hammasini qamrab olib, yana qanaqa hunar bor ekan, deb qidirib qolinardi.

Keling, o'sha hunarlarni men bir-bir sanay, siz eshiting: taqachi, temirchi, aravaso, tunukaso, soatso, bo'zchi, tig'chi, dugchi, degrez, chilangar, cho'pgar, duradgor, yigchi, zargar. Bular eski zamon hunarlaridir. Hozir siz bilan bizga ma'lum bo'lgan kasb-ixtisosni sanab o'tirmaymiz, iloji yo'q, behad ko'p. Faqat o'zingiz yashab turgan oilangiz iste'molidagi buyumlarga bir nazar solsangiz, hadsiz-hisobsiz hunar mahsulidan kichik bir zarrasini ko'rasiz: elektr, radio, televizor, gaz, kir yuvish mashinasi, changtortar, pianino, vanna, har xil idish-tovoq, karavot, stol, stul, vodoprovod va hokazolar. Siz bu narsalarni ko'rasiz-u, kim qilganini, qanday qilinganini ko'pincha o'ylamaymiz. Biz Moskvani Toshkentdan atigi bir necha soatlik yo'l qilib qo'ygan gigant samolyotlar, uchar poyezdlar, avtomobillar va boshqa yengilliklar to'g'risida gapirmayoq qo'yaylik. Ammo bu ne'matlarni yarataman deb terga pishib mehnat qilayotganlar siz-u bizga o'xshagan odamlar ekanini gapirmasdan o'tolmaymiz. Ana shu ajoyibotni yaratayotganlar tor ma'noda hunarmand, keng ma'noda esa ijodkor kishilardir. Bularning to'qson to'qqizi o'rta yo maxsus hunar maktablarini bitirib chiqib o'zlarini mehnatga urgan, mehnatdan sharaf topgan go'zal insonlardir.

Oilada, ota-ona bag'rida o'n yetti-o'n sakkiz yil yengil mehnat bilan umr ko'rgan ba'zi bir xil yoshlar korxona yo dala ishiga vahm bilan qaraydilar, ularga korxonalaridagi yo dalalaridagi kir ishlar aqlga sig'maydigan xo'rlik bo'lib tuyuladi. Qora

ishdan jirkanadigan shunaqa «pokizalar» bor oramizda. Bunga afsuslanmay ilojimiz yo'q. Faqat o'shanday yoshlarning esiga solib qo'ymoqchimiz: ishning og'ir-yengili bo'ladi-yu, ammo kiri-tozasi bo'lmaydi. Buning har ikkalasi ham insonga sharaf keltiradi. «Sekin qimirlaydigan, og'ir, mushkul, qora ishga inonmaganlikdan odamlar vahimaga tushib, «oson» yo'l qidirib qoladilar».

Ko'rib turibsizki, vahm o'rinsiz. Ishning toza yo kiri, yaxshi yo yomoni shu ishga qo'l urgan odamning mehnatga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Ba'zilar kir deb jirkangan ishga sidqidillik bilan, muhabbat bilan qo'l ursangiz, u ish sizni o'ziga shu qadar mahliyo qiladiki, siz hayotingizni shu ishdan ayri tasavvur qilolmay qolasiz. Muhabbat bilan urilgan qo'ldan har qanday «kir» ish ham toza, jozibador, so'lim bo'lib chiqadi. Agar «toza» deb tanlagan ishingizga muhabbat bilan emas, parvosizlik bilan, kuymasdan, yonmasdan qo'l ursangiz, u kir, jozibasiz, xunuk bo'lib chiqadi. Avvalgisini ko'rganlar: «Qo'li gul ekan, otasiga rahmat!» deb ofarin o'qisa, keyingisini ko'rganlar, «Qo'ling sinsin, padaringga la'nat!» deb ketadi. Shunisiidan Xudo asrasin!

Mehnatga bo'lgan shu ikki xil munosabat zamiriga chuqurroq razm solsak, shu ma'noni o'qiymiz: avvalgi odam odamiylik burchini bajardi, keyingisi esa bajarmadi. Demak, mehnatga bo'lgan munosabatni odamning insoniylik qiyofasi desa bo'lar ekan. Binobarin, bu munosabat xunuk bo'lsa, hech qanday jismoniy go'zallik odamdagi ijtimoiy nogironlikni yopib ketolmaydi.

Xalqimizda «Odam bolasiga qirq bir hunar ham oz» deyilgan yaxshi gap bor. Bu hikmatni qarang! Agar kasb-kor, hunar adadi barmoq bilan sanaladigan eski zamondaki shunday deyilgan ekan, hozirgi atom asrining sanagan bilan ado bo'lmaydigan hadsiz-hisobsiz kasb-korlari, behad ixtisoslari zamonida «Yoshlarga qirq bir ming hunar ham oz», deyilsa to'g'ri bo'lar? Ha, shunaqaga o'xshab qoldi. Qani, shu gapning mag'zini bir chaqib ko'raylik. Hozirgi talabchan, murakkab hayotimizda bir

hunar yo bir ixtisos egasi qulochini keng yoyib, ishini bitirib ketaveradi, deb bo'lmaydi. Bir hunar yo bir ixtisos katta davlat, albatta. Ammo tor ma'nodagi davlat. Hayot esa bir-biri bilan girak bog'lagan shunday bir halqalardan iboratki, bir halqaning tilini bilsang-u, boshqalarinikini bilmasang, katta ishda, albatta, qoqilib qolasan. Shuning uchun bo'lsa kerak, aqlli ishchi bitta ixtisos bilan kifoyalanib qolmay, korxona mahsuloti talab qiladigan bir qancha ixtisosni o'rganib oladi. Uni allaqancha ixtisosni o'rganib olishga majbur qilgan narsa tirikchilik ehtiyoji emas, albatta. Agar masala faqat shunga qarab qolganda edi, malakali ishchi bitta ixtisos bilan ham bermalol yashashi mumkin bo'lardi. Ammo hozirgi yoshlarimizni, ongli kishilarimizni bir necha ixtisosni o'rganishga majbur qilayotgan narsa – jamoa manfaati, xalq, Vatan manfaatidir. Kimiki bir nima qilibdi Vatan mehrobiga to'kibdi. Shuning uchun har kim qo'lidan kelganini qilishga, kelmaganini bilishga intiladi.

Bepoyon dalalarimizda «oq oltin» yetishtirayotgan ajoyib yigit-qizlarga, zavodlarda inson mehnatini osonlashtiradigan alomat mashinalar, moddiy boyliklar yaratayotgan vatanparvar ishchilarga nazar solsak, ularning ma'naviy chiroylariga havasimiz keladi. Haqiqiy go'zallik shu ekanini, bunday go'zallik yoshlik chog'lari bilan birga o'tib ketadigan o'tkinchi chiroy emasligini, balki odam bolasining nomi, shoni bilan baravar yashaydigan, u dunyodan o'tgandan keyin ham xalqlar qalbida, zamonlar dostonida abadiy saqlanadigan chinakam go'zallik ekanini anglaymiz. Shuning uchun biz go'zal inson haqida xayol qilganimizda, mehnat – hayotining eng zarur ehtiyojiga aylangan kishi ko'z o'ngimizga keladi. O'rta hamмага ma'lum shiorlarni tashlab ko'kragiga musht urib maqtangan odam emas, har kun, har vaqt mehnat burchini kamtarlik bilan, kerilmasdan, maqtanmasdan, vaqtini bekor o'tkazmasdan bajarib kelgan odam – chinakam go'zal odamdir.

Ma'naviy go'zallik insonning jamiyatda tutgan o'rniga, jamiyatga munosabatiga, jonkuyarligiga, mehnatdagi fidokorligiga, hayotdagi halolligiga juda ham bog'liq.

Mehnatdan qochib, ota-onasining yo opa-akasining bo'y-niga zulukday yopishib olgan odamning jamiyatdagi obro'-e'tibori qay darajada bo'lar ekan? Aqlli odamning eng yomon ko'rgan narsasi – tekinxo'rlik, ishyoqmaslik, nushxo'rlikdir.

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnati tufayli izzat-u hurmat ko'rgan har bir ota-ona bolasining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi. Mehnatni toza yo «kir»ga bo'lish noto'g'ri ekanini yuqorida ham aytib o'tgan edik. Shu sababli har qanday mehnat, jumladan, idish-tovoq yuvish, uy supurish va shular kabi mayda ikir-chikirlardan tortib fazoga uchish ham mehnat. Ota-onalar buni yaxshi anglaydilar. Shu tufayli bolalarining kelajagini o'ylab, ularni mushtumdeklaridan mehnatga o'rgatadilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham shu. Ammo ba'zi bolalar ro'zg'or ishlaridan ham bosh tortadilar. Otalari yo onalari biron ish buyurishsa, ota-onalariga shafqatsiz, berahm kishilarga, hatto quldorlarga qaraganday o'qrayib, yeb yuborgilari kelguday bo'lib qaraydilar. Malol kelib, qo'l uchida qilgan ishlari-dan ota-onalari norozi bo'lishsa, uzr so'rash o'rniga to'ng'illab beradilar. Ota-ona bolalarining mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo'lavermas, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligi shunday yo'l tutishga majbur qiladi.

Bilmaganini bilishni, o'rgatilganini o'rganishni xohlamagan kaltabin yoshlarga qarab shoir degan ekan:

*Kimki o'rganishni or bildi,
Har qadamda o'zni xor bildi.*

Ota-ona ish buyurganda, farzanddan lozimi ularga o'qrayib qarash emas, aksincha, buyurgan ishlarini ishq-havas bilan, halollik bilan bajarishdir.

Shu borada bir misolimiz bor. Andijon tomonlarda Sadridin K. degan kishi idora xizmatchisi bo'lib ishlaydi. Idoralarda ishlaydiganlardan mehnat talab qilinmaydi, ular ishlab charchamaydilar, deb o'ylash to'g'ri bo'lmaydi, albatta. Idoralarda ham

odamni charchatadigan ishlar to'lib-toshib yotadi. Lekin bu narsa farzandni ota-onasiga yordam berish burchidan ozod etmaydi.

Sadriddin uyiga idoradan kekkayib keladi-da, otasiga ham, bolalari bilan o'ralashib qolgan xotiniga ham qarashmaydi. Ko'pincha otasi hovlida yer chopib yo o'tin yorib turgani ustiga keladi, ammo otasining qo'lidan ishini olmaydi. Olish u yoqda tursin, aqalli ko'ngil uchun: «Qo'ying, ota, o'zim qilib qo'yaman», ham demaydi. Bezrayib salqin so'riga chiqadi-yu, cho'zilib «dam» oladi.

Sadriddinning farzandlik sha'nigagina emas, odamgarchilik sha'niga ham isnod keltiradigan bu xunuk qilig'i hali holva. U o'qigan, o'rtamiyona bilim olgan odam. Otasi bo'lsa chalasavod. Qiyin yillarda bolalarini boqaman, deb o'qiyolmay qoldi. O'g'li o'zini bilimli fahmlab, otasini nazariga ilmaydi. Har ikki gapning birida: «Tushunmaysiz-da!» deb otasini yerga uradi. Bu oqpadar o'g'il bilmaydiki, o'zi jerkib, yerga urayotgan kishisi – otasi!

Ota-onaning savodsizligi ularni hurmatga bo'lgan haqlaridan mahrum etmaydi. Ular shunday tabarruk kishilardir. Shuning uchun farzand har qancha olim, har qancha baland martabali kishi bo'lmasin – ota-onasi oldida hamisha farzanddir. Demak, farzandlik burchini unutishga haqqi yo'q.

Sadriddin o'zini jismoniy mehnatda toblamagani, mehnatning bu turiga yomon ko'z bilan qaragani uchun otasi oldidagi farzandlik burchini ham esdan chiqarib qo'ydi. Shu boisdan otasiga xuddi bir mahal boylar mardikorga qiladigan muomalani qiladi. Otasiga ish buyuradi. Buyurgan ishini otasi vaqtida bajarolmasa, «Hali ham ivirsib o'tiribsizmi! Tezroq qiling-e!» deb o'shqiradi. Lekin tezroq qilinishi kerak bo'lgan ishni tezlatishga o'zi yordam bermaydi.

Shu muomaladan ko'rib turibsizki, Sadriddin farzandlik burchining eng oddiy shartini ham unutib, otasini oyoqosti qilishdek gumrohlikdan tortinmaydi. Bu esa ota tuzini yeb, tuzlig'ini bulg'ash bilan baravar eng og'ir gunohlardan biridir.

Biz suhbatimizning «Odamiylik» bobida yangiyerlik So-biraxonning yomon qiliqlari to'g'risida gapirib edik. Endi mu-

kammalroq to'xtaymiz. Sobiraxon erining topgan-tutganini qoqib olib, uzzukun magazinma-magazin yurarmish, pul so'rab eriga kun bermasmish. Xo'sh, Sobiraxon nega bunday qiladi? Nega u erining qadriga yetmaydi? Eri peshana teri bilan topib kelgan pulni nega joni achishmay sovradi?

Sobiraxonni magazinga qatnaydi, deb ayblasak noto'g'ri bo'ladi. Nimaga desangiz, magazinlar odamlar ehtiyojini qondirish uchun xizmat qiladi. O'z ishi, oila a'zolarining ishi bilan magazinga qatnagan odamlarda ayb yo'q. Lekin Sobiraxon magazinga qatnashni ehtiyojga emas, kasbga aylantirib yuborgan bo'lsa, buni yomon deyish kerak. Mamlakatimizda necha yuz minglab ayollarimiz paxta dalalarida, zavod-fabrikalarda, ajoyib qurilishlarda, ilm-ma'rifat uylarida mehnatsevarlik bilan ishlab turgan, jamiyat baxt saodati yo'lida jonbozlik qilayotgan bir paytda bekor yurish, buning ustiga yana turmush halovatini buzish ko'p yomon narsa.

Mehnat bilan yashab, hayotni mehnati bilan yashnatib kelayotgan odamlarni hurmat qilish, ularni boshga ko'tarish, ma'naviy huzur-halovatlarini o'ylash odamiylikning eng birinchi shartlaridandir. Sobiraxon buni tushunmaydi. Shuning uchun tushunmaydiki, u o'zi jamiyatga, foydali mehnatga bosh qo'shmaydi, oqibatda, mehnatning qadr-u qiymatini ham, u keltiradigan baxtni ham bilmaydi. Agar u nuqul magazinga emas, atrofiga, yon-veriga qarasa edi, davlat, xo'jalik mexanizmini erkaklar bilan baravar jonbozlik ko'rsatib yuritib turganlar ayollar ekanini ko'rardi. Ayollar mehnati shavkatli mehnat ekanini anglardi. Balki Sobiraxonning salomatligi jismoniy yo aqliy mehnatni ko'tarolmas? Yo'q, Sobiraxon shu yoshga kirib, dard nimaligini bilmaydi. Unday bo'lsa, hunari yo'qdir, ish bilmas? Biron ishga qo'l ursam, eplayolmayman, deb yuragi betlamas?

Agar vahmi shunda bo'lsa, buning ham davosi bor. Mana u:

*Ertaga qo'limdan ish kelsin desang,
Kelar, agar bugundan g'amin yesang!*

AXLOQ

Insonni ma'naviy jihatdan go'zal qilayotgan odamiylik va mehnatsevarlik kabi sifatlar orasida axloq sharti yana muhim o'rin tutadi. Odam bolasi bilimi, tajribasi, shijoati, tashqi qiyo-fasi bilan havas uyg'otishi mumkin. Ammo axloqi buzuvchi, xulqi yomon bo'lsa, bu yaxshi sifatlarning hammasi ikki chaqa bo'lib qoladi. Shuning uchun har kim (u xoh katta yoshda, xoh kichik yoshda bo'lsin) odamlar nazaridan qolmaslikka, biron nojo'ya harakat yoki xunuk so'z bilan o'zini badnom qilmaslikka tiri-shadi. Uni shunday qilishga axloq sharti majbur qiladi.

Ma'lumki, har qanday ijtimoiy tuzumning o'z mafkurasini, kurash va intilishini aks ettiradigan axloqi bo'ladi. Shuning uchun axloqni jamiyat oynasi deb atash mumkin.

Sharqda mavjud axloq bilan Yevropa dunyosida hukmron bo'lgan axloqni taqqoslasak, bular orasida yer bilan osmon qadar farq borligini ko'ramiz. Yevropa dunyosining razolat cho-higa qulagan «axloqi» yoshlargagina emas, hatto keksalarga ham pardasiz xulq-atvor uchun keng yo'l ochib beradi. Buning sababini ularning yirtqichlik tabiatidan, «Bos! Ol!» asosiga qurilgan bosqinchilik mafkurasidan qidirish kerak.

Bizda esa axloq butunlay boshqa asosga qurilgan. Odamiylik fazilatlarini, xususan, vijdon, diyonat, vafo, poklik... ruhiy va ma'naviy olamimiz shiori, bayrog'idir. Odamiylikka xos talab-larda jamiyat baxt-saodati yo'lida halol mehnat qilishi, ijtimoiy burchni yuksak darajada anglashi, ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik, rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlik kerak, deb ta'kidlangan. Biz bu axloqning hayotdagi tantanasiga shohid-

miz. Zamondoshlarimiz, bir yoqdan, fidokorona mehnatlari bilan halol insonning nimalarga qodir ekanini ko'rsatsalar, ikkinchi yoqdan, tahsinkor axloqlari bilan pokiza hayotlarining ma'naviy go'zalligini namoyish qilmoqdalar. Ayniqsa, yoshlar maktablariga, ota-onalariga, o'rtoqlariga muhabbatlari bilan, yaxshi xulq va odoblari bilan hammaga, xususan, tengqurlariga ibrat bo'lmoqdalar. Ayni zamonda mehnat va ijod maydonining eng og'ir sohalarida jonbozlik, vatanparvarlik, odamiylik fazilatini ko'rsatib, jamiyat hurmati va muhabbatining qaynoq ilhom manbayi bo'lib qolmoqdalar. Lekin, afsuski, shunday go'zal yoshlarimiz, ajoyib farzandlarimiz orasida, kaptarlar to'dasiga aralashib qolgan qorashaqshaqlar singari, beboshlar ham uchrab qoladi. Biz bunday beboshlarni, ochiqroq qilib aytganda, bunday bezorilarni ko'rganimizda, shubhasiz, behuzur bo'lamiz, ularning sholi orasida kurmak bo'lib yashashlariga befarq qaray olmaymiz.

Ma'lumki, inson onadan axloqsiz yo bezori bo'lib tug'ilmaydi. Uni yo ijtimoiy tuzum, yo tor muhit buzadi. Bizning jamiyatimizda esa odamning buzilishiga na zamin bor va na asos. Shuning uchun bizdagi ba'zi axloqsizlik, bezorilik, tekinxo'rlik hollari faqat tor muhit ta'siri ostida siqilib yashayotgan yaramas illatlar bo'lishi mumkin. Aks holda, tuppa-tuzuk yigit-qizlarimiz yoshlikdek katta davlatni behudaga sovurmasdi, ko'cha-ko'ya sanqishni emas, biror hunar o'rganishni; tekintomoq bo'lishni emas, mehnat bilan yashashni; ota-onani qaqshatishni emas, rozi qilishni o'ylar edi.

Mana shu yerda bir savol tug'iladi:

– Xo'sh, ular jamiyatimizga yot xulq-atvorni qaydan oldilar?

Ha, barakalla! Ularning xatti-harakatlari chindan ham jamiyatimizga yot. Buni savolning o'zi ham ko'rsatib turibdi. Agar bugungi jamiyatimizda zang bosgan urf-odat, eski tushuncha hamon mavjud bo'lganda edi, ayrim yoshlarning bizni ajablantirgan qiliqlari ko'zimizga erish ko'rinmasdi. Jamiyat ilg'or tushunchalar manbayi bo'lib qolgani uchun ana shunday kir-girdlar ko'zimizga yaqqol tashlanadi, biz ularning paydo bo'lish sababini, yo'qotish yo'lini qidirib qolamiz.

Axloqsizlik tug'ma illat emasligini yuqorida aytib o'tdik. Shuningdek, bunday yomon xulq-atvorlar tabiiy ofat singari osmondan ham yog'ilmasligini bilamiz. Bularning asl tug'iladigan, qo'lansa hid taratadigan joylari boshvoqsiz oila, tor muhit, maslaksiz, ma'nosiz jo'ralar ulfatchiligidir. Bunday beboshlar ota-ona tarbiyasidangina emas, jamiyat ta'siridan ham qochadilar. O'zlarini shu taxlit tutaversalar, bora-bora ham aqliy, ham ma'naviy jihatdan mayib bo'lislari aniqligini, jamiyatga foydali emas, zararli odamlarga aylanishlari mumkinligini ularning o'zlari tushunmaganlarida ham ota-onalari, yor-u birodarlari, ayniqsa, yaqin jamoasi tushunmaydi, deb bo'lmaydi. Tushunishadi, ammo bunga yo parvosiz qarashadi, yo talabchanlikda bo'shanglik qilishadi. Shuning uchun bebosh, ishyoqmas, axloqi past kishilar ko'proq odamlar taqdiriga, ularning buguni-yu ertalariga panja orasidan qaralgan joylarda uchraydi.

Kishilarimizdagi xossatan axloq odamiylikka xos ommatan axloqning tiniq chashmasidan suv ichadi. Shuning uchun kishilik axloqining eng yaxshi namunalarini tanalariga singdirayotgan xulqi chiroyli zamondoshlarimizni chashmadan oqib chiqqan toza suv desak, axloq yo'lidani toygan, adashgan, xulqi buzuqlarni loyqa tomchilar deb aytishga majburmiz. Biz bu suhbatimizda chashmadan jo'sh urib chiqayotgan katta suv to'g'risida gapirib o'tirmaymiz, busiz ham u hammaga ma'lum. Lekin ana shu toza suvni bulg'ash qasdidani bo'lgan loyqa tomchilar to'g'risida ikki og'iz gapirmay o'ta olmaymiz.

Jinoyatlar odat tusiga kirib qolgan joylarda o'g'rilik, haromxo'rlik, buzuqilik hech kimni hayron qoldirmaydi. Ammo bunday narsalar uchramaydigan yo kamdani kam uchraydigan joylarda esa kichik bir hodisa katta shov-shuvga sabab bo'ladi. Ana shunday shov-shuv burnog'i yili Namanganda bo'lib o'tdi.

Mamadali Ikromov jamoaga rais qilib ko'tarilgan dastlabki kunlarida ancha ter to'kib ishladi, jamoani moddiy va madaniy tomondan xiyla ko'tardi, dehqonlarning maishiy ahvollari ham uncha-muncha yaxshilandi. Pastdani yuqori hamma un-

dan xursand edi. Ammo bu xursandlik qanotini Mamadali-ning o'zi sindirdi. U nafs balosiga mukkasidan ketdi-yu, toza chashmadan qayrilib, loyqa tomchiga aylandi. Jamoa bog'i va polizining butun daromadi uning Yuxo tabiat jig'ildoniga kelib tushaverdi. Qop-qop o'g'irlik pullar, ko'zlarni qamashtiradigan yarqiroq «Volga»lar bu nafs bandasini hovliqtirib yubordi. Xalq hurmati ulug' martaba hisoblanadi. Rais shunday ulug' martaba, shunday buyuk unvon yuziga oyoq bosib, buzuqlik ko'chasiga kirib ketdi. Har ikkida bir o'shqirib: «Meni hech kim tergayolmaydi! Qo'lim uzun, cho'z sam oyni uzib olaman!» deyar, axloqsizlik, buzuqilikning eng qorong'i ko'chalarida adashib yurardi. Oqibat, haq yo'liga qaror topdi. U o'zini yuksak martabaga ko'targan xalq yuziga noshukurlik bilan oyoq bosgan edi, xalq uni giribonidan tutib pastga tushirdi. Mana endi Mamadali hamma narsasidan ayrilib, qilmishining jabrini tortib o'tiribdi.

Biz bu misolni bejiz keltirmadik. Har birimizning suyan-chig'imiz, mehribonimiz, hatto balogardonimiz xalq ekan, xalq hurmatini qilish burchimiz, sharafimiz, farzandlik qarzimizdir. Kimiki buni unutibdi yo pisand qilmapti, pushaymonlik jabrini Mamadalidan so'rasin.

Goho axloq tabiatiga begona qiliqlar ham uchrab qoladi. Bularni soxtalik yo riyokorlik deb atash mumkin. Masalan, ba'zi bir xil odamlar boshqalar ko'zlarida o'zlarini yaxshi qilib ko'rsatishga, yaxshi odamga xos harakatlar qilishga ti-rishadilar. Agar bu harakat odam tabiatidan, doimiy odatidan, tanasiga singib ketgan axloqidan kelib chiqmasa, u hech qan-day ta'sir kuchiga ega bo'lmaydi, aksincha, bunday muomala o'z egasini bir kun emas, bir kun sharmanda qiladi. Odamning asili birov ko'rib turganda bir xil, ko'rmaganda boshqa xil harakat qilmaydi. Aksincha, qiladigan jamiki harakatini bosh-qalar uchun emas, o'zi uchun, o'z vijdoni uchun qiladi. Ulug' donishmandlar: «Odam bolasi birov o'ziga qarab, so'ziga qu-loq solib turganda, uni maqtashlari mumkin bo'lganda emas, hamma vaqt to'g'ri harakat qilishi kerak», deyishgan.

Xo'jako'rsinga qilinadigan harakat esa odamni bora-bora ikkiyuzlamachi, yolg'onchi, soxta qilib qo'yadi. Shu haqda bir misolimiz bor.

Islomjonga suvoqchilik ota kasb. Otasi bu kasbga sababi tirikchilik deb emas, san'at vositasi deb qarar, shuning uchun uni hamma «Rasul suvoqchi» demay, «Usta Rasul yo Rasul naqqosh deyar edi. Islomjon ham otasidan bu san'atni juda yaxshilab o'rgandi. U suvagan uyni otasining qo'lidan chiqqan uydan farq qilib bo'lmasdi. Yillar o'tgan sari Islomjonning ta'rifi ko'p ustalarni soyada qoldirib ketdi. Uning ostonasidan hojatmandlar oyog'i uzilmas, Islomjon ham chaqirilgan joydan qolmas edi. U mahallar keksayib qolgan otasi qano-tida ekanida bir kunda qiladigan ishini endi bir necha soatda chaplab tashlaydigan hunar chiqarib oldi. Suvoqning qanaqa bo'lishiga uncha fahmlari yetmaydigan odamlar ishini qilayot-ganda gazcho'p ishlatmasdan, andava bilan naridan beri, g'adir-budur suvab qo'yar edi. U san'atga odamda yashash, yaxshilikka, go'zallikka intilish ishtiyoqi tug'diradigan pok narsa deb emas, bir nimalik bo'lib qolish, bir nima yulib olish vositasi deb qaragani uchun qo'li pastlab ketdi. Natijada ho-jatmandlar ostonasidan aridi, bilmay ishlatganlar esa yulg'ich-ligidan koyidi. Qisqasi, Islomjon xalq nazaridan qoldi. Chunki u axloqning eng zaruriy shartlaridan biri bo'lmish halollikni esdan chiqarib, haromxo'rlik yo'liga kirib ketdi. Endi uni hech kim «Usta Islom» demaydi, hatto «Islom suvoqchi» ham de-maydi, «Islom xaltura» deydi!

Men boshqa bir ustani taniyman. U kishi «Islom xaltu-ra»ning tamom teskarisi. Men bir mahal yangi solgan uyim xonalarining shiftlariga faner qoqtirmoqchi bo'lib, bir keksa ustani uyimga boshlab keldim. Tanishdik. Ism-shariflari «Usta G'ulom» ekan. Men qilinadigan ish hajmini ko'rsatib, xizmat haqi qancha bo'lishini so'radim. G'ulom aka kuldilar.

– Ishni ko'nglingizdagidek qilib berolamanmi yo'qmi, buni hozir o'zim ham aytolmayman, siz ham bilmaysiz. Shuning uchun baylashmaymiz. Men ishingga qarab so'rayveraman, siz

bo'nak qilib beraverasiz. Ishimga yarashasini olganimdan keyin «bas» deyman, siz ham bas qilasiz, dedilar.

Bu ajoyib odamning tantiligi meni o'ziga rom qilib qo'ydi. Men ustaning muxlisi bo'lib qoldim. Tanimagan yo chala tanigan odamiga xuddi o'ziga ishongandek ishonishi u kishining asil odamligidan dalolat berardi. Ish qariyb bir yarim oyga cho'zildi. Bu orada bir necha bor yoniga kelib o'tirdim. Lekin biron marta shoshganini, ishni qo'l uchida qilganini ko'rmadim. Nihoyat, ish bitdi. Ammo ishni men xayol qilgandan orttirib, benihoya chiroyli qilib bitirdi.

Xayrlashish dasturxonimiz yig'ilgandan keyin ustaning mo'min ko'zlariga tikildim. Ziyrak odam bu boqish ma'nosini darhol tushundi.

Biz sizdan qarz bo'lib qolmagan bo'lsak, bergan non-namagingiz uchun shukur, – dedi usta ikki qo'lini ko'ksiga bosib. – Keyin oliyjanob kishi tabassumi bilan jilmaydi. Siz bizdan qarz emassiz, olganlarimiz bas, qulluq.

Men hang-mang bo'lib qoldim. Mening hisobimda bu kishiga yana berishim kerak. Yo bilmasdan xafa qilib qo'ydimmi? Arazlayaptimi?

Bu vahm meni qo'rqitib yubordi.

– Qanday bo'ldi, G'ulom aka? Men axir, yana kamida...

– Kamida-pamidasi yo'q, domulla, shuning o'zi bas, ortig'i gunoh bo'ladi, – dedi u, uzr-da, degandek qo'lini ko'ksiga bosib.

Bu odamning halolligi yagona yo nodir hodisa bo'lmasa ham, men u kishini hali-hali minnatdorchilik bilan eslayman.

Biz ma'naviy go'zallikning ayrim moddalari haqida qisqacha fikr-mulohazalar yuritdik. Bu hali kifoya emas, chunki inson mazmunida bo'lgan yaxshiliklarning hammasi go'zallik sifatidir. Shu uchun odamiylik haqidami, mehnatsevarlik haqidami, odob-axloq haqidami, farzandlik, ota-onalik burchlari haqidami, qaysi haqda gapirmaylik, hamma gap go'zallikka borib taqaladi.

Endigi gapimiz odamiylikning boshqa tarmoqlari ustida boradi.

HUSN XAZINASINING DURDONALARI

MADANIYLIK

Bu suhbatimiz ham mohiyati, ham e'tibori bilan yuqoridagi suhbatlarimizning mantiqiy davomidir. Nimaga desangiz, madaniylik, shirinsuxanlik, ko'ngilxonlik inson husnining shartlaridandir. Bularsiz insonda na go'zallik bor-u va na abadiylik. Darhaqiqat, har bir odam xulq-atvori, xatti-harakati, yurish-turishi, o'zini tutishi, demak, madaniy saviyasi jihatidan el orasida yo yaxshi, yo yomon nom qoldiradi. Hurmat bilan tilga olinishiga ham, nafrat bilan yuz o'girishiga ham odamning o'zi sababchi. Odam bolasi esa dunyoga faqat yaxshi otliq bo'lish uchun, ya'ni yaxshi fazilati, adolati, madaniyati bilan boshqalarga ibrat bo'lish, boshqalarni yaxshi yo'ldan erashtirib borish uchun keladi.

Yaxshi fazilat shunday ulug' narsaki, uni odam hayotining ma'naviy xazinasida bo'ladi. Bu xazinada inson husnining durdonalari saqlanadi. Bu durdonalarni har bir odam o'zi bita-bittadan terib, husn xazinasiga keltirib to'kadi. «Inson» deganda biz shu ma'naviy boylik xazinasining ajoyib sohibkorlarini tushunamiz.

Ma'lumki, odam bolasi, asosan, yakka-yolg'iz tug'iladi. Lekin umrini jamiyat ichida o'tkazadi. Bu esa odamning xatti-harakati, turish-turmushi el ko'zida bo'ladi; yaxshiligini ham, yomonligini ham, hatto bosgan har bir qadamini ham el ko'rib turadi, degan so'z. Bundan chiqdi, elning qarg'ishini emas, elning olqishini o'ylash, el ichida qarg'a bo'lib ajrab emas, el ichida kabutar bo'lib birga yashash kerak.

El orasida odam qaddini raso qilib tuttiradigan fazilat durdonalaridan biri madaniylikdir. Odamda shu yaxshi fazilat bo'lmasa, u har qadamda qoqinishi, el nazaridan qolishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun madaniylikka faqat va faqat o'qish, bilim olish yo'li bilangina erishiladi, deb bo'lmaydi. To'g'ri, ilm-u ma'rifat madaniylikni orttiradi, mustahkamlaydi, lekin birdan bir sharti bo'lib qolmaydi. Shuning uchun madaniyatni odamning olgan ilmida, kiygan kiyimida deb tushunish noto'g'ri bo'ladi.

O'rta yo oliy maktabni bitirib chiqib diplom olish, suyuqtabiat ota-onaning arzanda qizi yoki kaltafahm boyvachcha kuyovning boshidagi «yorug' yulduz» bo'lish, qimmatbaho kiyimlarga burkanib, taqinchoqlar ichida yarqirab yurish mumkin. Lekin bu sifat odamning ichki dunyosiga, ma'naviy dunyosiga munosibmi? Usti shunchalar yaltiroq bo'lsa-yu, ichi kuz yaprog'idek qaltirab tursa, dasturxoni yig'ishtirilmagan, idishlari, kirlari yuvilmagan, uyi supurilmagan, ul-bullari har yerda sochilib yo mog'or bosib yotgan bo'lsa-chi? Odam degan bularga qaramasa yoki bularni tartibga solish g'amini yemasa, ust boshiga, mavqeyiga yarashadigan gap qilmasa, ko'cha-ko'yda, odamlar orasida uyalmasdan shang'illasa, birovning g'iybatini qilsa, eri yo xotini yonida turib hayot zambilini birga ko'tarishmasa, bunday odamni madaniyatli deb bo'ladimi? Zinhor, yo'q.

«Madaniyat» magazinda sotilmaydi, shuningdek, yetuklik shahodatnomasiga yoki diplomiga «Bu kishi madaniyatli» deb ham yozilmaydi. Bu yuksak huquqni odamga uning hayotda tutgan o'rni, mehnati, odamiyati, xulq-atvori beradi. Afsuski, hayotda madaniylikning nima ekanini tushunmaydigan odamlar uncha-muncha uchrab turadi. Bunday kishilar umri qishloqda paxta yetishtirish bilan yo zavod-fabrikalarda moddiy boylik yaratish bilan band bo'lgan oddiy odamlarni oliy ma'lumotlari yo'q deb nazarlariga ilmaydilar, ularni «madaniyatsiz» deb atash o'taketgan nodonlik ekanini fahmlamaydilar. Holbuki, bunday oddiy odamlar bilan gaplashsangiz

yoki uylariga kirsangiz, saranjomlikni, odobni, shirinsuxanlikni, ochiqko'ngillikni, odamshavandalikni ko'rasiz-u, bularni «madaniyatsiz» deb kamsitganlarning o'zlari madaniyatsiz odamlar ekaniga ishonasiz.

Hayotning ichiga kirgan kishi, el ichida bo'lib, el bilan yurgan kishi xalqimizning ajoyib madaniyatini ko'rmas, bu insoniy madaniyat necha asrlardan beri avloddan avlodga o'tib kelayotganini payqamay iloji yo'q. Biz Farg'onada ko'p ajoyib odamlarni, ularning totuv, madaniyatli oilalarini ko'rib, tasanno o'qidik. Bir qancha oilalarda mehmon bo'ldik. Bibisora yaqinda kuyovga chiqibdi. O'zi paxta paykallarida zo'r g'ayrat bilan ishlaydi, eri traktor haydaydi. Bu oiladagi ahillik, qaynana bilan kelin o'rtasidagi bir-biriga g'amxo'rlik, totuv hayot odamni hayron qoldiradi. Kelin qaynanasiga tumshaymaydi, qaynana keliniga o'qraymaydi. Hayot shirin. Hayotni shirin qilgan til undan shirin. Xo'sh, mana shunday oilalarni, ko'ngli oq, tili shirin odamlarni oliy ma'lumotlari yo'q, shuning uchun madaniyatsiz deb bo'ladimi?

Gap madaniyat yo madaniylik ustida borganda, hozirgi ba'zi yoshlarning bir bema'ni asovligi haqida gapirmasdan bo'lmaydi. Odamning o'z ona tiliga bo'lgan mehr-u muhabbati va hurmati, o'z tilini qanchalik bilish-bilmasligi undagi madaniylik darajasiga o'lchovdir. Madaniyatning tom mohiyatini tushungan, ya'ni madaniylik qonun-qoidalarini tanasiga singib ketgan har bir odam o'zi gapirgan tilning sofligi, tantanasi uchun hamma vaqt jon kuydiradi. Bunday odam ruscha gapirayotganda rus tilining, o'zbekcha gapirayotganda o'zbek tilining sofligini saqlaydi. Madaniyatning nima ekanini anglamagan, o'z ona tilini qadrlamagan kaltafahm, saviyasi past odamgina ruscha gapirib turib o'zbekcha so'zlarni, o'zbekcha gapirib turib ruscha so'zlarni aralashtiradi. Bu esa har ikkala tilni buzish, ikkala tilning yuziga oyoq bosishdan boshqa narsa emas! Aslida, bunday shudsiz yamoqchilikka na Pushkin va Lermontovni sharaf arshiga ko'targan rus tili va na Navoiy va Boburni, Muqimiy va Abdulla Qodiriyning dunyoga tanitgan

o'zbek tili muhtoj. Ikkalasining ham bunaqa didi buzuv, qilg'i sovuq mahmadonalarga ehtiyoji yo'q! Rus tilining ham, o'zbek tilining ham o'ziga xos fasohati, juda nozik nafasati bor. Bu tillarda har qanday fikr va mulohazani juda chiroyli qilib bildirish, har qanday lavha va manzarani odam hushini oladigan qilib tasvirlash mumkin.

136-maktabning muallimasi M. Hojimqulova «Toshkent oqshomi» gazetasida ona tiliga hurmat masalasini ko'tarib chiqdi. U shu maqolasida: «...Ko'pincha o'zbek yigit-qizlari yarim ruscha, yarim o'zbekcha qilib, har ikkala tilning ham husniga dog' tushirib kelayotganlarining guvohi bo'lasan kishi. Nima, ular o'zbek tilini bilishmaydimi yoki o'zlarini madaniyatli qilib ko'rsatmoqchilarmi? Balki, ular atrofdagilar rus tilini bilishmaydi, deb o'ylashar? Ko'pchilik nafratini qo'zg'atib, ikki tilni buzib gaplashish, bu o'ta madaniyatsizlik emasmi?» deb yozadi.

Darhaqiqat, bir tilda toza gapira olmagan yo toza gapirishni mensimagan odamni aslo madaniyatli deb bo'lmaydi. Gapning qisqasi, madaniyatli bo'lish uchun odamga faqat bilim, kiyim, taqinchoq, yaxshi ro'zg'orning o'zigina kifoya emas, shular bilan birga yana shirinso'zlik, tozalik, saranjomlik, og'irlik, haqqoniyatlik, mehnatsevarlik, halollik va eng muhimi, o'z ona tiliga muhabbat va uning sofligini saqlashga harakat ham zarurdir. Odam bolasiga suv, havo, quyosh qanchalik zarur bo'lsa, uning chinakam inson bo'lib yashashi uchun ham husn xazinasining mana shu durdonalari shunchalik zarur. Xulosa qilib aytganda, madaniyat – odamcha yashash-u odamcha ishlashda, odamcha o'ylash-u odamcha saylashda. Ana shunday sifat va fazilat egalarini, ya'ni ulug' insoniy madaniyatga erishish uchun o'zida vaqt ham, kuch ham topgan kishini chinakam madaniyatli desa bo'ladi.

SHIRINSO'ZLIK

Dag'al, sovuq gapiradigan, og'ziga yomon so'z oladigan odamni madaniyatli deb bo'lmaganidek, tilidan bol tomib turgan shirinso'z kishini ham madaniylik sharafigan mahrum qilib bo'lmaydi. Har qanday jamiyatda odam odamsiz yashay olmagani ko'z o'ngimizga keltirsak, shirinso'zlik naqadar zarurligi o'z-o'zidan ayon bo'lib qoladi. Donolardan bizga meros bo'lib qolgan hikmatlarda: «Odam – odam bo'risi emas, odam do'sti», deyiladi. Haqiqatan ham, kishilarimiz chehrasida charaqlab turgan baxt nuriga razm solsak, bularning hammasi odamlarimizning bir-birlariga mehribonligi, odamshavandaligi orqasida ravnaq topayotganligini ko'ramiz. Agar «Qarg'a qarg'a-ning ko'zini cho'qimaydi», deyilgan maqol «Odam ko'zini odam o'yadi», deyilgan aqidaga taqqos etilsa, bu gaplar inson shaniga shafqatsiz bo'hton bo'lganligi aniqlanadi.

Bu xulosani o'qigan kishi: «Ajabo, o'tmishda insonparvarlik hissi yo'qmidi? Hamma bir-birining ko'zini o'yarmidi?» deb savol berishi mumkin.

– Yo'q: insonparvarlik hissi, ya'ni gumanizm hamma vaqt bo'lgan. Faqat jamiyatda hukm surgan tengsizlik, tabaqalanish odamlarni bir-birlariga bo'ri, bir-birlarining ko'zlarini cho'qiydigan quzg'un qilib qo'ygan. Boy kambag'alga achinmasdi, kuchli kuchsizni ayamasdi. Ular o'z nafs balolari, o'z huzur-halovatlari uchun bo'ri bo'lib odamlarni yeyishdan, quzg'un bo'lib ko'zlarini cho'qishdan toyishmasdi. Demak, xalqlarda og'izdan og'izga o'tib kelayotgan har qanday maqol, jumladan, inson qadr-qiymati haqida aytilgan yuqoridagi maqol

ham o'z zamonasining ijtimoiy muhitini aks ettiradi. Boy bilan kambag'al, ezuvchi bilan eziluvchi tamom yo'qotilgan, odamlar millatidan, irqidan, dinidan, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, huquqda barobar bo'lib yashayotgan jamiyatda odam odamning chinakam do'sti bo'lib qoladi.

Goho odamlar muomalasida uchrab qoladigan dag'allik ta'bimizni ko'p xira qiladi. Ba'zilar bu dag'allikni ko'rib, sababiga tushunolmay, hayron bo'ladilar.

O'zaro kelishmovchiliklarga, bir-birlari bilan qirqishishlarga, haqsizlik, adolatsizlikka hech qanday ijtimoiy sabab yo'q. Demak, qo'pol so'z, dag'al muomala bilan boshqalarning ko'ngillarini og'ritishga ham hech qanday asos, hech qanday bahona yo'q. Agar odam odamga do'st bo'ladigan bo'lsa, do'st do'stining jonini hech qachon og'ritmaydi. Aksincha, do'sti biron kayfiyat orqasida bilmasdan dag'allik qilib qo'ysa, do'st kishi dag'allikka dag'allik bilan javob bermaydi, balki o'rta tushgan sovuqlikni yaxshi muomala bilan yo'q qiladi. Boshqacha qilib aytganimizda, uni shirin so'z bilan hovuridan tushiradi. Bu haqiqat isbotini hayotdan istaganimizcha topishimiz mumkin.

Bir misol. Farg'onada ikkita dugona bor. Yoshlari qirqlardan oshib qolgan. Ikkalasi o'rta maktabni birga bitirishdi. Biri, ya'ni Ergashoy Shukurova, barvaqt turmush qilib, o'qishni davom ettira olmadi. Ikkinchisi – Karomat Turg'unova esa meditsina institutini bitirib, dugonasi yashaydigan qishloqqa vrach bo'lib bordi. Ilm darajalari har xil bo'lganiga qaramay, bu dugonalar o'rtasidagi shirinso'zlik, ahillik yoshlikdagi tarovatini yo'qotmadi. Karomatxon shaharda o'qib yurgan kezlarida o'rta tushgan ayriliq ham bu his haroratini pasaytirmadi. Vaqt topsa Ergashoy, bo'lmasa Karomatxon bir-birini yo'qlab turdi. Gaplariga quloq solsangiz, havasingiz keladi. Bir-birlariga «o'rtoqjon» deb muomala qilishadi, har gapda og'izlaridan bol tomizishadi. Bir kun suhbatlari terim dolzarbidan ketdi. Ergashoy terim mashinasining mo'jizalaridan gapirib, quvonchini ichiga sig'dirolmasdi. Karomatxon bilmasdanmi yo hazil qilibmi:

– Maxtang-e, o‘rtoqjon! Jo‘yaklarda to‘kilib qolayotgan sho‘rlik paxtalarga jindak joningiz achisa-chi! – dedi.

U kuzdan bu kuzgacha mehnat qila-qila qanchadan qancha ter to‘kkan dehqon uchun bu qaltis hazil og‘ir botishi tabiiy edi. Lekin Ergashoy nafsi har qancha og‘risa ham o‘zini bosdi. Avval biroz bo‘zraydi-yu, keyin jilmayib turib, mojaroni shirin so‘z bilan shiringina hal qildi.

– Yo‘g‘-e, nimaga jonimiz achishmas ekan, o‘rtoqjon! – dedi u ochilib. – Juda achishadi-da. Jonimiz achishgani uchun mashina ko‘proq bo‘lsin deymiz-da. O‘zingiz bilasiz-ku, o‘rtoqjon, ilgarilari qo‘lda terib ulgurmas edik, talay-talay paxtalarimiz qor tagida qolib, nobud bo‘lib ketardi. Endi, xayriyat, unaqa emas. Jo‘yaklarda to‘kilganini ham mashinaning o‘zi yig‘ishtirib olyapti. Buyog‘idan ham xursandmiz, o‘rtoqjon.

Karomatxonning o‘rnida boshqa bir jirraki dugona bo‘lsa, albatta: «Siz kabinetingizdan turib ko‘ribsiz-u, biz yil – o‘n ikki oy dalada yurib ham ko‘rmabmiz-da!» deyar edi.

Suhbatdagilar Ergashoyning odobidan, og‘irligidan, ya‘ni do‘stlik ipini uzmaslikka tirishayotganidan xursand bo‘ldilar. Haqiqatan ham Ergashoy dag‘al gap qilsa, «dard» deganda «balo» deguvchi andishasiz kishining muomalasini qilsa, o‘tiz yildan ortiqroq umr ko‘rgan qadrdonlik o‘ylamasdan aytilgan bir og‘iz so‘z qurboni bo‘lur edi.

Insof bilan o‘ylab qaralganda, dag‘allikni oqlaydigan biror dalil topilmaydi. Nimaga desangiz, dag‘al so‘zning ham, shirin so‘zning ham chiqadigan joyi og‘iz. Agar og‘iz nazoratsiz qoldirilsa, tanobi mahkam ushlanmasa, undan dag‘al so‘zgina emas, haqorat ham chiqaveradi.

Ko‘ngil ko‘p nozik narsa. U o‘z tabiati bilan ko‘klam guliga o‘xshaydi. Salgina sovuq yayrab-yashnab turgan gulni nobud qilganidek, jinday dag‘allik ham ko‘ngil jomini sindiradi. Dunyoda biron inson yo‘qdirki, ko‘ngil nimaligini, ko‘ngil ra‘yi nimaligini bilmasin. U shundayki, horiganda – osoyishtalikdan o‘zgasini istamaydi, yayraganda – xafagarchilikdan qilchasini sig‘dirmaydi. U sal narsa bilan yo ko‘tariladi, yo

cho'kadi. Shu boisdan katta ham, kichik ham ko'ngil tabiatini anglasa, unga ozor yetkazadigan har qanday so'z, har qanday harakatdan o'zini saqlasa.

Afsuski, ba'zi oilalarda ko'ngil andishasini qilmaydigan odamlar uchrab qoladi. Eri yoki xotini ishdan biroz kechikib kelsa, o'rtada shunday janjal chiqadiki, kechikib kelgan tomon qip-qizil tuhmatga qoladi. Holbuki, bunday paytlarda so'z qilichini yalang'ochlamasdan, kechikish sababini shirin so'z bilan so'rab bilish, agar kechikkan tomon biron dili-siyohlikka uchragan bo'lsa, unga tasalli berish, ko'ngil g'ashligini ko'tarish, yupatish g'amini yeganga nima yetsin! Ba'zi odamlar bunday qilmaydilar, er-xotinlik pardasini yirtib tashlab, kichik-katta bolalari ko'zida qirpichoq bo'ladilar. Mana, o'zingiz ko'ring:

...Rahmatjon to'rtta bolaning otasi bo'libdi hamki, xotini-ning o'rinsiz g'idi-bidisidan qutulmaydi. U moliya idorasida ishlaydi. Ko'pincha mahallalarda uyma-uy yurib, oliq-soliq ish-larini tartibga solish bilan band bo'ladi. Ba'zan uyiga kechikib, horib-tolib keladi-yu, xotining dag'dag'asiga uchrab, dunyo ko'ziga qorong'i bo'ladi.

– Hoy, Xadichaxonim, unaqa demang, bolalar oldida uyat bo'ladi! Bekor xafa bo'lyapsiz, majlis cho'zilib ketdi. Ishon-masangiz, ertaga o'zingiz borib surishtiring, – deydi Rahmatjon janjalni bosishga tirishib.

Erining andishasi, yotiq-bosiq gapi Xadichaxonimni besh-battar jazavalantiradi.

– Voydod! Bu majlis o'lgurdan to'yib ketdim. Kecha majlis, bugun majlis! Qachon tugaydi bu yolg'on bahona!

Eri xotinini jazavasidan tushirish uchun sovuq suv keltirib tutadi. Xotini itarib tashlab, yana shang'illashga turadi. Rahmatjon kecha ham, ilgari kuni ham uyga barvaqt kelga-nini, majlis oyda bir yo ikki martagina bo'lishini aytsa ham, xotinjon erining gaplarini inobatga olmaydi, tinmay chinqi-radi, qichqiradi, bolalar beandisha ona shang'isidan qo'rqib burchak-burchakka yashirinishadi...

Ishdan yo majlisdan charchab kelgan odamni janjal bilan qarshi olish nima-yu, o'lganini ustiga chiqib tepgan nima. Albat, bunday oilada halovat bo'lmaydi. Aqli tinmagan, turmushning past-u balandini bilmagan, hayot tajribasiga ega bo'lmagan katta yoshdagi odam shirin so'zni o'ziga fazilat oynasi qilib ololmaydimi? Orasi buzilgan odamlarni, ayniqsa, er-u xotinni, oshna-og'aynini bir-biriga yana yaqinlashtiradigan, o'rtalariga yana totuvlik soladigan birdan bir ta'sir quroli shirin so'z, shirin muomala ekanini esdan chiqarib bo'ladimi? Axir, shirin so'z bilan olam shirin, shirin so'z bilan hayot shirin!

Inson umri juda qisqa. Shu qisqa umrni ham dag'allik, bema'nilik, yaramas xulq-atvor bilan o'tkazish odamga juda alam qiladi. Qani endi, shu qisqa umr shirin so'z, shirin muomala, chiroyli ta'b-tabiati bilan o'tsa, buning savobiga kim yetsin!

Shu yerda sevikli shoirimiz Tolib Yo'ldoshning bir ajoyib ruboiysi jilva tortib kelib qoldi. Mana o'qing-chi:

*Bir so'z bilan har kishi
O'zligini ko'rsatar,
So'z gavharin ko'pincha
Dono olar, ko'r sotar.*

Medsina olimlari inson hayotini uzaytirish sohasida ancha tajriba o'tkazdilar. Ular shu ilmiy ishlarida janjalning umrga zavol ekanini aniqladilar. Bu xulosaning qanchalik to'g'ri ekanini yaqinda bir tabarruk zotdan ham eshitdik. Vodil markazida Hoji ota degan bir hurmatli kekxa yashaydi. U kishi Sharq mamlakatlarining qariyb hammasida bo'lib, baxtini oxir o'z vatanidan topgan xushtabiati odam. Saksondan oshib qolgan Hoji otani Farg'ona ahligina emas, respublikamizning juda ko'p atoqli odamlari hurmat qiladi. Biz, u kishining betob ekanliklarini eshitib, ko'rganini bordik. Hali ajin tushmagan yuzi navqiron yigitnikiga o'xshash tiniq, ko'zlari tetik – bular ko'rgan kishida hayot nash'asini uyg'otadi. Shunday bo'lsa ham, doktorga ko'ringanmi-yo'qmi, so'radik.

Hoji ota tekis qilib tarashlangan oppoq soqolini asta silab, juda yoqimli kulimsiradi.

Ha, ko'rindik, – dedi u kishi tagdor qilib.

Unday bo'lsa, dori yozib bergandir?

Yozib berdi.

Iste'mol qilyaptilarmi?

Hoji ota kekxa boshini chayqadi.

– Bizga keraklisi dorixonada topilmas ekan, – dedi u yana boyagiday tagdor jilmayib.

Biz hayron bo'ldik.

Nahotki?

Ha. Bizga ichiladigan yo kap otiladigan dori to'g'ri kelmaydi.

Emlanadigani kerakmi?

Hoji ota yana boshini chayqadi.

Yo'q, bizga xushvaqtlik dorisi kerak. Bizning dorimiz shu. Kulsak – g'am ko'rmasak, xursand bo'lsak – dard ko'rmasak. Bizga shunisi kifoya.

Agar Hoji ota sakson yoshdan ortib ham qirq yoshli kishiday qirchillab turgan bo'lsa, uning boisi xushvaqtlikdan, tabiatidagi shirinso'zlikdan, shirinmuomalalikdan qidirishga to'g'ri keladi. Shirinso'zlik otaxonning vaqtini chog' qilibgina qolmay, ayni zamonda joniga oziq bo'lib, umriga umr ham qo'shibdi. Ne ajab, xalqimizning ham bu haqda o'z hikmati bor:

Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar,

Yomon so'z bilan pichoq qinidan chiqar...

Ko'rib turibsizki, shirin so'zning sharofatini xalqimiz ta'rifidan orttirib ifoda qilib bo'lmaydi.

KO'NGILXONLIK

Har bir xalqda bo'lganidek, o'zbek xalqida ham kishi ko'nglini ko'taradigan dilrabo so'zlar istalgancha topiladi. Faqat bu so'zlarni yo qidirmaymiz, yo qidirib topsak ham nazarimizga ilmaymiz. Shuning uchun odamlar munosabatida, yaqin kishilarimizga yaxshi tilak yo hamdardlik izhor etish paytida ko'p vaqt soqovlik qilib qo'yamiz. Keyingi vaqtlarda shunday so'zlarning o'rni yo'qlanib qolgan bo'lsa kerak, odamlar oradagi turli munosabatda qanday gaplar aytishi kerakligini so'rab kaminaga xatlar kelib turadi. Ana shu xatarlardan biri – Toshkent shahrida yashovchi hurmatli Mahkam Mansurovichnikidir. U kishi hammomdan chiqqan yo ovqat yeb o'tirgan odamga aytiladigan istak; kasal yotgan odamga yo yaqini o'lgan kishiga bildiriladigan hamdardlik qanday bo'lishi kerakligini so'rabdilar. Boshqa bir maktub egasi ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi yaqin odamlarga izhor qilinadigan istak so'zlarini bilgisi kelibdi.

Dabdurustdan qaraganda, bu o'rinli savollarga darrov javob berish qiyinday. Lekin hayotga, hayotiy tajribaga murojaat qilinsa, har qanday mushkulotdan qutulish yo'li topiladi. Har bir xalqda har qanday holat yo hodisaga javob topiladigan boy xazina bor. Busiz iloj yo'q. Masalan, hammomdan yuvinib chiqqan kishini ruslar «с лёгким паром!» deb tabriklaydilar. Xo'sh, buni o'zbekchada qanday deyish kerak? Nahotki o'zbek xalqida shunga munosib ibora topilmasa?

Bu savolga javob berishdan oldin ba'zi yoshlarimiz betiga soladigan katta ta'namiz bor. O'z tilining imkoniyatidan foyda-

lanish, uni har dam, har soat savodli ibora, chiroyli soʻz bilan boyitish oʻrniga, Toshkent telestudiyasining sport bayonchisiga oʻxshash, oʻz ona tilini bagʻritoshlik, farosatsizlik bilan poy-mol qilish baʼzi didi past, beparvo yoshlarimizda tez-tez uch-rab turadigan yomon qiliq boʻlib qoldi. Til – did oynasi, did esa madaniylik nishonasidir. Haqiqatan ham, biron xalq yoʻqki, uning tili madaniy saviyasidan past boʻlsin. Masalan, rus tilini olaylik. Bu ajoyib tilning oʻz milliy tabiatidan kelib chiqqan temir qonuni bor. Har bir rus kishisi, jumladan, rus tilining har bir muxlisi bu qonun oldida chin yurakdan tiz choʻkadi. Uni boʻlar-boʻlmasga buzmaydi, qaytaga, yana ham boyitish, yana ham chiroyli, bejirim qilish gʻamini yeydi.

Bizdagi tiltepar gumrohlar-chi? Bular oʻzlarining avomliklarini, oʻz tilida qip-qizil savodsizliklarini «zamonaviy tili» degan bahona bilan xaspoʻshlaydilar. Oʻz tilining ham, boshqa har qanday til qatori, qonun-qoidasi, chiroyli ifodasi, oʻtmishi, hoziri, kelajagi borligini oʻylamaydilar. Ular shu xunuk qiliqlari bilan oʻz xalqining jilo topgan chiroyli tiliga, zamonasining yuksak madaniy saviyasiga tuhmat qilayotganlarini anglamaydilar. Zamonaviy – har qanday yaramas qiliqqa yoʻl qoʻyaveradigan landaxur soʻfi emas, aksincha, har narsada, har masalada talabi yuksak nazoratchi. Oʻz tilining qadr-qimmatini, boy imkoniyatini bilmagan kishilar ruscha iborani koʻp noʻnoqlik bilan «tarjima» qilib ishlatadilar. Mana, quloq soling, «Paxtakor» stadionida oʻyin ketyapti. Radio qulogʻida sharhlovchi:

– ...Toʻp bilan Abdurayimov... va uning oyogʻidan toʻpni Husainov egallab oldi. Darvozadan erkin toʻpni Pshenichnikov tepib oʻyinga kirgizadi... Gol! Yoʻq, ошибка, toʻp darvoza yonidan chiqib ketdi. Va burchakdan toʻp tepishni Krasnitskiy bajaradi...

Shoʻring qurgʻur bayonchi oʻzbekcha gapiryapman, deb xayol qilsa kerak. Lekin uning ogʻzidan chiqqan bu tarqoq soʻzlar noʻnoq «tarjima»dan boshqa narsa emas. Mana uning ruschasi:

Абдураимов с мячом... и из-под ног его забрал Хусайнов. Пшеничников введет мяч в игру свободным ударом.

Гол! Нет, ошибка, мяч прошел мимо ворот. Теперь удар с угла осуществит Красницкий...

Buni tarjima qilaman deb o'zini ham qiynab, tinglovchilarni ham g'azablantirib o'tirmasdan to'g'ridan to'g'ri o'zbekcha gapiraversa bo'lmaydimi? Soxta til bilan sof dillarni vayron qilish kimga zarur kelibdi. Agar sharhlovchida qitday andisha bo'lsa, tilini burab deyardi-qo'yardi:

— To'p Abdurayimovda. Esiz, oyog'ining ostidan to'pni Husainov olib qo'ydi. Darvozadan erkin to'p tepiladi, Pshenichnikov tepadi. Gol! Yo'q, xato ko'ribmiz, to'p darvoza yonidan o'tib ketibdi. Endi to'p burchakdan tepiladi, Krasnitskiy tepadi...

Endi navbat yuqoridagi savolning javobiga. Rus tilidagi bu shirin tabrik sharhlovchiga o'xshagan yoshlar og'zidan chiqsa, albatta, buzilib, «yengil bug' bilan» shaklida «tarjima» bo'lib chiqardi. Ular shu kepataga kiritib aytganlarida bu chiroyli iboraning ruschadagi butun fasohati, butun latofati o'zbekchada yo'qolib ketishini, mujmal, dag'al, xunuk shakl olishini o'ylamaydilar. Holbuki, xalqqa murojaat qilsak, shunday paytlarda ishlatiladigan iboralarni axtarsak, ya'ni jonimizni biroz og'ritib mehnat qilsak, qidirganimizni topamiz.

Kichik yoshdan tortib to katta yoshdagi odamlar orasida cho'milmaydiganlar qariyb bo'lmaydi. Suvdami, soydami, hammomdami, ishqilib, qayerda cho'milgan yo yuvingan bo'lmasin, ana shunday odam cho'milib yo yuvinib bo'lgandan keyin, «Qushday bo'ldim», deydi. Buning ma'nosi yengil tortganini, qushday yengil bo'lib qolganini bildiradi. Demak, hammomdan chiqib kelgan kishini «Qushday bo'ling», deb tabriklash mumkin ekan.

Durust, ba'zi injiqlar, hozirgi hayotimizda bu xil shaklda tabriklamaydilar-ku, deyishlari mumkin. Deyishsa deyishar, lekin siz bilan biz hayotga olib kiraveraylik, uyimizdagilar olib kirishsin, o'rtoqlarimiz shunday deyishsin. Bir kun qarabmizki, bu ibora ham tanamizga singib, yaxshi odat hukmiga kirib ketibdi.

Joyi kelibdi, ana shunday noluvchilarga bir haqiqatni eslatib o'tmasak bo'lmaydi: hozirgi madaniy hayotimiz shunday

boy, shunday sermazmunki, nazarimizda, hamma narsa azaldan bordek. Yo'q, biz hozir maza qilib foydalanib kelayotgan narsalarimizning juda ko'pi ilgari yo'q edi. Bu yangiliklar hozir hayotimizning ma'naviy tarkibiga singib ketdi. Agar biz «Qushday bo'ling» iborasini qo'llay boshlasak, bu yangi shakl ham hayotimizning qon-qoniga singib ketadi.

Ovqat yeb o'tirgan odamga bildiriladigan istak ham, yuqoridagi tabrik iborasi singari, hanuz hal bo'lmagan. Qozoq qar-doshlarimiz shunday paytda: «Totti bo'lsin!» deydilar. Biz ham «Totli bo'lsin!» desak, murod hosil bo'lardi-yu, lekin xalqimizda bu istakka ham ibora bor. Ovqat yeb o'tirgan odamga «osh bo'lsin», deyiladi. Demak, eng ma'quli shu iboraga o'xshab qoldi.

Ertalab, kunduzi, oqshom, kechasi ko'rishganda yo xayrlashganda bildiriladigan istaklar ham qolipga tushirilishi lozim. Bunday hollarda iboraning uzayib ketishidan qo'rqib, «xayrli erta», «xayrli kun», «xayrli oqshom», «xayrli tun» deb o'tirmay, «ertangiz (yo sabohingiz) xayrli bo'lsin», «kuningiz xayrli bo'lsin», «oqshomingiz xayrli bo'lsin», «tuningiz xayrli bo'lsin», deyaverish ma'qul. Cho'ltoq bo'lib xunuk bo'lganidan, uzun bo'lib chiroyli bo'lgani yaxshi.

BO'YNIMIZDAGI QARZ

FARZAND BURCHI

Odamzod o'z ibtidosidan boshlab hozirgi kungacha bir ajoyib fazilatini yorug' yuz bilan saqlab keladi. Bu fazilat ota-ona oldidagi farzandlik burchining har vaqt, hamma yerda sharaf bilan bajarilishidir. Farzand, katta yo kichik yoshda bo'lishidan qat'i nazar, ota-onasining hurmatini, demak, xizmatini qiladi. Bundan o'zgacha bo'lishini tasavvur qilish qiyin, albatta. Shuning uchun qiyinki, farzandini ne-ne umid, ne-ne intizorlik bilan bunyodga keltirguncha, ne-ne mehnat, ne-ne mashaqqat bilan uni voyaga yetkazib, xalq xizmatiga topshirguncha ota-onaning yuzlariga ajin, sochlariga oq tushadi. Otamisan, onamisan, zarshunos shoir Tolib Yo'ldoshning fusunkor to'rtliklaridan birida aytilganidek:

*Kichiklarni katta qilguncha
Kichik bo'lib qolar ekansan.
Daryo bo'lsang oqqan hayqirib,
Kechik bo'lib qolar ekansan!*

Shuning uchun ota-ona oldidagi muqaddas burchni esdan chiqarish yo bunga beparvo bo'lish inson sha'niga juda katta haqoratdir. Ana shu yuksak nom bilan bosh ko'tarib yurgan har bir inson buni yaxshi biladi, bunga har qanday vaziyatda ham rioya qiladi.

Ko'z qadriga yetgan odam uni har chog' xas-cho'pdan asraydi. Chunki olam husni jamoli shu ko'zlar oynasida jilvalanadi. Endi ayt: sen papalagan shu ko'zlar qaydan, kimdan? Bilasan, bilganing uchun ham ota-ona qadriga yetasan, farzandlik burchingni muqaddas anglab, unga dog' tushirishdan, oqpadar

yo onabezori bo'lishdan qo'rqasan. Asl farzand burchini shu tariqa anglaydi. Lekin ota-ona hurmatini, ularning xizmatini el-ko'y la'natidan qo'rqib emas, yo'q-yo'q, aslo buning uchun emas, balki vijdon da'vatiga quloq solib, insonlik qadrini yuksak tutib, oqko'ngillik bilan bajo keltirish kerak. Odamlar hukmidan qo'rqib, malol kelib qilinadigan hurmat nima-yu, qumga qurilgan omonat kapa nima – birining umri jonga tekkuncha, ikkinchisiniki shamol turguncha.

Fozil insonlar aql dunyosining tirgaklaridir. Dunyoni aqli, idroki, bilimi bilan munavvar etib kelgan ulug' zotlar ham ota-ona oldidagi ta'zimlarini kanda qilmaganlar.

«Dunyoda shunday bir go'zal, aziz zot borki, biz undan hamisha qarzdormiz. Bu zot – onadir», deb yozgan edi rus adibi Nikolay Ostrovskiy. U shunday debgina qolmadi, og'ir dard changalida jizg'anak bo'lib yotib ham o'zini emas, onasini o'yladi.

Mana, u onasiga nimalarni yozdi:

«Mehribon onajon! Xatlaringni hammasini menga o'qib berishdi. Seni ozgina bo'lsa ham sevintirganim uchun juda shodman. Sen bilan jiddiy gaplashmoqchiman. Sendan iltimos qilaman, jon oyi, juda o'tinib iltimos qilaman, hatto talab qilaman, hech qanday og'ir ish qilma. Takror aytaman, hech qanday og'ir ish qilma... Eng muhimi o'zingni asra. Sening salomatliging oldida hamma narsa o'taversin».

Ana shu onani shoir madh etib deydi:

*Mehr suti berib, o'pib, ardoqlab,
Baxt to'la qalbi-la bizni quchoqlab,
Tunlari erkalab, aytib allalar,
Quvonchga sig'mayin qilib yallalar,
Boshimiz ustida doim soyabon,
Tomirimizda qon-u tanimizda jon,
Uchrasak dardga, dardimizni olgan,
Baxt yo'liga bizni mehr-la solgan,
Onadek dunyoda bormikan aziz,
Ona mehri kabi ezgu-yu laziz?!*

Darhaqiqat, dunyoda onadan aziz, ona mehridan laziz narsa yo'q! To'qqiz oy rahmida ko'tarib, kechalari uyqu rohatini, kunduzlari hayot halovatini demay, issiq ko'ksidan obi hayot, shirin labzidan bol-u novvot berib bizni o'stirgan, bizga jon bergan, bizga til, ong bergan mehribon onadan tabarruk zot bo'lishi mumkinmi, ajabo? Axir, shu tabarruk zot:

*Jigargo 'shasin tushganin ko'rsa
Zarra alammi, zarra xatarga,
Aylanur bag'ri shafqat, dili sherga,
Qaytmas hatto yo'lida o't tursa!*

Chaqaloq tili shu tabarruk nom bilan chiqar, inson quvongan yo qayg'urgan paytlarida shu aziz siymo ko'z o'ngiga kelar ekan; bola boshiga qayg'u-alam yo xavf-xatar tushganda, uni shu qayg'u-alamdan yo xavf-xatardan qutqazish uchun o'zini o'tga tashlashdan qaytmas yo sher bo'lib olishishdan toymas ekan, dunyoda onadan yaqin, onadan tabarruk narsa yo'q farzand uchun!

Ona muhabbatini bizda «mehr» deydilar. «Mehr» so'zining qadimgi ma'nosi esa «quyosh» demakdir. Tabiat quyosh harorati bilan yashnaganidek, farzand ham ona mehri bilan gulgundir. Tanangga zirapcha kirganda kipriklari bilan sug'urib oladigan – ona! Ko'zingga nam kelganda, ko'z yoshlarini daryo qilib qayg'ungni tortadigan – ona!

Mana shu tabarruk zotning farzand uchun naqadar aziz ekanini urush yillarida yana ham ravshan ko'rdim.

Qishning qahraton sovuqlarida quyosh bo'lib isitgan, qorong'i tunlarida oy bo'lib yoritgan, dahshatli janglarda farzandlarini sher etgan – shu ona, shu tabarruk zot bo'lganini ko'rdim.

Keling, siz ham ko'ring. Janglar, odatda, kunlarga ulashib ketadi. Lekin orada goho qisqa sukunatlar ham bo'lib turadi. Jang maydonidagi sukunat choponini teskari kiyib olgan buzuq havoda yilt etib ketgan kunga o'xshaydi. Shunday paytlarda jangchi ko'ngli ravshanlashib, ezgu tilaklarga beriladi.

Men oldingi okoplardan biriga tushganimda, qorachadan kelgan bir soldat, endigina quyib o'tgan selda tizzagacha loy bo'lib ketgan okop chetiga cho'kkalab olib, uchi tish bilan chiqarilgan to'mtoq qalamni g'ijim, chetlari yirtiq qog'ozga qitirlatib bir nimalar yozayotgan edi. Tirishib qalam yuritishidan, yel qoraytirgan kir yuzida sirli jilmayish o'ynashidan: «Sevgilisiga!» deb o'yladim. Shu g'animat fursatda hordiqni emas, o'zini o'ylamay, o'ziga xat yozdirayotgan qiz jozibasiga ko'nglimda tasanno o'qidim. Yigit o'zi shu yerda bo'lsa ham xayoli o'shanda ekanmi, loy shopillatib kelayotganimni payqamadi. Yaqinida biroz o'ylanib turdim. Men uni maftun qilgan qizni, shu qizga bo'lgan muhabbatini uzoq yurtlarda himoya qilib yurgan azamat yigitni o'ylar edim. Jangchilarimizning og'ir mehnatlarini yengil qilgan shunday ajoyib qizlarimiz borligini o'ylab quvonar edim. Bir mahal soldat boshini ko'tardi. Meni ko'rib darhol o'rnidan turdi. O'ng qo'lini chakkasiga keltirib salom berdi. Tanishdik. Toshkentlik yigit ekan.

Jang mehnatining og'ir mashaqqatida qoraygan dag'al qo'lida mehr-la ushlab turgan qog'ozga ishora qilib:

– Okopdayam-a! Rosa yuragingizdan urgan ekan, – dedim hazil-mutoyiba aralash.

Yigit shamani tushundi. Yuziga sezilar-sezilmas qizil yugurdi. Keyin ko'zlarini shukut bilan pipiraytib jilmaydi-yu:

– Onamga, – dedi.

«Uh!» deb yubordim. Men boyagi noto'g'ri o'ylarim uchun o'zimni koyishim kerak edi. Koyidim, faqat ko'nglimda. Agar egnimda forma bo'lmasa, harbiy qoida taqiq etmasa, bu onayizorni quchoqlab peshanasidan o'par, taassurot ixtiyoriga o'zimni taslim qilib, ko'zlarimga yosh olardim. Tor, zax okopda, ajal o'qlari qahqaha urib turgan bir qarich yerda onani yodlagan, ona xotirini o'ylagan yaxshi farzandni o'pish u yoqda tursin, ko'zga surtish kerak edi. Lekin men uning hamon baxtdan pipiragan ko'zlariga oshkor bir tasanno bilan tikilib, yuragimni to'lqinlantirgan hayajon zo'ridan yig'lab yuboray-yig'lab yuboray deb turib, faqat

«Kam bo'lmang!...» deya oldim. Ovozim qaltirab ketdi. Buni u ham sezdi. Ko'zlarimga hayrat aralash bir ma'yuslik bilan qarab olgach, biron narsa bilan xayolimni tarqatmoqchi bo'ldi shekilli, qo'lidagi xatni avaylab taxlay boshladi. Men bu orada o'zimni biroz o'nglab oldim. O'ng'aysiz ahvoldan chiqish uchun zo'rma-zo'rakisiga jilmaydim.

– Oyingizni sog'inibsiz-da?

Yigitning ko'zlari chaqnaab ketdi.

– Sog'inmay bo'ladimi? Ona axir...

Ha, ota! Har yerda madadkor... sovuq tushsa sovuqdan, bo'ron tursa – bo'rondan, o'q uchib kelsa o'qqa ko'ksini qalqon qilib farzandini qazodan saqlaydigan balogardon!..

Men ulug' inson nomiga ko'ngil madhimni o'qib bo'lmay, soldat baxtiyor kishi sevinchi bilan yuzimga tikildi.

– Xohlaysizmi sizga bir narsa ko'rsataman, – dedi-yu, mendan javob kutib o'tirmay, gimnastyorkasining ko'krak cho'n-tagidan suv o'tmas qog'ozga o'rog'liq bir narsa chiqardi. Qog'ozni ochdi – harbiy guvohnoma. Muqovasidan tanidim. Guvohnoma ichidan doriga o'xshatib qog'ozga o'ralgan boshqa bir narsani oldi. Qog'ozni avaylab ocha boshladi. Men butun vujudim bilan hayrat ko'zlariga aylanib tikilib turdim. Yigit ochilgan qog'ozni menga uzatdi: – Mana, oyimning sochlaridan bir tola....

Men tabarruk narsaga qo'l urishga qo'rqqan, yuragi ezgu hislar bilan titragan kishi xayajoni bilan qog'ozni oldim. Unda bir tola oq soch kumushdek tovlanib yotardi. Men uni lablarimga keltirdim. Go'dakligimda ko'z yumgan, men mehriga to'yolmay qolgan aziz onamning tabarruk sochlarini o'payotgandek jo'shqin harorat, otashin muhabbat bilan o'pdim, ko'zlarimga keltirib surtdim. Ko'nglim buzilib ketdi, tomog'imga bir narsa tiqildi. Men endi soldat oldida turgan ofitserligimni, sochlariga oq oralagan katta yoshli odam ekanimni unutib, yig'i aralash bir tovush bilan:

– Qanday baxtki, dunyoda ona nomli ulug' zot bor! Shu zot bor, shu tabarruk inson bor – farzand hamisha baxtli! – dedim.

O'z so'zidan o'zim ta'sirlandimmi, o'pkam to'lib, bir necha daqiqa jim bo'lib qoldim. Keyin: – Oyingizning o'zlari yubordilarmi sochlarni? – deb so'radim.

Soldat ko'zida yana baxt o'ti chaqnadi.

– O'zim so'rab oldim. Shu birgina tola bilan oyimlarning o'zlari ham yonimga kelib qolganday bo'ldilar. Sochlarini ko'ksimda... yo'g'-e, jonimda saqlayman... tez-tez hidlayman... Oyimlarning bo'ylari keladi.

Oradan yillar o'tibdi hamki, ona hurmatiga, ona oldidagi muqaddas burchini qonli janglar otashida ham bajo keltirayotgan bu o'g'ilning yorqin xotirasi; hamon qalbimda cho'g'day yonib ko'z o'ngimda yorug' siymosi ko'rinib turadi: Men uni eslagan sarim onasiga bo'lgan chuqur hurmati, ezgu muhabbati bilan ona sutini oqlab kelgan farzandning bu chinakam insoniy fazilati xalq orasida unga hurmat toji kiygazishini o'ylab, tanamga sig'may quvonaman.

Biz bu o'rinda ko'p yillar ilgari bo'lib o'tgan hodisani misol keltirdik. Endi shu kunlarimizga murojaat qilaylik. Mana bir misol:

Texnika fanlari nomzodi, Husniya Rizqiyevani mahallaning kattasidan tortib kichigigacha hurmat qiladi. Haq gapni aytganda, bunday hurmatga sazovor bo'lish juda katta baxt. Husniya bu baxtni qanday topdi, buni el og'zidan eshitamiz. Biron qiz yo qizaloq, biron bola yo o'smir ota-onasiga beparvo bo'lsa yoki ota-onasining gapini qaytarsa: «Hoy bola, Husniya opangdan ibrat olsang-chi! Qara, onasini qanday hurmat qiladiya! Ilmini aytmay-sanmi, voy, umridan baraka topsin! Ilmim undaqa, o'zim bundaqa deb dimog' qilmaydi!» deyishadi.

To'g'ri, Husniya ba'zi bo'lmag'ur qizlarga yo bebosh o'g'il-larga o'xshab onasini behurmat qilmaydi, og'zidan gapini olmaydi, holidan xabar olmay tashlab qo'ymaydi, biror muhim ish qiladigan bo'lsa, «Onamdan nima ham maslahat chiqardi – o'qimagan, avom xotin bo'lsa!» deb o'zi bilganicha qilavermaydi. Albatta, maslahat soladi. Mabodo, onasi bergan maslahatdan ko'ngli to'lmasa, buni darrov yuziga solmaydi. Ak-

sincha, og'ir-bosiq turib: «Oyijon, bundoq qilsak qalay bo'lar ekan?» deb o'z ko'nglidagini o'rtaga tashlaydi.

Husniya yaxshi biladi – farzand uchun ota-onadek yaqin, qadrdon, g'amxo'r odam yo'q. Ota-onaning butun harakati, hayotining butun halovati, maqsadi bolalarining baxtiga qaratilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, onasi Husniyaning tilak-istaklariga, solgan maslahatlariga hamma vaqt ham qarshi chiqavermaydi, hamma vaqt ham o'zinikini ma'qullab, oyoqlarini tirab turib olmaydi.

Hozir o'rni kelibdi – Husniya bilan onasi o'rtasida bo'lib o'tgan bir mojaroni so'zlab beray. Husniya oliy maktablardan birini bitirib, korxonaga injener bo'lib borganda, u yerda chilaranglar brigadasining boshlig'i vazifasida ishlaydigan o'rta ma'lumotli Shodmonbek bilan tanishdi. Husniya bu yosh ishchining ilmiy saviyasi o'zinikidan past ekaniga parvo qilmadimi yo «Hali yosh, o'qisa menga yetib olishi mumkin», deb o'yladimi, har nechuk, Shodmonbek bilan astoydil gaplashib yurdi. Bu orada Shodmonbek uni, u Shodmonbekni yaxshilab o'rgandi. Gap pishib, qaror qat'iydashganda, Shodmonbek Husniyalarnikiga odam yubormoqchi bo'lgan edi, Husniya onasi bilan avval o'zi gaplashmoqchi ekanini aytdi.

– Oyim nima deydilar – bilmayman. Mabodo yo'q desalar, bir yoqdan, yuborgan odamlaringiz xafa bo'lishadi, siz xafa bo'lasiz, men yomon ahvolda qolaman. Innaykeyin, «Shunaqa mayling bor ekan, mundoq uchini chiqarib qo'ymabsan-da, qizim!» desalar... – Husniyaning andishasi Shodmonbekka ham ma'qul tushdi.

Lekin qizi borib aytganda, onasi birdan yig'lab yubordi:

– Tenging emas, qizim! Sening ilming katta, uniki kichik. Yo'q, to'g'ri kelmaydi. Umr qilib ketolmaysizlar! Qiz bolaning erga tegishi oson, lekin uy qurib ketishi qiyin, jon bolam! – dedi onasi.

Onasining gaplariga Husniya kuyib-yonmadi, jahl ham qilmadi. Faqat Shodmonbekning yoshligini, oliy ma'lumot olishi mumkinligini yotig'i bilan aytdi.

Onasida bunga ham e'tiroz tayyor edi:

– Oliy ma'lumotli erkaklar chala o'qigan yo o'qimagan qizlarni olishadi. Bunaqasi bo'ladi. Lekin oliy ma'lumotli qizning chala o'qigan yo hech o'qimagan kishiga tekkanini dunyo bino bo'lib hech kim eshitmagan. Sen o'sha yigitga tegsang odamlar nima deyishadi? Tengi topilmagandirki, o'zini ishqab tegib olibdi, deyishmaydimi? Yo'q, bu shashtingdan qayt, bolam.

Farzand ota-onasiga, ularning mehriga, madadkorliklariga ishonsa-yu, ota-ona farzandining intilishiga, manfaatiga tushunmasa – bundan og'ir narsa yo'q. O'zlarini tutib olmagan, ota-onalarining mehr-u shafqatiga, qalblari tosh emasligiga ishonmagan, kalta o'ylaydigan ba'zi bir xil farzandlar shunday paytlarda qaltis ish qilib qo'yishdan toymaydilar. Husniya o'rnida ana shunday kalta o'ylaydigan, andishasiz qiz bo'lsa, onasining noto'g'ri xulosasidan keyin yigiti bilan ZAGSdan o'tardi-yu, onasi yoniga qo'ltiqlashib kirib:

– Qani, to'yni qiling, kampir, biz nikohdan o'tib keldik, – deyardi.

Bunday nojo'ya harakat bilan onasining ikkilanib turgan gumon to'la qalbiga, ona hurmatiga qaqshatqich zarba bergan bo'lardi. Lekin Husniya bunaqa pastkashlik qilmadi. O'sha kuni ham, keyin ham onasiga yomon gapirmadi. Chunki u inson qalbida haqiqat tamoyili kuchli ekanini bilardi. Faqat oradan bir oycha o'tkazib turib:

– Oyijon, Shodmonbekning uy tomonlarini, o'zini surishtirib ko'rdingizmi? – deb o'smoqchilab so'radi.

Onasining bekor o'tirmaganiga, o'sha e'tirozimdan keyin qizim aloqasini uzib yubordi, deb xotirjam bo'lib qolmaganiga, aksincha, Shodmonbekni, ota-onasi qanday odamlar ekanini surishtirishi muqarrarligiga Husniyaning imoni komil edi. Buni yuragi sezib yurardi.

– O'zi ham, ota-onasi ham yomon odamlar emas ekan, lekin senga to'g'ri kelmaydi, bolam dedi onasi avvalgidan sal bo'shashib.

Husniya endi g'alati qilib kuldi. U hamma ota-ona ham bolalarining baxtini o'ylaydi, agar buning uchun jon berish kerak bo'lsa, jonlarini berishdan ham toymaydi, deb ishonar, ishonchi to'g'ri chiqqanidan quvonar edi.

U onasini mahkam quchoqlab:

– Qani, nimasi to'g'ri kelmaydi? Bunisini ham aytib yuboring, oyijon, – dedi.

Onasi Shodmonbekning uchta akasi, uchta kelinoyisi borligini, agar Husniya Shodmonbekka tushsa, ovsinlari cho'qib tashlashlari turgan gapligini aytdi.

Husniya bu safar kallasini beozorgina chayqab qo'ydi. Aslida esa o'zining ham uchta akasi borligini, kelinoyilari bir-birlari bilan cho'qishmaganligini, qaytaga, bir qozondan ovqat yeb, bir hovlida ahil yashab kelishayotganligini aytishi kerak, edi. Aytmadi, sabr qildi.

Husniya Shodmonbekka, rozilik so'raganda, onasi darrov «xo'p» deb qo'ya qolmaganining sababini bir kun qizi bilan bafurja o'tirib tushuntirdi:

– Oyim unaqalar, oyim bunaqalar deb mendan asti ko'yima, qizim. Nima qilay, bu axir, umr savdosi, shoshib bo'lmaydi. Adang rahmatli boshimizda bo'lganlarida ham boshqa gap edi, maslahat berardilar, yo'l-yo'riq ko'rsatardilar. Qaydam, ota-ona uchun qiz chiqarish yo o'g'il uylantirishdek baxt bormikan shu jahonda? Bordi-yu chiqargan qizi yo uylantirgan o'g'li qovushgani bilan baxtini topib, tinib-tinchib ket-sa-chi? Voy, aylanay! Qizim-ey, ota-ona orzusining ushalgani shu, jon bolam! Shuning uchun ota-ona turmush qurayotgan o'g'il-qizidan ortiq hayajonga tushadi, har tomonini o'ylaydi, chamalaydi, ishqilib, bolasining baxtini qidiradi. Men bilmay seni o'tga solsam, u o'tda sendan ko'p yonadigan yana menman, jon qizim. Kel, akalaringdan maslahat olaylik. Qani, ular nima deyishar ekan?

Ona aytganini qilib, o'g'illariga maslahat soldi. Uchala o'g'li ham, Husniya singari, ona hurmatini joyiga qo'yadigan nihoyatda baodob yigitlar. Katta o'g'il onasining ishtiboh-

larini diqqat bilan tingladi. Ayniqsa, ovsinlar to'g'risidagi gapi noo'rin bo'lsa ham, yana: «Ona-da, qizining tashvishini qiladi», deb oyisiga qattiq-quruq gapirmadi. Faqat kulimsirab, yarim hazil – yarim chin qilib:

– O'zingizning ham uchta kelingiz bor-ku, oyi, – dedi.

Shu gapning o'zi kifoya edi, lekin kenja o'g'li odatdagi beozor hazilkashligini qilib:

Oyimiz qizlarini kuyovga bermoqchilar-u, lekin yigitning kelinoyilari bo'lmasa... sababki, ovsinlari cho'qib tashlashlaridan qo'rqadilar... Shuning uchun so'qqabosh yigit bo'lsa sovg'i yuboraversin, deb gazetaga bitta e'loncha beramizmi, a? – deb qoldi.

Shu-shu – gap bitdi, yurakni xijil qilgan vahm ketdi. Husniya Shodmonbekka tegdi. Ovsinlari uni cho'qishmadi, aksincha, aspiranturani bitirib, texnika fanlari nomzodi bo'lishiga, Shodmonbekning esa oliy ma'lumot olishiga qo'llaridan kelganicha yordam berishdi. Hozir bularning ikki o'g'il-u bir qizchalari bor. Husniya – ona, Shodmonbek ota bo'ldi. Lekin bularning o'z ota-onalari oldidagi farzandlik burchlarini ado etish odatlari boyagidek saqlanib qoldi. Shodmonbek ota-onasiga qarash, ularning xizmatlarini qilish burchini akalari yo kelinoyilariga tashlab qo'ymay, o'zi qiladi. Husniya ham, huddi qizlik vaqtlaridagidek, oyisini yo'qlab, holidan xabar olib turadi, buni u o'zining muqaddas burchi deb biladi.

Har gulning o'ziga xos bo'yi bo'lganidek, ota-ona uchun ham har bir farzandning o'z o'rni bo'ladi. Bu o'rin bo'sh bo'lsa, hamma vaqt huvullab turishini Husniya ham, Shodmonbek ham yaxshi biladi. Shu sababdan bo'lsa kerak, Husniya qo'lida bir nima bo'lmaganda ham, quruq boramanmi, deb bormay, onasidan xabar olmay qo'ymaydi. To'g'ri qiladi, chunki ota-ona farzandi ko'tarib keladigan narsaga emas, o'zini kutadi, sog'-salomat ko'rishga zoriqib, ko'zlari ko'chada bo'ladi.

Husniyaning ajoyib fazilatları ko'p. Akalari, kelinoyilari oyisining boshida har qancha parvona bo'lishsa, uni e'zoz qilib boshlarida ko'tarishsa hamki, yana onasi kelinlariga aytishni

ep ko'rmagan narsasi bo'lishi mumkinligini nazardan qochirmaydi. Agar shunday ahvolni payqasa, onasining aytishini kutib o'tirmay, darrov epini qiladi.

Ma'lumki, yoshlarga o'yin-kulgidan tashqari yana yemoq-ichmoq ham kerak. Xuddi shuning singari, keksalarga yemoq-ichmoqdan tashqari yana ko'ngilxushligi ham kerak emish. Nimaga desangiz, odamning bahri ochilsa, xursandchilik qilsa, ko'ngli ko'tarilib, yashash ishtiyoqi kuchayar ekan. Shuning uchun teatrlarda yangi spektakllar qo'yilsa, Shodmonbek bilan Husniya to'rtta bilek oladi-yu, onalarini hurmat bilan tomoshaga olib borishadi.

Husniyalarning harakati ota-onaning moddiy farovonligini, ularning hurmat-e'tiborlarini o'ylashning o'zi kifoya emasligini, shular bilan birga ma'naviy oziqlarini ham o'ylash kerakligini ko'rsatadi...

Siz yaxshi farzandning yaxshi fazilati haqida kichik bir lavha o'qidingiz. Ne baxtki, bunday farzandlar xalqimiz orasida o'zi bir xalq. Ular ota-ona hurmatini bajo keltirish, bu hurmatli zotlar oldidagi burchlarini sidqidil ado etish zimmlaridagi uzilmas qarz ekanini yaxshi biladilar. Shuning uchun bu ezgu qarzni dam sayin, kun sayin uzib borish zarurligini, ya'ni ota-onalarini qariganlarida qarovsiz, kasal bo'lganlarida yordamsiz qoldirish kechirib bo'lmaydigan katta gunoh ekanini hech qachon esdan chiqarmaydilar.

Ota-ona farzandini hayot yo'liga solib yuborguncha yo'li-da o't bo'lsa o'zini o'tga tashlashdan, bolasiga ajal chang solsa o'z jonini berishdan qaytmasligini yuqorida ham eslatib o'tgan edik. Endi shu haqda bir ertagimiz bor. Mayli, bu afsona bo'la qolsin. Lekin har qanday afsona ham haqiqat bulog'idan suv ichadi.

— Bir mushtipar ona ne-ne faqirlik, ne-ne haqirlik bilan balog'atga yetkazgan o'g'li, nima bo'ladi-yu, bir injiq qizni yaxshi ko'rib qoladi. U yaramas qiz oshiq boladan kuladi. Uni sovitish uchunmi yo masxara qilish uchunmi, qalininga onangning yuragini olib kelib bersang tegaman, deydi. Boyo-

qish oshiq hang-mang bo'lib qoladi: «Onamning yuragini? Vo darig'o, qanday qilib?!»

Yigitcha uyga xomush, bexush keladi. Onasi girgitton bo'lib, xafalik sababini so'raydi. Bola bir necha kungacha so'lib-sarg'ayib yuradi. Onasi qo'yarda-qo'ymay, axiri sababini aytiradi. Onasi xafa bo'lish, u yaramas qizni qarg'ash o'rniga chaq-chaq urib kuladi.

Shunga ham xafa bo'lib yuribsanmi, jon bolam? Agar mening yuragim baxtingni ochadigan bo'lsa, ma, ol! – deydi-da, o'g'liga pichoq tutqazib ko'ksini ochadi.

O'zi bir mahallar sut emgan tabarruk ko'ksiga nainki pichoq urish, hatto ona yuziga qattiq gapirish katta gunoh ekanini yomon bola farq etmaydi. Ishq pardasi ostida qilingan pastkashlik uning ko'zlarini ko'r qilib qo'ygan edi. Betamiz oshiq onasining ko'ksini yoradi-yu, urib turgan issiq yurakni changallaganicha sevgilisilikiga qarab chopadi. Qiz ostonasidan hatlab o'tayotganda, bola qoqinib yiqiladi. Changaldagi ona yuragi shu ahvolda ham bolasiga achinadi:

– Voy bolam bechora-yey, yomon yiqilding, joning og'ri-di-ya! – deydi.

Shunaqa, oramizda ona sutining kiyasiga uchragan g'alamislar gohi-gohida ko'rinib qoladi. Bular toza chashmadan oqib chiqqan zilol suvga axlat to'kkan bedavolar singari ko'zimizga xunuk ko'rinadilar. Bundaylardan hamma jirkanadi, hamma nafratlanadi. Bu xillar ota-ona orzu-havasini, tilak va intilishini mehnat va zahmatini bag'ritoshlik bilan oyoqosti qilgan yuzi qarolardir! Odamshavanda jamiyatimizda ana shu taxlit onabezori, otabezori badxulq odamlar uchrab qolsa, bolalaridan xo'rlik yo parvosizlik ko'rgan ota-onalar yonida turib biz ham qayg'uramiz. Biz bu xil yaramaslar turmush haqiqatini anglamaganliklari, farzandlik burchini unutganliklari uchun bir qayg'ursak, xo'rlangan ota-onalar qadri uchun ming qayg'uramiz. Bugun bular yosh, lekin yoshlik umr oxirigacha yetib beradigan boqiy ne'mat emas. U shunday bevafoki, u yoq-bu yog'ingni yig'ishtirib olishga ulgurmay seni tashlab ketadi.

Ana undan keyin sen ham ota yo ona bo'lasan, bugun sen qaqshatayotgan ota-onalaring singari sen ham bolalaringdan iz-zat-hurmat kutasan, zoriqib, mushtoq bo'lib kutasan. Bordi-yu kutganing bo'lmadi.

Andijondagi oliy o'quv yurtlaridan birida To'lan T. degan bir yigit o'qiydi. Ko'rib turibsizki, u ertak kishisi emas, shu zamonda yashab turgan bir o'smir. Ammo u «Bolam! Bolam!» deb sarg'aygan ona qalbini pichoq bilan yorib olgani yo'q, battarini qildi.

To'lan qishlog'ida ekanida noppa-nozin bola edi. Ota-onasiga mehr-u oqibatli, aka-ukalariga shafqatli edi. Shaharga keldi-yu, no'xtasini bo'shatib yubordi. Tez orada kipritikanga o'xshatib soch qo'ydi, oyoqlari zo'rg'a sig'adigan tor shim kiydi. Mayli, agar odamiyligi joyida qolsa, nima qilsa qilsin edi. Lekin To'lan odam uchun eng zarur bo'lgan xuddi shu narsani esdan chiqarib qo'ydi. Shu sababdan hamqishloqlari uni ko'rganlarida yoqalarini ushlab ajablanishadigan, «E, tavba, To'lanni nima jin urdi? Nahotki shahar odamni shu kepataga kirgizib qo'ysa!» deydigan bo'ldilar. Aslida, ayb shaharda emas, odamning o'zida, madaniyatni, odamiyatni tushunmaslikda, o'zini el orasida masxara, kulgi holatiga aylantirib qo'yishda.

To'lan xuddi shunday xilidan ekan. U shaharda o'zligini yo'qotdi-yu, odam uchun nihoyatda zarur bo'lgan andishani ham, qishloqdagi ota-onasini ham unutdi. Shanba-yakshanba kunlari vaqti bo'sh bo'lsa ham, kasalmand otasidan, mayda bolalari, ro'zg'or ishlari bilan o'ralashib qolgan yolg'izqo'l onasidan xabar olmay qo'ydi. To'lan ikki yildan beri shaharda turadi, qishlog'iga faqat yozgi ta'tildagina boradi. Borganda ham qo'lini sovuq suvga urmay, bemaza qiliqlar bilan ota-onasini kuydirib qaytadi. Shu qaytganicha qorasini ko'rsatmaydi. Faqat onasi kelib, ko'rib ketib turadi. Otasi ham ko'rgisi keladi. Iloji qancha, bir oyog'i yo'q, kasalmand.

Yaqinda onasi uni kasal deb eshitib, bir ro'mol turshak, jiyda, yong'oq ko'tarib keldi. Yakshanba kuni edi. Betob deb eshitgan o'g'lini yotog'idan tugul, yerdan ham, ko'kdan

ham topolmadi. Balki, siz, ozroq shamollagan bo'lsa, tuzalib o'rtoqlari yoniga dars tayyorlagani ketgandir, deb o'ylarsiz? Yo'q, o'ynagani, kayf surgani ketibdi. Ona bechora bolasini yarim kechagacha kutdi. Ko'rmay ketishga ko'ngli bo'lmadi. Eshik tiq etsa, o'g'lim keldimi, deb yo'liga qarar edi. Studentlar sarson onaga choy-non qilishdi, izzat-hurmatini joyiga qo'yib o'tirishdi. Ammo To'lan... bir mahal kayfi taraq, gandaraklab kirib keldi. Onasiga salom berish, o'zini ona bag'riga otish o'rniga og'zidan muz purkadi:

O, kampir! Kelibdilar-da... sizni ko'ramizmi deb ko'zimiz uchib turuvdi! – dedi.

Ona bu sovuq gapdan o'zini bir zum yo'qotib qo'ydi. Keyin, ona ekan, yuragi ilib, bolasini quchoqlagani yugurdi. To'lan yaqin yo'latmadi.

– E, shu qilig'ingiz hech qolmadi-da! Nari turing!

Ona bechora, studentlar oldida izza bo'lib, sekin orqasiga qaytdi. To'lan stoldagi tugunchakka chang soldi.

– Boboy yuborgandir-da, a?

Onaning xo'rliги keldi, u piqillab yig'lab yubordi.

Bolam, nimaga «boboy» deysan? Otang-ku u axir, aylanay! Otangni ota, onangni ona desang, bir nima bo'lib qolasanmi, jonimni qoqay? Meni ham «kampir» deysan, men axir, onangman, ko'kragimdan sut berib, kiprigim bilan dardingni olib katta qilgan onangman, bo'talog'im!..

E-e, qishloqdan kelib aql o'rgatmagan endi siz qoluvdingiz, bo'ldi! Fi, ko'tarib kelgan matosini qarang: qurt tushgan qoqi, sasigan jiyda! Qulluq, buni qishlog'ingizga olib borib, cholingiz bilan baham ko'raverasiz!

U tugunchakni bir turtib, ichidagi mevalarni sochib yubordi. Keyin gandaraklab borib o'zini karavotga tashladi...

Yotoqdagi studentlar bu yaramas bolaning yomon xulqiga befarq qolmadilar. Ulardan ikkitasi kelib, To'lanni zarb bilan karavotidan turg'izdi. Biri yoqasidan olib qichqirdi:

– Bor, onayizoringning oyog'iga yiqil, ablah! O'p u tabarruk oyoqni! Tavba qil, tiz cho'k!

Ona jag‘illab o‘rtaga tushdi:

– Qo‘yinglar, jon bolalarim, tegmanglar To‘lanimga! Mayli, men rozi, yotib uxlasin...

Ona ust-boshini yechirib, o‘g‘lini joyiga yotqizdi. Keyin, uni peshanasidan, ikki betidan o‘pib, yig‘lab-yig‘lab chiqib ketdi.

Shu ayanch voqeadan keyin nima deyish mumkin? Nahotki bu faqat ota-onaninggina sho‘ri bo‘lsa?

Yo‘q! Faqat ota-ona sho‘rigina emas! Bu eng avval farzandning tuban ketganligi, ota-ona oldidagi muqaddas burchni unutganligi, odamiylik basharasini yo‘qotganligi fojiasidir! Bundaylarga ona suti ham, ota tuzi ham harom! Bundaylarga xalq odam qilaman deb sarf etayotgan moddiy-ma‘naviy kuch ham harom! Odamning asili har qanday vaziyatda – yaxshi kunda ham, yomon kunda ham o‘zini yo‘qotmaydi. Agar boshiga biron yomon narsa tushsa, u shu yomon narsadan yaxshilik tantanasi uchun foydalanadi. Buning uchun odamda iroda, chidam, sabr-toqat, idrok bo‘lishi lozim. Odam bolasiga suv, havo, quyosh qatori nihoyatda zarur bo‘lgan mana shu to‘rt shartning birontasidan ayrilgan kishi bora-bora toshkentlik Fazliddin I.ga o‘xshab qoladi. Uning otasi bir falokat oqibatida halok bo‘ldi-yu, ro‘zg‘or tashvishi, bolalar tarbiyasi ona zimmasida qoldi. Fazliddin u vaqtlar 15–16 yoshlik maktab bolasi edi. Hademay o‘rta maktabni bitirib, oliy o‘quv yurtiga kirdi. Ammo yaxshi o‘qimadi. Yomon yurib, yomon turdi. Onasi kuydi, yondi, yig‘ladi:

– Aylanay bolam, o‘qiging kelmasa ishga kir. Hech bo‘lmasa o‘z qorningga topib kelarsan, – dedi.

Ona fig‘oni kor qilmadi. Ishga ham kirmadi. Onasidan keyin oilaning eng katta a‘zosi shu betamiz edi. Demak, ukalarini o‘ylashi, onasi pinjiga kirishi kerak. Bunday qilmadi, aksincha, tekin yedi, tekin ichdi, ukalarini urdi. Onasi insofga chaqirganda onasini ham urdi! Holbuki, oilaning boshidagi shu og‘ir kunlarda o‘zini og‘ir tutishi, onasiga mehri, ukalariga shafqati yana ham ortishi, ham o‘qib, ham ishlashi kerak edi. Axir, ishlayman desa har qanday ishni gullatish qo‘lidan keladigan kuchli, o‘qiyman desa faqat «a’lo»ga o‘qishi mumkin bo‘lgan iste’dodli yigit edi.

Agar u yomon yurib ketgan bo'lsa, balki boshida otasi yo'qligidandir? Yo'q, sabab faqat bunda bo'lmasa kerak. Axir, o'rta maktabni bitirib, oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yigit-qizlarga qachongacha ota-ona aql bo'lishi, u yoqdan yurma, bu yoqdan yur, uni qilma, buni qil, deb turishi kerak! El qatori yashash, el yurgan yo'ldan yurish uchun yoshlar boshida nahotki faqat ota-ona bo'lishi shart? Otasi yo onasidan, yoki bularning har ikkalasidan ayrilgan bolalar hamma vaqt hayotda adashib, yurgan yo'llarida chalishib qoladilarmi? Yo'q, aslo bunday bo'lmaydi. Aksincha, bu xil bolalar, avvalo, o'zlariga suyanadilar, taqdirlari o'z qo'llarida ekanini yaxshi biladilar, shuning uchun baxtlarini halol mehnatdan, yaxshi odobdan, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqatdan qidiradilar. Shu boisdan bo'lsa kerak, xalqimiz: «Aql yoshda emas, boshda», deydi. Fazliddin esa aql bilan ish tutmadi. G'animat umrini ko'cha-ko'ylarda bema'ni narsalarga isrof qildi. U bilan oliy maktabga birga kirgan o'rtoqlari o'qish kabi og'ir mehnat zahmatidan qochmadilar. Oqibat, birovi injener, birovi fizik, birovi yana bir ixtisos kishisi bo'lib chiqdi. Bular ota-onani qaqshatish kabi gumrohlikni emas, ota-ona hurmatini, el xizmatini qilish kabi oliyjaob fazilat g'amini o'yladilar. Fazliddin esa buning teskarisini qildi. U yaqinda yana ichib kelib, onasini eng tuban haqoratlar bilan tuproqqa qorib tashladi. Onadek aziz insonni o'zi xo'rlagani, qon-qon yig'latgani yetmay, naryoqda tomoshabin bo'lib, irjayib turgan betamiz xotinini ham kelib qaynanasini urishga da'vat etdi.

– Olga, kel, qo'lini ushlab turaman, ur! – dedi bu ona suti ko'r qilg'ur «o'g'il!»

Bu qanday dahshat! Bu qanday suttepkilik! Iltimos, quloqlaringizni berkitmang, bu yozuvchi hayhoti emas, o'g'ildan haqorat ko'rgan, xo'rlangan, oyoqosti qilingan sho'rlik ona faryodi! Bu faryod hamma yerga eshitilsin! Ona hurmatini yerga urgan yaramas o'g'ildan hamma nafratlansin!

Bilaman, ona kabi tabarruk inson qalbining nolasini eshitgan kishi o'zini bosib ololmaydi. «Evoh, nechun osmon yiqil-

maydi-yu, mana shunday yaramas o'g'illarni yanchib, ezib, yo'q qilib tashlamaydi!» deb qichqiradi.

Shunday, Fazliddin, endi sen mana bu otashin satrlarni o'qi! Bular ona qadriga yetgan asil farzand qo'li bilan yozilgan, yo'q- yo'q, dili bilan kuylangan ona madhidir:

«Oyi, oyijon! Men dunyoga kelganimni his etgan paytim- dan beri sening yumshoq qo'llaring esimda. Yoz kunlari qo'llaring oftobda kuyib qorayar, hatto qishda ham shunday, qoraligicha qolar edi. Bu qoralik teringni biram muloyim, chi- royli qoplab olar, faqat tomirlar ustidagi rang quyuqroq tusda bo'lardi. Balki, qo'llaring birmuncha dag'allashgandir ham, lekin menga hamisha yumshoq, muloyim tuyular, men bo'rtib chiqqan tomirchalarindan o'pishni yaxshi ko'rardim», – deb yozgan edi onasiga aqlli o'g'il.

Endi mana bu ajoyib ashulaga quloq solinglar, adash- gan o'g'il-qizlar. Musiqa san'atimizning keksa otaxoni aka- demik Yunus Rajabiy bastalagan bu maftunkor ashulani res- publikamizning xushxon navozandasi Farog'at Rahmatova aytyapti:

*Bormikan onadek aziz, shirin so'z,
U bir quyosh bo'lsa, farzand bir yulduz,
Qanday baxt farzandlik burchin o'tamoq,
Kumushdek sochingiz o'pib, silamoq!
Farzandim dedingiz, chekdingiz zahmat,
Onajon, onajon, sizga ming rahmat!
Ona, sizdan behad bo'ldim minnatdor,
Baxt keltirgan menga siz ham hur diyor!
Sha'ningizga ming-ming kuylasam arz'r,
Ona hurmatiga bosh egmoq farzdir.
Baxtimizga yashang, sog' bo'ling abad,
Onajon-onajon, sizga ming rahmat!*

Keling, ona hurmati haqidagi suhbatimizga o'zbek ada- biyotining ko'rklaridan biri, shoirimiz Hamid Olimjonning qu- yidagi ikki satri bilan xulosa beraylik:

*Farzand bir guldir, ona bir bo'ston,
Shuning uchun jahon guliston!*

Farzandning ota-ona oldidagi xizmat va hurmat burchi ustida ancha batafsil gaplashdik. Lekin qancha gaplashmaylik, baribir, farzand zimmasidagi muqaddas burchning intihosiga yetib bo'lmaydi. Chunki ota-ona farzandlarining dunyoga kelishlarida shunchaki bir sababkorlar bo'libgina qolmay, ayni zamonda, butun umrlarini, butun halovatlarini, yurak o'tlarini, og'ir mehnatlarini bolalari baxtiga bag'ishlagan eng mehribon, eng jonkuyar jigarbandlar hamdir. Kechagina ota-ona bag'ridan chiqib, mustaqil hayot boshlagan yosh kelin-kuyovlar birinchi farzandlari tug'ilgan kunni umrlarining oxirlarigacha esdan chiqarmaydilar. Chunki bola bilan birga ota-ona umrining tilak va orzusi, quvonch va sevinchi ham tug'iladi. «Mijozimiz bir-birimiznikiga to'g'ri kelmayapti», deb er-u xotinlik halovatlarini, uzzukun urish, uzzukun janjal bilan zaharlab o'tkazayotgan yosh oilalarda farzand tug'ilishi bilan har xil g'alva-g'ishavalar ham yo'qolib, mustahkam oila binosining poydevoriga g'isht qo'yiladi. Ko'rib turibsizki, farzand ota-ona uchun faqat zurriyotgina bo'lib qolmay, yana ota-onani bir-biriga ahillik, totuvlik, mehr-u oqibat hissi bilan mahkam bog'laydigan uzilmas ip ham ekan.

Ota-onaga yoshliklarida, ya'ni bilaklarida kuch, bellarida quvvat borligida farzand qanchalik aziz, qanchalik zarur bo'lsa, keksayib, bilaklaridan kuch, bellaridan mador ketganda, farzand ular uchun yana ham aziz, yana ham zarurdir. Bular yosh ota-ona qalbiga g'ujur-g'ujurlari bilan quvonch, jaranglagan kulgilari bilan nur kiritishsa, keyin, voyaga yetib, o'zlari ham ota-ona bo'lganlarida keksalarning xira ko'zlariga nur, madorsiz bellariga quvvat bo'ladilar.

Afsuski, ota-ona oldidagi farzandlik burchlarini tushunmaydigan yo noto'g'ri tushunadigan o'g'il-qizlar oramizda uchrab turadi. Bunday farzandlar o'z burchlarini eng avval ota-onalariga faqat pul bilan yordam berishdan iborat deb biladilar. Ma-

salaga chuqurroq qaralganda, farzandlik burchini bu taxlit tushunish tamoman xatodir. Farzandlarning ota-onalariga mehru oqibatlari har xil bo'lganidek, ota-onalarning moddiy yordamga ehtiyojlari ham har xildir. Bir xil ota-onalar kasallik yo qarilik natijasida bolalarining moddiy himoyatlariga muhtoj bo'lsalar, boshqalari bunga ehtiyoj sezmaydilar. Ammo bu tashqi farqdan qat'i nazar, hamma ota-ona bolasini har dam ko'rib turgisi, uning orzu-istaklariga, intilishlariga sherik bo'lgisi keladi. Farzandning tug'ilgan kunidan boshlab hayotda bosib o'tgan butun umri ota-ona qalbiga jonli suratlar tasmaidek o'rnatib qoladi. Agar farzand biron sabab bilan boshqa yoqqa ketsa, ota-ona bu ayriliqni og'ir kechiradi. «Bolam nima bo'ldi ekan, nima qilib yuribdi ekan?» deb ming tashvish bilan etini yeydi, sog'inib-sarg'ayadi. Ilojini topsa, shunday kezlarda orqasidan borib ko'rib keladi, ilojini topmasa-chi, o'z qalbida bolasi qoldirgan umr suratlarini har kun, har dam ko'z o'ngidan necha bor o'tkazib, intizorlik dardini chekadi. Farzand uchun ota-onachalik mehribon, ota-onachalik qadrdon, beg'araz do'st yo'q dunyoda. Modomiki, bu rad etib bo'lmaydigan bir haqiqat ekan, demak, ota-onani farzand dog'ida kuydiradigan narsa tama deb atalgan pastkashlik emas, mehr-u oqibat, insoniy muhabbat deb atalgan oliyanoblikdir.

Ma'lumki, bog'bon ekkan niholini ekanicha tashlab qo'ymaydi, aksincha, uni har xil kasalliklardan, ofatdan saqlab, mevaga kiritish uchun atrofida ming'parvona bo'ladi. Shuning singari, ota-ona ham o'z pushtikamaridan bo'lgan aziz bolasini befarq tashlab qo'ymaydi, aksincha, yaxshi odam bo'lib o'ssin, dard ko'rmasin, yomon yo'lga kirmasin, orzu havaslari ro'yobga chiqib, baxtli bo'lsin, deydi, deganini yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Shu sababli farzand o'zining ota-onasiga zarurligini faqat tamaga, shu past tushunchaga bog'lab qo'ysa, uni voyaga yetkazish yo'lida hech nimasini ayamagan, tabarruk ota-ona meqnatini qadrlamagan, bu oliyanob mehnat egalari yuziga oyoq bosgan bo'ladi. Bu xil tushunchaga yo'l qo'ygan farzand o'zining yuzini qora qiladigan juda yomon xatoga yo'l qo'yadi.

Ingliz yozuvchisi Jek London: «Umidsiz yashagan odam o'limdan qo'rqmaydi», deb edi. Shunga o'xshash, orzu-havassiz yashagan odam nimaga yashayotganini bilmaydi. Holbuki, dunyoda orzu-havasdek shirin, uning ushalishidek totli narsa bo'lmasa kerak? Sevganing bilan qovushsang, chug'urchug'ur bolalar ko'rsang, ularni tarbiya qilish, voyaga yetkazish tashvishini tortsang, qizlaringni kuyovga chiqarsang, o'g'illaringni uylantirsang, shirin-shakar nevaralar, chevaralar ko'rsang, bolalaring, nevaralaring el xizmatida, el hurmatida bo'lishsa, ularning yaxshi ishlariga, yaxshi fazilatlariga odamlar havaslanib: «E, bu falonchining o'g'li, falonchining qizi, e, otasiga rahmat!» deyishsa, bunday baxt savobiga kim yetsin?

Kelajakda o'zi ham yo ota, yo ona bo'lishini qani endi har bir farzand bilsa, shu oddiy haqiqatni tushunsa, shunga qarab oyoq tashlasa! Afsuski, ba'zi bir xil nodon bolalar ota-onalar qalbining dukurini eshitmaydilar, bu qalblar quvonchi nimada ekanini bilmaydilar, bolalari ko'chada bo'lishsa, ota-onalar ko'zlari ham ko'chada ekanini, bolalari qoshlarida bo'lishsa, ota-onalar ko'ngli ham oromda ekanini anglamaydilar.

Bir misol. Men bir mahal Moskvadagi «O'zbekiston» oshxonasiga ovqatlangani kirgan edim. Bu yer hamma vaqt o'zbek taomlarining shinavandalari bilan to'la bo'ladi. Bu safar ham shunday ekan. Bo'sh joy qidirib yurib, ko'zim oynaband ayvonchada o'zbekcha qilib tuzalgan shinam xontaxta orqasidagi bir keksa cholga tushdi. Egnida ohori ketmagan oq yaktak, boshida qati buzilmagan yap-yangi tus do'ppi bilan yaraqlab o'tirgan bu cholning yuzidan quyilib turgan nur ichimga chiroq yoqib yubordi. Darhol yoniga salom berib bordim. Chol o'rnidan og'ir qo'zg'alib, yonidan joy ko'rsatdi. O'tirdim. Tanishdik. Armiyada xizmat qilayotgan o'g'lini ko'raman, deb Marg'ilon atrofidagi qishloqlarning biridan kelibdi.

– Bola ekan, ko'rmasak turolmasak. Marg'ilonni-ku ko'rganmiz, bozor-o'charga tushib turamiz. Lekigin, shu yoshga yetib Farg'ona shahrini durust-quruq ko'rmaganman, desam,

albatta, ishonmaysiz. Rosti shu. Bolamning ko'ziga ko'zim tusharmikan, deb mana shundoq uzoq joylarga qidirib keldim. Oh, bola, bola! – dedi chol chuqur tin olib. Ota mehrining sehrlovchi kuchi meni qamrab oldi. Hayajonli minnatdorlik qalbimni to'ldirdi. Men bu otaning oppoq soqollaridan o'pishga tayyor edim. Shu his, shu hayajon bilan so'radim:

– O'g'ilni ko'rdingizmi?

Cholning yuzi yana charaqlab ketdi.

– Ha, ko'rdim.

– Qayerda ekan? Shu, Moskvadami?

– Yo'q. Kalinin degan shaharda.

– O'h, ha, bu yerdan ancha narida-ku!

– Ilojimiz qancha! Ota ekanmiz, bolamizni ko'rgimiz kelar ekan. Hali-ku Moskvadan narida, dunyoning narigi burchida bo'lganda nima qilardik? Borardik u yerga ham. Bola bo'ladiyu, o'h-ho'...

Otalik burchini bajarish – ota uchun qanchalar baxt ekaniga ishora qilib aytilgan bu gap yuragimdagi hayajonni toshirdi. Chol meni shu ahvolga solib qo'yib, endi xotinidan gap ochdi:

– Onasi meni kuzatib, ko'chada yig'lab qoldi. «Bolaginamning ko'zlaridan o'ping, buving sog'inibdi, deng. Ko'zlari yo'lingda to'rt, deng. Askar bolamdan aylanay, tezroq kelsa, to'ylar qilib qayliq olib berardim, deyapti, deng», deydi.

Ota-ona «Bolam! Bolam!» deb umri o'tganini, qarib, hilvirab qolganini shu tariqa bilmaydi. Negaki, u o'zini demaydi, bolasini deydi. Qani endi bolalar ham ota-onalarini mehr-u oqibat, katta hurmat bilan qamrab olib, ko'zlariga nur, bellariga quvvat bo'lishsa! Ana shunday qilmaydigan yoshlar bor-da, mana bittasi.

Andijonda Urayim ota degan bir kekxa kishi yashaydi. Urayim ota urush yillari mehnat armiyasida xizmat qildi. Ikkita azamat o'g'li frontda halok bo'ldi, urushdan so'ng xotini Sarvi xola ham kenjasi Sharifjonni otasi bilan yolg'iz qoldirib, dunyodan o'tdi. Yolg'iz ota ko'zining bu oq-u qorasini ko'p zahmatlar bilan balog'atga yetkazdi. Qariganda xotin parvarishiga har qan-

cha muhtoj bo'lsa ham, bolam o'ksimasin, deb uylanmadi. Bolajonimni uylantiray, o'zi ham, kelinim ham qoshimda bo'ladi, dedi-yu, butun topgan-tutganini sarf qilib Sharifjonni uylantirdi. Lekin u qari otasi kutganday ish tutmadi. Marhuma onasidan keyin beva o'tayotgan qari otasini eski hovlisiga tashlab, o'zi qaylig'i bilan yangi dang'illama uyga ko'chib ketdi. To'g'ri, Sharifjon vaqt topsa otasidan xabar olib, topmasa «sabr» qilib yuradi. Ammo qariganda yetimcha bo'lib qolgan Urayim ota sabr qilolmaydi. O'g'lini, kelin qizini, endi-endi tetapoya bo'la boshlagan nevarachasini ko'rgisi keladi, sog'inadi, sarg'ayadi. Juda bo'lmagandan keyin o'zi borib, ko'rib keladi. Urayim ota eski hovlisini tashlab o'g'li qoshiga ko'chib ketay desa, Sharifjon indamaganidan, har xil o'ylarga boradi. Shunaqa qilsakmi, deb bir necha bor o'g'liga aytmoqchi ham bo'ladi. Lekin og'zi bormadi. Innaykeyin, o'zining butun umri shu yerda o'tgan, frontda halok bo'lgan o'g'illari shu uyda o'sgan, marhuma xotini ham shu yerda uzilgan. Qanday tashlab ketadi? Kim biladi, o'g'li olib ketay deb yorilsa, balki, tashlab ham ketarmidi? Xullas, Sharifjon ota dardining unsiz faryodini eshitmadi. Yoshlik kuchini, yurak o'tini, hayotdan olishi kerak bo'lgan barcha huzur-u halovatini bolalari baxtiga bag'ishlagan ota mana endi – farzandlari suyab surkashi zarur bo'lgan paytda yolg'iz qoldi.

Sharifjonni bag'ritosh, bemehr deb bo'lmaydi. U o'g'ilchasini yaxshi ko'radi. Ishdan kela solib uni bag'riga bosadi, yuzchasidan, kulib turgan ko'zchasidan o'padi. Lekin o'zini ham, shunday kichkina, jajjiligida, chaqaloq ekanida bag'riga bosib o'pgan, zo'r umidlar bilan katta qilgan otasini tanholik yalmog'iziga topshirib qo'ydi. Mana endi chol qarilik baxt-u halovatidan mahrum. Qozonini o'zi osadi, choyini o'zi damlaydi, joyini o'zi soladi, kirini...

Yo'q, bu odamgarchilik emas, Sharifjon! Sizdan «Kimning o'g'lisan?» deb so'rasalar, «Urayim otaning o'g'liman», deb javob berasiz-ku, a? Ha, balli! Endi «Otangga nima xizmat qilding?» deb so'rab qolishsa-chi! «Ismi, familiya-yu jismini begona qildim», deb javob qilasizmi? Yaxshi emas.

Yo'q, qochmang! Sizga beradigan savolimiz ko'p hali. Ayting-chi, o'zingiz g'arib qilib ketgan bir bechora cholni qaysi yuzingiz, qaysi vijdoningiz bilan «otam» deysiz? Siz uni tashlab ketibsiz, balki, bezor qilgandir u sizni? Yo sizni shu yoshga yetkazguncha sarf qilgan og'ir mehnatlari uchun haq talab qildimi? Pul so'radimi?

Yo'q, Sharifjon, sizdan hech nima talab qilgani yo'q. Ak-sincha, siz gashtini surayotgan oilaviy baxtingizga otalik ulushini qo'shdi. Sizni bolam, xotiningizni qizim, o'g'ilchangizni ovunchog'im deb qo'shdi. Shuning uchun u sizlar bilan bo'lishni, sizlar bilan quvonishni istar edi. Siz bo'lsangiz bir mahallar quchog'ida issiq-issiq uxlab, shirin-shirin tushlar ko'rgan mehribon otangizga shu kichkina baxtni ham ravo ko'rmadingiz!

Urayim ota bir oshnamning qo'shnisi. Oshnamdan shu ayanchli voqeani eshitib, Urayim otanikiga chiqdim. Hovlisida qitirlab ishlab yurgan ekan. Meni o'zidan ham daraxtlari taajjubga soldi. Hammasi pastdan kallak urilgan. Baqaloq shoxlariga odam yugurib chiqsa bo'ladi. Gaplashib o'tirib, shuni so'radim. Urayim ota ichidan ezilganday bo'lib jilmaydi.

— Biz yosh bola vaqtimizda ham eshikda meva daraxti ko'p edi. Daraxtga chiqsak, yiqilib ketmasin, deb otam rahmatlik tagida jonini hovuchlab yurardi. U daraxtlar yo'q, hammasi qurib ketdi. Bularni o'zim ekanman. Nevaralar chiqishga qiynalishmasin, yiqilib-netib jonlari og'rimsin, deb shunaqa pastdan kallak urdik...

Otaning gapi yuragimni ezib yubordi. Nevaralarga moslab o'stirilgan daraxtlarda mevalar shig'il-u, lekin na nevaralar, na kelin va na o'g'il bor bu daraxtlar tagida!..

Gul oshig'ining bir yaxshi odati bor. Gulshanga eng asil, eng go'zal gullarni ekib, uni ko'z qorachig'iday papalaydi. Odam hushini oladigan bu chiroyli gullar orasida yovvoyi o'tlar, yomon ko'katlar bo'lmasligi uchun butun choralarni ko'radi. Shundan keyin ham ko'zdan xilvat biron joyda ana shunday yovvoyi o't qorasini ko'rsatib qolsa, uni darhol yulib

tashlaydi. Biz ham jamiyatimizda gulshandagi yovvoyi o't singari ko'zimizga yot ko'ringan yomon xulq-atvorlar bo'lmasligini istaymiz. Ta'bimizni xira qiladigan ana o'shanday yomon xulq-atvor egalari ustida ko'proq to'xtalayotganimizning boisi ham shunda. Yaxshi saqlangan gulzorda bitta-ikkita ko'kat ko'rinsa ko'rinadi, bo'lmasa yo'q. Shunga o'xshash, biz yomon xulqli odamlar to'g'risidagi misollarimizni qancha ko'p keltirmaylik yoki ko'zimizga ko'pday ko'rinmasin, ular ham jamiyatimizda, gulshandagi yakka-dukka o'tlar singari, barmoq bilan sanarlidir. Haqiqatan ham turmushimizga, voqeligimizga sinchiklab qarasak, yoshlarimizning yaxshi fazilatları hayotimizning hamma sohasida kuchli jozibaga aylanganini ko'ramiz. O'qishda, mehnatda, harbiy xizmatda, Vatanga muhabbatda, xalqqa sadoqatda yoshlar ko'rsatayotgan jonbozlik yuraklarimizni g'urur hissi bilan to'ldiradi. Qaysi bir sohaga nazar tashlamaylik, hamma yerda eng og'ir, eng sharaflı mehnatni yoshlarimizning navqiron yelkalarida ko'ramiz.

Shuning uchun yoshlar ota-onalaridan, murabbiylari va katta yoshdagi birodarlaridan halol mehnatnigina emas, yaxshi axloqni ham meros qilib olmoqdalar. Haqiqatan ham axloqi yaxshi, odamiyati baland kishi o'z zimmasidagi burchiga parvosiz qaraganini hali hech kim eshitmaganidek, vazifasini boshqalarga ibrat bo'ladigan qilib a'lo yo yaxshi bajaradigan kishining ham axloq bobida oqsaganini biron odam ko'rgan emas. Sabab – halol mehnat bilan yaxshi axloq – biri ikkinchisini o'zida aks ettiradigan tiniq oynalardir. Chindan ham halol mehnatga qarab yaxshi axloqni, yaxshi axloqqa qarab halol mehnatni ko'rish mumkin.

Lekin, afsuski, hamma vaqt ham shunday bo'lavermaydi. Onda-sonda bo'lsa ham, yuqorida afsuslanib aytganimizdek, toza gullar chamanida yovvoyi o'tlar uchrab qoladi.

Ma'lumki, odam bolasining tabiatida yaxshilikka intilish mayli bor. Odam yoshmi yo qarimi, ijtimoiy pog'onaning yuqorisidami yo pastidami, bulardan qat'i nazar, yax-

shi bo'lishga, odamlarga yaxshilik qilishga intiladi. Agar jamiyatda bunday intilishlarga zamin bo'lsa, ya'ni jamiyat uni qo'llab-quvvatlasa hayot lazzati, odamlar baxti yana ortadi. Bizning jamiyatimizda xuddi shunday zamin bor. Yaxshi fazilatli, yaxshi axloqli, mehnatsevar, jonkuyar, odamparvar yoshlarimiz ana shu zamin chashmasidan go'zallik suvini ichgan gulchehralardir.

Biz yuqorida yaxshi fazilat chamanida uchrab qoladigan yovvoyi o'tdan og'iz ochdik. Keling, ana shu haqda bir misol keltiraylik.

Qarshiboy o'qish paytida o'qimadi, ota-onasining nasihatiga quloq osmadi, aksincha, ko'cha changitib, hammani qaqshatib yuraverdi. Oxiri, yigirma yoshlarga yetganda to'qsondan ortib qolgan qari otasiga xitob qildi:

– Menga har kun uch so'mdan pul topib berasan!

Toshmurod otaning esxonasi chiqib ketdi.

– Uch so'mdan?!

– Ha, uch so'mdan! – dedi bez bo'lib Qarshiboy.

– Hay, jon bolam, o'zim pensiya olsam, shuncha pulni qayerdan topib beraman senga?!

– Unisi bilan ishim yo'q! O'zingni garovga qo'yib bo'lsa ham topib berasan!

«O'g'il» shu taxlit otani senlab xorladi, ota esa yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi. Qarshiboy odamgarchilikning eng muhim shartini, ya'ni ota-onani hurmat qilish burchini esdan chiqardi.

Bu xunuk mojar o shu ko'ngilsiz to'qnashuv bilan bosdi-bosdi bo'lib ketsa jon koshki edi. Afsuski, unday bo'lmadi. Qarshiboy, aytganimni qilmading, deb choponini teskari kiyib oldi. Endi bechora cholni xo'rlash, har qadamda kamsitish payiga tushdi.

Oradan ko'p sovuq kunlar o'tdi: Qarshiboy qovog'idan yog'a boshlagan qor hech tinmadi. U otasi bilan salomlashmas, otasi salom bersa alik olmas edi. Ana shunday kunlarning birida u ko'chadan kayfi taraq kirdi.

– Pulmi? Mana pul! – U changalidagi bir necha uch so‘mlikni pesh qilib, otasiga o‘dag‘ayladi. – Endi yo‘limni topib oldim. Bor, puling ham kerak emas, o‘zing ham! Jo‘nab qol uydan!

Toshmurod ota ko‘rib turgan ko‘zlariga ishonmadi. Bu tushimi-o‘ngimi ekanini bilmas edi. Hayratidan qo‘llari o‘z yoqasiga yopishdi.

– Yo tavba! Qarshiboy, senmisan, bo‘tam? Yo meni tanimayapsanmi, a, o‘g‘lim! Men axir, otangman, jon bolam, otangman!

Ota shunday dedi-yu, keksa boshini saraklab, yig‘lab yubordi.

– Seni shu umidda katta qilganmidim, bolam... Tirigimda tiranchiq, o‘ligimda obro‘ bo‘larsan, devdim... Shu qari boshim bilan qayga boraman endi, jon o‘g‘lim... – deb qaqshab yig‘lardi hamon haydalgan ota.

Boyoqish cholning zor-u zor yalingani, ko‘z yoshlarini daryo-daryo to‘kib iltijo qilgani ham bag‘ritosh bolani insofga keltirmadi. Ro‘parasida yoshligining butun kuch-quvvatini, umrining butun huzur-u halovatini farzandlari etagiga keltirib to‘kkan tabarruk ota emas, jirkanch bir maxluq turgandek, Qarshiboy uni turtib, itarib chiqardi.

Qarshiboyning oqpadarligi shu soatiyoq el og‘ziga tushdi. Shu mahalgacha biron yaxshi ish bilan el hurmatini qozonmagan bu yaramas bola qishloqda hammaning nafratini uyg‘otdi. Qishloqning katta-kichigi uni o‘rtaga olib rosa mulzam qildi. Ota-onani behurmat qilish, ota-onaga o‘shqirish, ularga yegizgan-lehgizganini ta‘na qilish yo og‘ir tutish katta gunoh ekani ni uqtirishdi.

Qarshiboy odamlar gapi ta‘sir qilgan, eti o‘lgan kishiday yerga qarab o‘tirdi. Bir og‘iz nojo‘ya gap qilmadi, otasiga ham, nasihatgo‘ylarga ham qattiq tegmadi. Shu hayf-sayfdan keyin o‘z mayli, o‘z ixtiyori bilan: «Otamga qattiq tegmayman. Bundan buyon boshimga ko‘taraman», deb va‘da qildi, hatto shu va‘dasini bir parcha qog‘ozga yozib ham berdi.

Siz shu oxirgi satrni o'qib, «xayriyat», dersiz? Yo'q, hali shoshmang, vaqt bor. Vaqt emas, afsus yeydigan joy bor. Qarshiboy oqpadargina emas ekan, so'zida turmaydigan ahdi yo'l-g'on, aldoqchi ham ekan. Qarang, el ko'ziga cho'p suqib, otasini uyidan haydab chiqardi!

Ota qariganda o'g'li panohiga sig'magan g'arib boshini qayerga suqishni bilmay, Mullaxo'ja qishlog'iga sarg'ayib bordi. Sargardon otani shu qishloq ahlidan Jabbor Shukurov, Shonazar va Abdulla Salomovlar o'z panohlariga oldilar, uylaridan joy berib, boshlarida ko'tardilar. Ular, besharm o'g'il aqlini topib oladi, xunuk qilmishidan uyaladi, bugun bo'lmasa ertaga ko'zi ochilib, otasini olib ketadi, deb o'ylagan edilar. Ming afsuski, unday bo'lmadi. Qarshiboy otasini olib ketmadigina emas, biron marta «Holingiz nima bo'ldi?» deb yo'qlab ham kelmadi.

Shu xunuk qilig'i, yaramas oqpadarligi bilan u ijtimoiy tanbehga, hatto sud orqali javobgar qilinishga loyiq edi. Shunday bo'ldi ham. Toshmurod ota bemehr, beshafqat o'g'li ustidan Oqdaryo xalq sudiga ariza berib, otalik huquqi va hurmatining himoya qilinishini talab etishga majbur bo'ldi. Sudda beburd o'g'il qilmishiga tavba qildi, otasini ko'z qorachig'iday asrashga, hurmatini bajo keltirishga so'z berdi. Lekin bu so'z vijdoni, oriyati, belida belbog'i bor yigit so'zimi yo otadek hurmatli zotga qo'l ko'targan gumroh «o'g'il» so'zi – buni kelajak ko'rsatadi...

Hurmatli kitobxon, siz bu voqeani hoynahoy yozuvchining uydirmasi deb o'ylarsiz. Zotan, boshqacha o'ylash qiyin. Nimaga desangiz, muhitimizda, oramizda bunday nontepki, otabezori bolalar yo uchramaydi, yo uchrasa ham, juda kam uchraydi. Chindan ham, bu voqea kitobxonlarda bag'ritosh o'g'ilga nafrat uyg'otish, shu bilan beparvo oqpadar farzandlarni ogoh qilish maqsadida yozuvchi o'ylab chiqargan hikoya emas. Bu Ishtihon rayonining «Kolxoz haqiqati» nomli gazeta tahririyatida ishlovchi Erkin Hojiqurbonov g'azab bilan yozib yuborgan voqeiy fojiadir.

Ha, bu chindan ham fojia! Lekin davr yo zamon fojiasi emas. Bu, ayni zamonda, otaning ham fojiasi emas. Bu eng avval va to'laligicha farzand fojiasidir. O'zingiz o'ylab ko'ring: otalar, bobolar yurgan, davrlar, zamonlar yurgan, tarixlar, to'liqlar yurgan keng odamiyat yo'li chetda qolib, inson qadrini bir chaqa qilib qo'yadigan xudbinlik, tubanlik so'qmog'ida adashib yurish – odam bolasining nomiga chindan ham isnoddir!

Sharq faylasuflaridan Abulqosim Firdavsiy:

...Agar yerga ursa ota nomini

Kech unday o'g'ildan, dema nomini! –

deyishda u qanchalar haqli edi!

Qarshiboy otasining nominigina emas, o'zini ham yerga urdi. U odam bolasiga, ayniqsa, bugungi yoshlarimiz sha'niga yarashmaydigan xunuk ish qildi.

«Inson vujudi aql bilan munavvar bo'la turib tubanlikka yuz tutsa, odamgarchiligini yo'qotib axloq doirasidan chiqsa – bunga hayratlanish lozim». Ulug' mutafakkir Abu Ali ibn Sino shunday deganlarida, u zoti muborak Qarshiboyga o'xshaganlarni nazarlarida tutgan bo'lishlari kerak. Nachora, Qarshiboy o'ziga qarshi ish qilib qo'ydi. Bir parcha go'sht bo'lib dunyoga kelganidan beri issiq bag'rda isitib o'stirgan otasini sudlashish darajasiga yetkazdi. O'g'il sha'niga bundan ham yomonroq sharmandagarchilik bo'lmasa kerak. Yana u yosh bola emas, yigit bo'lsa, belida belbog'i, bilagida o'nta otani boqa oladigan kuch bo'lsa, otani qariganda parvarishlash zimmasidagi muqaddas burch bo'lsa!

Qarshiboy ana shu odamiylik burchini bajarishdan qochdi! Xo'sh, uni bunchalik nomard bo'lishiga nima majbur qildi?

Sababi ravshan: avvalo, Qarshiboy o'zining qadr-u qimmatini esdan chiqarib qo'ydi. Qolaversa, ota-onadan voz kechish, ota-onani qaqshatish – odam bolasiga yot qiliq ekanini nazariga olmadi.

Biz Qarshiboyni «O'z qadrini bilmaydi», dedik. To'g'ri aytdik. Nimaga desangiz, o'z qadrini bilmagan odam boshqalar

qadrini ham bilmaydi. Bu ko'p yomon narsa. Bunday odam oxiri el orasida badnom bo'ladi, el-yurt nazaridan qoladi. Hamma undan o'zini olib qochadi. Demak, uning o'tayotgan umri bekor, tutgan yo'li noto'g'ri ekan-da?

Ha, rus adibi Nikolay Ostrovskiy: «Inson uchun eng qimmatli narsa hayotdir. Dunyoga u bir marta keladi; kishi shunday yashashi kerakki, samarasiz o'tgan yillariga keyinchalik achinmasin, razil va past o'tmishning uyati yurakni yondirmasin», deb bejiz yozmagan.

Biz yuqorida Qarshiboyning xatti-harakatini qattiq qoraladik – haqlimiz, albatta. Lekin uni to'g'ri yo'lga solib yuborish g'amini yeyapmizmi?

Endi shu haqda gaplashsak. Sharaf – turganni yiqitishdami yo yiqilganni turg'izishdami? Hamma gap shunda. Qarshiboy o'z qilmishlari botqog'iga botib yotibdi. Nima qilaylik, hazrati Abulqosim Firdavsiy aytganlaridek, ota nomini bulg'agan axloqsiz o'g'ildan bir umrga voz kechaylikmi yo muhtaram shoirdan uzr so'rab: «Kechirsinar, hazratim, bizning bobolardan qolgan odamiylik odatimizda «Odamni botib qolgan botqog'ida tashlab ketaverilsin», deyilgan emas. Adashganni to'g'ri yo'lga solish, yiqilganni turg'izish, botganini qutqarish zarurligi qayd etilgan», deyaylikmi? Ha, xuddi shunday deyishimiz kerak. Axir, odam odamga do'st, odam odamga g'amxo'r-ku! Shiorimiz shu bo'lgandan keyin ishtihonlik Qarshiboyni ham, boshqa yerlarda uchrab qolishi ehtimol bo'lgan qarshiboylarni ham to'g'ri yo'lga solib yuborish burchimizdir. Ular, bir kun ko'zlari ochilib, es-hushlarini topib olganlarida: «Attang, shuncha umrim zoye ketibdi-ya! Biron rahnamo topilmaganidan xafaman», deyishmasin.

Farg'onalik Halima Egamberdiyeva ikki akasining ota-onasiga munosabati yomon ekanidan xafa bo'lib yozibdi:

«Akalarim uylanganlaridan keyin ota-onamizni tashlab chiqib ketishdi. Ayb chiqib ketganlarida emas, albatta. Agar o'zlariga yaxshi makon topishgan, yaxshi yashay boshlashgan bo'lishsa biz xursandmiz. Lekin bizni bu narsa emas, boshqa

narsa xafa qiladi. Ikkala akam farzand ko'rganiga, ya'ni o'zlari ham ota bo'lganlariga qaramay, ota-onaning qadriga yetmaydilar. Otam bor edi, onam bor edi, qarib, bizning yordamimizga muhtoj bo'lib qolishgan edi, deb o'ylashmaydi. Shunaqayam bemehr, beoqibat farzand bo'ladimi, axir?!»

Turmush qurmagan yo farzand ko'rmagan yoshlar biron nodonlik orqasida ota-onalarining hurmatlarini joyiga qo'yishmasa, ularni «Farzandlik burchingni o'tamading», deb ayblaymiz. Albatta, bu ishlari yomon, juda yomon. Ammo o'zlari ota yo ona bo'lib qolganlaridan keyin bolalari ko'zida ota-onalarini xo'rlashsa bunga asti chidab bo'lmaydi. Gumrohlikning eng battari-ku bu! Bu xil fe'l badkasr, oqibatsiz ketmaydi. Shuning uchun Halimaxonning g'azabi o'rinli. Beva otasini yolg'iz tashlab qo'ygani uchun andijonlik Sharifjondan qancha xafa bo'lgan bo'lsak, Halimaxonda norozilik uyg'otgan akalarining qiliqlaridan ham qattiq xafa bo'lmay ilojimiz yo'q.

Ota-ona farzand quli, shirin so'z gadosi. Shuning uchun yuqorida yomon qiliqlari qoralab o'tilgan bolalar va ularga o'xshaganlar ota-onalaridan uzr so'rashsa, yo'l qo'ygan xatolarini tuzatishga astoydil kirishishsa, ishonamiz, nomlari havas bilan tilga olingan yaxshi xulqli zamondoshlari qatoridan joy oladilar.

Endi suhbatimizga qadim bir shoirning quyidagi to'rtligi bilan xotima bersak:

*Yasha, o'g'lon, ming yil yasha, davron sur,
Lek volidang qaygusini ye, ogoh yur.
Alar, bilsang, seni degan insonlar,
Seni debon o'zni qilgan qurbonlar!*

Faqat uzr. Andak tahrirga ehtiyoj tug'ilib qoldi. «O'g'lon» so'zi o'rniga «farzand» desag-u buni hamma o'g'il-qizlar qulog'iga baralla eshittirsak.

OTA-ONADAN LOZIMI

Bolalarning ota-onalari oldidagi farzandlik burchlari haqida sira charchamay gapiramiz. To'g'ri qilamiz gapirish kerak. Ba'zi bir nobop bolalarning yomon qiliqlarini, ota-onalarini xo'rlaganliklarini ko'rsak g'azablanamiz. Buni ham to'g'ri qilamiz, g'azablanish kerak. Ammo shunday paytlarda bir adolatsizlikka yo'l qo'yamiz. Bolada paydo bo'lgan yomon xulq-atvorda ota-onaning ham aybi bormi-yo'qmi bu yog'i bilan ishimiz bo'lmaydi. Holbuki, xulq-atvori yomon bolalarning ma'lum qismi, asosan, ota-onaning parvosizligi yoxud yomon tarbiyasi natijasida shunday ayanch ahvolga tushib qoladi. Ba'zi ota-onalar farzandlarining ust-boshlari, qorinlari g'amini yeyishadi-yu, lekin, afsuski, ma'naviy va jismoniy ehtiyojlarini avval bog'chaga, keyin maktabga havola qilib qo'yib, farzand tarbiyasidagi benihoya katta burchlarini bo'yinlaridan soqit qiladilar..

Bola tarbiyasini bulardan ham yomonroq tushunadigan boshqa toifa ota-ona ham bor. Bu xillar bolalarining ma'naviy va jismoniy tarbiyalarigagina emas; hatto oddiy tozaliklariga ham e'tibor bermaydilar. Bolalari burunlari oqib, loylarda bulg'anib yotsalar ham, «Hechqisi yo'q, yerda yumalanib yurib katta bo'lib qolishadi, biz ham chang to'zitib yurib katta bo'lganmiz», deyishadi. Ular toza tanda toza aql bo'lishini esdan chiqaradilar. Haqiqatan ham, bolalar go'daklikdan tozalikka o'rgatilsa, yosh, o'suvchan tanalari yuvilib, parvarish qilib turilsa aqlari ham yaxshi ravnaq topadi, o'zlari ham qo'zichoqlar singari yayrab o'sishadi.

Bolaning kiyimiga qarab onasini biladilar, degan gap bor. Bu juda to'g'ri gap. Bola egnidagi kiyimning tozaligi, benuqsonligi ona nazoratida bo'ladi. O'zligini, onalik qadrini bilgan ona bolasini hech qachon mog'or, kir, yirtiq, tugmasiz, g'ijim kiyimda ko'chaga chiqarmaydi. Onalik sha'niga yomon isnod bu. Agar hozirgi paytda onalar ham otalar singari ijtimoiy xizmatda ekanlarini nazarga olsak, bola kiyimidagi mayda nuqsonda otaning ham aybini onanikidan kam deb bo'lmaydi. Bu masalada ota ham qo'lidan kelganini qilishi mumkin.

Ma'lumki, loyni pishitmay g'isht quymaydilar. Aks holda g'isht yoriladi, qimmat kamayadi yo butunlay ishga yaramay qoladi. Shuning uchun uni oldin rosa pishitadilar. Shunga o'xshash, bolalarni ham ma'lum shakl olgunlaricha ma'naviy jihatdan pishitib borish lozim.

Ma'naviy jihatga esa bolada oq bilan qorani farq qila boshlagan kundan tortib to ongi yuksak pog'onaga ko'tarilguncha yuz bergan butun sifat o'zgarishlari kiradi. Biz bola tarbiyasida ko'pincha shu muhim tomonni esdan chiqarib qo'yamiz. Natijada bolalar gap uqmas, o'zboshimcha, ba'zan xarakterlari yomon bo'lib o'sadilar. Ana o'shanday beparvo ota-onalarga A.S. Makarenkoning «Hozirgi ota-onalar bolalarini tarbiyalash bilan mamlakatimizning kelajak tarixini, binobarin, jahon tarixini tarbiyalaydilar», degan nihoyatda dono so'zini eslatib o'tgimiz keladi.

Masalaga shu nuqtayi nazardan qaralsa, har bir ota-ona o'zining tarix yaratuvchilik rolidan faxrlansa arziydi. Darhaqiqat, tarixda iz qoldirgan yo juda muhim o'rin tutgan ulug' kishilarning bu yuksak mavqega yetishlarida ota-onaning xizmati shubhasizdir. Ana shu shubhasiz sharafiga erishadiganlar bolalarini taqdir ixtiyoriga havola qilib qo'yib, o'z ishlari, o'z maishatlari bilan band bo'ladigan beparvo ota-onalar emas, bolalarini bir parcha go'shtlik chog'laridan tortib aql-idrok, odamiyat yo'liga solib yuborish uchun hech narsasini ayamagan bolajon ota-onalardir.

Esizki, bola tarbiyasini noto'g'ri tushunadigan ota-onalar ancha-muncha topiladi. Ularning nazarlarida bola tarbiyasi

qorinlarini to'ydirish, ust-boshlarini but qilish, es o'rgatishdan iborat, xolos. To'g'ri, bu narsalar ham ota-ona zimmasidagi vazifa. Ammo bola tarbiyasi talab qiladigan katta vazifaning bir uchirig'i, xolos bu. Asosiy vazifa esa – bolani jamiyatga munosib, yetuk odam qilib yetishtirishdadir.

Ota-ona oldiga shunday talab qo'yilganda, ba'zilar o'zlarining bevosita burchlarini uddalariga olishdan qochibmi yo tutayotgan ishlari yanglish ekanini anglamaymi: «Yo'q, hozir bola tarbiyasi faqat maktab zimmasida. Ana shular tarbiya qilishsin, odam qilishsin! Biz ishda bo'lsak, qachon bolamiz orqasidan ko'z-quloq bo'lib yuramiz!» deb to'ng'illashadi.

To'g'ri, bola tarbiyasida maktabning ham o'rni bor. Lekin ijtimoiy ishda ekanini bahona qilib, bola tarbiyasidek sharaflari burchdan qochish, uni bo'yindan soqit qilish yaramaydi. Axir, hozirgi kunda davlat yo jamoat ishi bilan band bo'lmagan kim bor? Insof bilan aytganda, idora yo korxonalarda, dala yo qurilishda o'tadigan xizmat soatimiz boladek aziz jigargo'sha tarbiyasiga aslo xalaqit bermaydi. Ba'zi ota-onalar ana shunday asossiz bahonani ro'kach qilishib, bolalarining yurish-turishlarida, hatto ma'naviy va jismoniy jihatlarida yuz bergan o'zgarishni payqamay qoladilar. Ulardagi shu xil o'zgarishni ko'rib: «Tavba, bu zing'ircha shuncha aqlni qayerdan topdi!» deb yoqalarini ushlaydilar. Buning siri shunda – boladagi ma'naviy va jismoniy o'sish bir xilda ketmaydi, ya'ni ma'naviy yoshlari bilan jismoniy yoshlari baravar taraqqiy etmaydi. Bola jismonan bir necha yil yashagan bo'lsa ham, ma'nani ancha ilgarilab ketadi, ya'ni bola kichik bo'la turib aqli ko'p narsaga yetadigan bo'lib qoladi. Mana shunday aqliy va jismoniy taraqqiyot o'rtasidagi farqni anglamaslik orqasida ba'zi ota-onalar bolalarini jussalariga qarab, hali yosh, aqlari hech nimaga yetmaydi, deb o'ylaydilar-da, bolalari oldida bo'lar-bo'lmas gapni og'izlariga olaveradilar. Dunyoning oq-u qorasini tushunmagan bola uchun yaxshi gap ham, yomon gap ham yangilikdir. U bunisini ham, unisini ham baravar hazm qilaveradi.

Yaxshi gap quloqqa moydek yoqib o'tadi. Yaxshi gapni aytgan kishida ham, eshitgan kishida ham uncha ruhiy o'zgarish sodir bo'lmaydi. Yomon gapning esa yo'rig'i boshqa. Aytgan ham, eshitgan ham hayajonga tushadi, ko'zlari olayadi, yuzlari qiyshayadi. Bir yo bir necha og'iz yomon gapning alg'ovdalg'ovi bolada vahm, qo'rqishdan ko'ra ko'proq qiziqish uyg'otadi. Yomon gap bilan odamlarni hayajonlantirish mumkin ekan, degan qanoatga keladi-yu, yomon so'zni avval o'yin qilib, keyin esa odat qilib oladi. Shuning uchun bolani yosh, aqli hech nimaga yetmaydi, deb o'ylash – bolaning har kun emas, har soat o'sishini, kecha aqli yetmagan narsaga bugun aqli yetib qolgan bo'lishi mumkinligini pisand qilmaslik degan so'zdir.

Mana shu yerda Lev Tolstoyning o'z xotira daftariga yozib qo'ygan bir hikmatli gapi esga tushadi. «Bolalar – yomonlikni katta qilib ko'rsatadigan oynadir», debdilar. Haqiqatan ham, bolalar oldida qilingan pashshadek yomonlik ularning ko'ziga tuyadek bo'lib ko'rinadi. Shuning uchun ota-ona bolalari oldida o'zlarini har qanday past-baland gapdan, ayniqsa, bolalar axloqiga yomon ta'sir qiladigan bemaza qiliqlardan qattiq saqlanishi kerak.

Har kim ekanini o'radi: bug'doy ekan – bug'doy, arpa ekan – arpa. Bola ham ota-onasidan olgan tarbiyasiga qarab o'sadi. Ba'zi ota-onalar tarbiyaning mana shu qaltis tomonini esdan chiqarib, parvolari falak bo'lib yuraveradilar. Bir vaqt qarasalarki, bolalari bezori, o'qish-yurishlari yomon! «Iya, binoyidek bola edi, nima jin urdi?» – deb hayron bo'ladilar.

Mana shu yerda bitta misolimiz bor.

Toshkent shahrining militsiya bo'limiga qarashli bolalar xonasiga Jenya degan bir o'g'il bola keltirildi. U hali go'dak – ikkinchi sinfdan o'qir edi. Hayotda tajribasiz, oq-u qoraning farqiga bormaydi. Lekin yomon ish qilib qo'ydi. Magazin oynasini sindirib kirib, bir pachka shokoladni olib chiqib ketayotganida qo'lga tushdi.

«Shirinlik yegisi kelib, bolalik qilgandir-da», deyarsiz. Yo'q, hamma bola ham bunaqa bema'nilik qilmaydi. Jenya magazinga oynani sindirib kirish – shunchaki nodonlik emas,

hatto oddiy bezorilik ham emas, ko'p yomon jinoyat ekanini tushunmagan. Mana shu yerda bir savol tug'iladi: ayb boshida ota-onasi bo'laturib shunday yomon ish qilgan boladami yo bolasining shu ahvolga tushishidan bexabar qolgan ota-onadami?

Mana shu savolga javob olish uchun bolalar xonasining boshlig'i Jenyaning otasini suhbatga chaqirdi. U bolasining militsiya idorasida ekanini eshitib darhol yetib keldi. Lekin bolasining qilmishi uni qizartirmadi, aksincha, nash'a qilgan kishiday, xaxolab kuldi.

– E, bor bo'linglar! Shunga ham ota go'ri – qozixonami! Bolalik qilibdi-da. Xo'p, endi qilmaydi! – dedi beg'am ota.

Shu ham javob bo'ldi-yu! Bolasini bu yomon qilmishi uchun koyish, o'zini beparvo qolganidan qoralash o'rniga bolasini ham, o'zini ham oppoq qilib ko'rsatishga tirishdi. Ko'p yomon ahmoqchilik qilgan bola oldida uning shu qilmishini har xil bahonalar bilan oqlash o'sha ahmoqchilikni qo'llab-quvvatlash bo'lardi. Bunday ko'r-ko'rona himoyaning oqibati bolani xarob qilib qo'yishi mumkin. Bola otasining ana shunday nohaq himoyasidan havolanadi, baribir, otam qutqazib oladi, deb eng yomon xulq-atvordan ham toymaydigan bo'ladi. Shu sababli bu ayanchli hodisada boladan ko'ra ota-ona ko'proq aybdor ekani ko'rinib turibdi.

Yana bir misol. Tuzukkina amalda ishlab kelayotgan o'rtoq M. bebosh bolasining tarbiyasiga butunlay bosh qo'shmay qo'yibdi. Uning o'g'li Toshkent maktablaridan birida o'qiydi. Yo'q, o'quvchi nomi ostida bezorilik qilib yuradi. Uning das-tidan dod demagan bola, hurmati yerga urilmagan muallim qolmadi. Maktab ma'muriyati, o'qituvchilar jamoasi uni in-sofga keltirolmaganlaridan keyin yordam so'rab otasini suhbatga chaqirishdi. Bir emas, bir necha marta qattiq iltimos bilan chaqirishdi. Bola bu orada quyilish o'rniga beshbattar suyilib, maktabini isnodga qoldirish darajasiga yetib bordi. Shundan keyin militsiya bo'limining bolalar xonasi rahbarlari bolaning otasini o'z huzurlariga chaqirishga majbur bo'ldilar. Ammo beparvo ota vaqti yo'qligini bahona qilib kelmadi.

Balki, o'g'lining xulq-atvorini ma'qullagani yo bola tarbiyasi bilan shug'ullanishni o'ziga ortiqcha yuk deb bilgani uchun kelmagandir?

Buning sababi nimada bo'lsa bo'lsin, lekin yomon yo'lga tushib qolgan bolaning otasi shunday kezlarda xotirjam bo'lib qolmasligi, bolasini qutqarish yo'lida o't bo'lsa ham qaytmasligi kerak edi. Afsuski, o'rtoq M. otalik sha'niga dog' tushirib, bola tarbiyasida o'zini tomoshabin qilib qo'ydi.

Biz bolalarining taqdirlari qiziqtirmaydigan ba'zi bemehr otalarni misol keltirdik. Endi ota-onalik mehrini me'yoridan oshirib yuborib, bolani erka, arzanda qilib qo'yish oqibati haqida bir misol keltirmoqchimiz.

Bir nuroniy otaxonning yakka-yu yagona o'g'li Toshkentda o'qib yurib, bir qizni yaxshi ko'rib qoldi. Qiz ham mayli bilan yigit ishqiga olov qalar edi. Ko'p o'tmay, ikki yosh bir-biriga oshiq-ma'shuq bo'ldi. Qizning ota-onasi ham og'izlaridan bol tomozishib, yigitni kuyovlikka qabul qildi. Lekin bitta shart bilan, «to'yona» qilib ikki yarim ming so'm keltirib bersa...

Ha, rost gap bu! Siz bu gapni eshitib ajablandingiz, men ham boshda siz singari ajablangan edim, lekin «to'yona»ning asl ma'nosini bilganimdan keyin g'azablandim. To'yona nomi bilan «qalin so'rayotgan» bu uyatsiz ota-onani siz bilmaysiz, shuning uchun ularni zamonamizning barmoq bilan sanaladigan qoloq fikrli odamlari, deb o'ylaysiz. Yo'q, aslo undaylardan emas. Qizning ota-onasi jamiyat havozasining ancha baland pog'onasida turadigan, oq-u qorani yaxshigina tushunadigan peshqadam odamlardan edi. Har holda jamoat ko'zida shunday edi. Ularni nima jin urdi? Qizi bilan bir yostiqqa bosh qo'yadigan, ertaga o'zlari ham «kuyovbolam» deb ataydigan yaqin kishidan qalin so'rashsa-ya! Axir, bu ota-ona qadrini, inson sha'nini yerga uradigan ko'p yomon sharmandalik-ku! Bu pastkashlikni ko'rgan yo eshitgan kishi qanday qilib g'azablanmasin?!

Yigitning otasi xuddi shunday ahvolga tushdi. O'g'li ko'tarib kelgan gapga u avval ishonmadi, ishongandan keyin esa nima qilishini bilmay qoldi. Uy-joyini sotib «to'yona»ni to'la

bersinmi yo ilinib qolgan tuzog'idan o'g'lini qutqarsinmi? U keyingisini qildi. Ikki yarim ming so'm tamasi bilan kelgan o'g'lini «to'yona»siz qaytardi. Bu to'g'ri muomala qizning ota-onasiga yoqmadi. Ular «hap senimi!» deb ko'ngillariga tugib qo'yishdi. Yigitning otasi boshqa yo'l tutdi.

U xotini bilan maslahatlashib yashab turgan shahridagi hovlisining yarmini sotdi-yu, o'g'li bilan bo'lg'usi kelinga Toshkentdan baholi qudrat boshpana sotib olib berdi. Ammo qizning ota-onasiga yoshlar uchun boshpana emas, nafsi balolari uchun ikki yarim ming so'm kerak edi. Ular ochiqdan ochiq shuni talab qilishdi. Yigitning otasi inson nomiga isnod keltiruvchi bu jon savdosiga tish-tirnog'i bilan qarshi turdi.

– O'g'lim bilan kelinimga boshpana kerak edi, olib berdim. Buning ustiga yana qalin talab qilish uyat emasmi? – dedi yigitning otasi xit bo'lib.

Qizning ota-onasi do'q-po'pisaga, muttahamlikka o'tdi.

– Agar so'ragan narsamizni bermasang, o'g'lingni ham, o'zingni ham qamatib yuboramiz! Yaxshilikcha ber, bo'lmasa turmada chiriysanlar! – deyishdi.

Yigitning otasi bu gapni qo'rqitish uchun aytilgan shunchaki bir do'q deb o'yladi. Darhaqiqat, do'qdan boshqa narsa bo'lishi mumkin emas edi. Axir, to'yona bermagan kishi qamalsin degan qonun yo'q-ku bizning jamiyatimizda! Shuning uchun u qudalarining tuzog'iga yana ilinmadi.

– Yo'q, do'q-po'pisa bilan ish bitmaydi, quda, – dedi u. – Keling, o'rta pul g'ovini tashlab qo'yib, yoshlarni sarg'aytirmaylik. Yigit tomonidan bo'ladigan to'y xarajatini men ko'taray, qiz tomonnikini sizlar ko'taringlar.

Qudachaning jon-poni chiqib ketdi. U yonida o'tirgan eriga qichqirdi:

– Qizingizni suvtekin olib ketishmoqchi, gapirsangiz-chi lallayib o'tirmay! Yo'q, siz bersangiz ham men bermayman qizimni! – dedi noinsof ona.

Xotining shang'isi qudani o'dag'aylantirib yubordi. U, xuddi tutib uradigan kishidek, qudasiga o'shqirdi:

– Hali shunaqami?

Yigitning otasi o‘zini bosdi. Muloyim tovush bilan beozorgina qilib:

Hozir taomil shu, jon quda, – dedi.

Taomil! Taomil! Bo‘ldi, senlarga beradigan qizimiz yo‘q!

Gap shu bilan bitdi. Yigitning otasi xomush chiqib ketdi. Oradan ikki kun o‘tmay, yigit tuhmatga uchradi. Yigitning otasi bolasini quruq tuhmatdan qutqarish uchun boshini har yonga urdi – bo‘lmadi. Axiyri «qudalar»nikiga boshini egib bordi. Qizning ota-onasiga shu kerak edi.

Nodon odam ekansiz, to‘y xarajatini siz o‘zingiz qildingiz nima-yu biz qildik nima. Pulni cho‘zavering! – deyishdi.

Yigitning otasi o‘g‘liga ham, bo‘lg‘usi keliniga ham achindi. Ular ne-ne umid bilan qurmoqchi bo‘lgan baxt uylari buzilish xavfida edi. «Shu baloxo‘r ota-onaning og‘ziga pul bilan ursam, bolalarning baxti saqlanib qolarmikan», dedi-yu, yigitning otasi oshna-og‘aynilaridan ming so‘m ko‘tarib kelib qudalariga berdi.

Yigit tuhmatdan qutuldi. To‘y bo‘ldi. Ammo to‘y o‘tar-o‘tmas, qudalar qolgan bir yarim ming so‘mni talab qila boshladilar. Orada qattiq janjal chiqdi. Qizning onasi kelib qildi to‘polon, qildi to‘polon! «Qarzingni to‘lamaydigan bo‘lsang, mana senga!» deb yangi uyning yaqinda solingan deraza oynalarini bitta qo‘ymay sindirdi. Nodon xotin qizidan, kuyovbolasidan uyalmay qudasini ko‘p behurmat qildi. Qizini ham qayrab, janjalga soldi. Shu ota-onaning tarbiyasini olgan, shu ota-onasiga o‘xshab qolgan qiz birdan o‘zgardi. Endi u ham qaynatasiga qarshi choponini teskari kiyib oldi. Oxirida «kelin» qaynatasini uyidan haydadi. Bechora chol, «Men ketsam, o‘g‘limning qulog‘i tinchirmikan», deb uydan chamadonlarini ko‘tarib chiqib ketayotganida «kelin» yo‘lini to‘sdi:

– Qarzingni to‘lab ket, muttaham! Bo‘lmasa, bu yerdan o‘liging chiqadi! – dedi u onasidan o‘rgangan besharmlik bilan.

Qaynata o‘zini xoksorlikka solib bo‘lsa ham chiqib ketmoqchi bo‘ldi. «Kelin» qaynatasining ko‘zi aralash burniga

musht tushirdi. Cholning burnidan sharillab qon ketdi. Iyagi, ust-boshi qip-qizil qon bo'ldi. Ammo shunda ham u bir nima demadi. Alamini ichiga yutib chiqib ketdi.

Biz keltirgan misol – zamonamiz kishilari tomonidan al-laqachonlar la'nat tamg'asi bosilgan qora o'tmishning qora dog'laridan biridir. Beorlikning bu xil sarqiti qayerda, qanday vaziyatda zuhur etmasin, biz bundan qattiq nafratlana-miz. Shu uchun bu yaramas hodisaning boshqa tomonlarini qalamga olib o'tirmadik. Nuroniy ota boshiga tushgan katta baxtsizlikning shu kichkina laxtagining o'ziyoq nafs balola-rini bolalarining baxtlaridan yuqori qo'ygan xudbin ota-onalar bola tarbiyasida juda katta xatoga yo'l qo'yayotganlarini ko'rsatadi.

Biz besharm «kelin» qilg'ini ko'rib: «Tavba, bunday beta-yin yoshlar qayerda yetishgan-u qayerda tarbiya olishgan?» deb yoqamizni ushlaymiz. Bunday yaramas xulq-atvorni o'qigan maktablarida yo ishlab turgan jamoalarida orttirgan emaslar, albatta. Yuqoridagi misolimizdan ham ko'rinib turibdiki, ular bunaqa yomon qiliqni, buzuq odobni bola tarbiyasining nima ekanini tushunmagan ba'zi farosatsiz ota-onalari bag'rida ort-tiradilar. Ming afsus, ana o'shanday farosatsiz ota-onalar far-zandlarini baxtli qilaman, deb baxtsiz qilayotganlarini angla-maydilar. Shuning uchun bolalarini birdan bir baxt manbayi bo'lgan mehnatga, sadoqatga, halollikka, vafoga, turmushning og'ir-yengilliklariga ko'niktirish, o'rgatish o'rniga qo'llarini sovuq suvga urdirmay papalaydilar, ularni shirin oila qurishga yaroqsiz qilib o'stirayotganlarini payqamaydilar, demak, muhit talabini yo tushunmaydilar, yoki pisand qilmaydilar. Kalta o'ylaydigan mana shu xil ota-onalar o'zlari ham bilmasdan bolalariga jabr qilib qo'yadilar. Har qanday martabaga halol mehnat bilan, har qanday yaxshi fazilatga zahmat bilan erishi-ladi. Bunday narsalar hech qachon ota-onadan farzandga meros bo'lib qolmaydi. Farzand o'z martabasini halol mehnati bilan, odamiylik fazilati bilan, jamiyat ishiga jonkuyarligi bilan, kat-talarga beg'araz hurmati, kichiklarga oliyjanob shafqati bilan,

vataniga, xalqiga gardsiz sadoqati bilan topadi. Ota-onalar shu haqiqatni tushunishlari, o'g'il-qizlarini biz yuqorida misol qilib keltirgan «kelin»ga o'xshatib qo'yishdan saqlanishlari kerak. Chunki oila ishini yolchitmagan kishi jamiyat ishini ham yolchitmaydi. Go'dakliklaridan ota-ona tarbiyasini ko'rma-gan kishi tor inida o'rgangan dag'alliklarini, kekkayishlarini jamoada ham qo'ymaydi. Natijada u hammaning nazaridan qoladi, badnom bo'ladi. Xo'sh, bunda kim aybdor? Bu xil odamlar yomon xulq-atvorni qayerdan oladilar?

Ochig'ini aytganda, bular burunlarini ko'targan ba'zi oilalarda, turmushning past-balandini ko'rmay, tirikchilik chig'irig'idan o'tmay o'sgan «arzanda»lardir. Bularning ota-onalari esa amal va martabalari bilan dimog'lari shishib bolalarini tarbiyalashga vaqt topolmay qolgan lattatabiat kishilardir. Katta maoshga tayanib yashaydigan bu xil oilalarda, afsuski, bolalar hayot qadriga ko'pincha yetmaydilar. Ular ota-onalarining ancha-muncha narsani mensimaganliklarini ko'rib, turmushni oson deb o'ylay boshlaydilar.

Bunday ota-onalar bolalari ko'zida pulning qadrini oshirish o'rniga uni shartta-shurtta sarf qilib qimmatini tushiradilar. Ular bolalarni pulga o'rgatish ko'p yomon narsa ekanini anglamaydilar-da, arzandalarining cho'ntaklariga «mayda xarajatlar» uchun katta-katta pullar solib qo'yadilar. Bola ham bemehnat, betashvish cho'ntakka kirgan pulni hech ayamay sovradi, chunki ota-onasi yana berishini biladi. Bu narsa aqli tinmagan bolani mehnat qilmay ham yashash mumkin ekan, degan g'oyat xatarli tushunchaga olib keladi. Oqibatda, bola ishga bo'yni yor bermaydigan, tayyorga ayyor bo'lib yashaydigan chinakam tekinoxor bo'lib o'sadi.

Ota-onadagi lattafahmlikning kasri shu bilan tugasa — bu ham bir sho'r. Ammo bu sho'r fojiaga aylanishi mumkin. Ota-onalaridan oladigan mo'may-mo'may pullarni o'zlarining ma'naviy ravnaqlari uchun zarur bo'lgan foydali narsalarga emas, harom-xarish ishlarga, havoyi maishatlarga, bachkana kiyim-kechaklarga sarf qilib o'rganib qolgan bu xil bolalar

ota-onalarining moddiy e'tiborlari sal susaydi deguncha jamiyat qonunlarini buzishdan ham toymaydilar. Oqibatda, ota-onaning noto'g'ri «tarbiyasi»ning qurboni bo'lib, jinoyatchilarga aylanadilar. Bu – bola tarbiyasining noto'g'ri yo'li.

Halol mehnat bilan hayot kechiradigan oilalarda esa bola tarbiyasi butunlay boshqacha. Bularda bolalar mushtdayliklaridan turmush tashvishlariga o'rganadilar. Chunki peshana teri bilan topilgan pulning har bir tiyini ota-onalari tejab-tergab sarf qilganlarini ko'rib, ko'zlari pishib boradi. Bunday oilalarda tirikchilik ehtiyojlariga so'mlab emas, tiyinlab sarf qilinadi.

Bolalar ham so'mlarni emas, tiyinlarni ko'radilar. Shuning uchun ular tiyin qadriga, shu tiyinni topib kelgan ota-ona mehnatining qadriga yetadilar. Bu – bola tarbiyasining to'g'ri yo'li.

Yosh bola nima-yu yumshoq mum nima. Mumdan xohlagan shaklingizni yasay bilasiz. Shunga o'xshash, bolani ham yoshligida istagan yo'lingizga solishingiz mumkin. Bola yaxshi bilan yomonni kattalardek ravshan farq qilmaydi. Shuning uchun ham yomon narsa qilayotganida ichidan ezilmaydi, qilayotgan narsasi yomonligi hatto parvoyiga ham kelmaydi. Agar vaqtida yomon qiliqlardan tortib, yaxshi xulq yo'lga solib yuborilsa, bolada yomon narsadan qochib, yaxshi narsaga intilish hissi kuchayadi. Bu his bora-bora uni o'z hukmiga oladi.

Endi yuqoridagi savollarga javob beraylik. Albatta, u kishining shunaqa dag'al, badfe'l bo'lib qolishiga eng avval ota-onasi aybdor. Uni bolalik chog'laridan to'g'ri yo'lga solish harakatida bo'lmaganlar, yomon xulq-atvordan vaqtida saqlamaganlar. Xulosa qilib aytganda, ota-onaning eng zarur, eng muhim vazifasi – bolalarini yoshlikdan mehnatda toblash, suyaklarini mehnat bilan qotirish, mehnat bilan topilgan moddiy boylikni qadrlashga o'rgatish, uyda ham, jamoa orasida ham bir xilda jonbozlik ko'rsatadigan qilib tarbiyalashdir.

Yuqoridagi satrlar jamiyat havozasining baland pog'onalaridan birida turib, bola tarbiyasini unutib qo'ygan ba'zi par-

vosiz ota-onadan shikoyatimiz edi. Endi ana o'shanday baland havozada turib ham bola tarbiyasini, o'zligini unutmagan asil insonlar haqida hikoyamiz bor.

Hurmatli Akmal Ikromovning sevimli nomini yo shonli ishini eshitmagan kishi kam bo'lsa kerak respublikamizda. Bu toza qalb, toza vijdon egasi ish joyida ham, oila davrasida ham o'zini hamma vaqt bir xil tutar, bolalarini ham o'ziga o'xshash sodda, mehnatkash, halol, sof vijdon kishisi bo'lib yetilishga o'rgatar edi. Akmal akaning o'g'li Urgut Ikromov ota tarbiyasini eslab yozadi:

«O'ttizinchi yillarning boshida mamlakatimizda ahvol og'ir edi. O'zbekistonda ham oziq-ovqat yetishmasdi. O'shanda biz ham to'yib ovqat yeyolmasdik. Bir kuni nima bo'ldi-yu, uyimizda jiz-biz – ma'mur bo'lib qoldi. Ikki kungacha otam hayron bo'lib, uy bekamizning shirin taomini maqtab yurdi. So'ng qo'qqisdan ovqat mahalida so'rab qoldi:

– Bularni qayoqdan olyapsiz?

– Daladan, yordamchi xo'jaliklaringizdan keltirib berishyapti, – dedi Liza opa. – Axir, qachongacha to'yib-to'ymay o'tiramiz, o'rtoq Ikromov?

Otam qattiq tegdi:

– Ikkilamchi bunaqa qilmang. O'sha yordamchi xo'jalik mudiriga aytib qo'ying – bunaqa ish uchun partiyadan haydashadi!

O'sha ocharchilik yillarida otam hatto biz farzandlariga ham qattiq qo'l edi. Har yil yozda meni oddiy bolalar oromgohiga jo'natishardi. Bolalar sanatoriylariga yoki boshqa joylarga yuborishi mumkin edi-yu, lekin har doim: «Hamma bola qanaqa bo'lsa, o'shanaqasiz», «Sizlarning ortib ketgan joyingiz yo'q», «Arzanda bo'lish kerak emas», deyardi...

Otam bizning o'qishimizga har vaqt ko'z-quloq bo'lib turardi. Nimani o'qiyotganimizni surishtirardi, o'zi bilan kino-teatrlarga olib borardi... Kiyim-kechakning ham yaxshisini kiydirmasdi. O'ziga o'xshash sodda kiyinishni talab etardi. Esimda, ukamga uzun, rostmana shim olib berishdi. Ukam bi-

ram suyundiki! O'sha kuniyoq devorga osilib, tizzasini yirtib oldi. Keyin ana shu tizzasi yamoq shimni to tor kelib qolguncha kiyib yurdi...

Hammamiz yoshlikdan mehnatga o'rgatildik. Ko'p o'qish-yozishdan tashqari, jismoniy mehnat bilan ham mashg'ul bo'lardik. Hovlimizdagi sabzavotlarni, ko'chat taglarini chopardik, o'tin yorardik, ishqilib, uy ishlarining hammasini o'zimiz eplardik. Paxta bo'lmay qolgan yili (sovuq erta tushgan edi) Toshkentdagi hamma xonadonlar singari biznikida ham ko'sak chuyilgan. Hammamiz oldimizda uyilgan ko'sak atrofida o'tirib olib chuvir, paxtasini quritib topshirar edik. Har yili ipak qurti olib, hovlimizdagi ulkan tut bargi bilan boqardik. Bu ishlar biz bolalarning vazifamiz edi...»

Yuqorida o'qiganingiz satrlar yaqin o'tmish voqealarini ko'z oldimizga keltirsa ham, lekin tarovati bilan hozirgi kuni-miz talabiday jaranglaydi. Biz ana shunday jarangni Turg'un ota misolida ko'ramiz.

Bu tabarruk keksaning umri xalq xizmatida halol mehnat bilan o'tayotir. Keksayib shaxsiy pensiyaga chiqsalar ham, o'zlarini hamon el xizmatidan tortmaydilar. O'z bolalarigagina emas, mahallalaridagi yosh-yalanglarga ham otaxonlik qiladilar. Ana shu tabarruk chol katta o'g'il qizlarini uy-joylik qildi-yu, Kenjasiga kelganda ipning uchini uzun tashlab qo'ydi. Tashqaridan qaraganda kishiga yana bitta kelin ko'rish malol kelayotgandek tuyulishi mumkin edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xotini: «O'g'limizni uylantirib qo'yaylik, yosh umri o'tib ketyapti», deb bir necha bor g'idi-bidi ham qildi. Turg'un ota esa har g'idi-bidida: «Xotin olish qochmaydi, oldin o'qib, biron ixtisos egasi bo'lib olsun, keyin», deb qo'ya qoladi. Shuning uchun Kenjamiz ko'ngliga yoqqanini o'zi topar debmi, ona ham qiz qidirmadi. Nihoyat, Kenja oliy maktabni bitirib, injener bo'lib chiqdi. Ana shundan keyin ota ham, ona ham, Kenjaning o'zi ham harakatga keldi. Ona o'g'lidan tanlagan qizi bormi-yo'qligini so'ragan edi, u bir professorning qizi bilan yaqinligini, agar qiz rozi bo'lsa, o'shanga uylanish mayli

borligini aytdi. Onasi: «A-a?» – dedi-yu, o'ylanib ketdi. Uning sachraydigan, bolalariga baqiradigan odati yo'q edi. O'g'li onasining mehr yog'ilib turgan issiq yuzidan ko'zlarini uzmay o'tirardi. Oxirida ona sekin gap boshladi:

– Professorning qizi, deysan, qanaqa bo'larkin, bolam? Ro'zg'or ishlariga uquvi bormikin, surishtirdingmi?

Kenja bilmas edi, shuning uchun yelkasini qisib:

– Qaydam, oyi, – dedi. Keyin kulimsirab hazillashdi: – Uquvi bo'lmasa o'rgatasiz-da, oyijon. Katta kelinlaringizni ham bolam-bo'tam deb yurib yo'lga solib oldingiz-ku.

Ona yana o'ylanib ketdi: «Katta kelinlarim baland oxurdan yem yegan kattalarning qizlari emas edi. Bu professorning qizi bo'lsa... Katta martabali kishilar uy ishlarini xizmatkor solib qildiradi, deyishadi. Xizmatkor bor uyda arzanda qiz qo'lini sovuq suvga urarmidi?...»

Bu o'y onaning yuragini o'ynatib yubordi. Ko'ngliga kelgan gapni juda ehtiyotlik bilan o'g'liga aytdi:

– Kelinchak degan supurgi ushlashni bilmay yo supurgi ushlashdan or qilib, axlatga belanib o'tirsa, uyat-da, jon bolam. Shunaqa kelinchaklar yo'q emas, bor. Qozon osishni bilishmaydi, qaynanasi pishirib bersa yeyishadi, mabodo qaynanasi bo'lmasa-chi? Erlari ishdan kelib pishirib berishlari kerakmi? Professorning qizi ham o'shanaqa tayyorxo'rlardan bo'lsa-chi?

Kenja, chindan ham, qizning qanaqaligini bilmas edi, shuning uchun bir nima demadi.

Ona ko'ngliga kelgan gumonidan choliga yorilgan edi, u kishi «soddasiz-da», deganday qilib kuldi.

Professor bo'lsa nima? U ham sizni bizga o'xshagan odammi? Odam. Shundog' bo'lgandan keyin odamlik shartini unutib qo'ymagandir?

Xotini yelkasini qisdi.

– Qaydam.

– Yo'q, onasi, qaydam-paydam demang. Ko'ngilni to'q tutavering. Ha, agar professorlikka yetgan bo'lsa, bilasiz, bu kichkina martaba emas, halol mehnat bilan yetgandir? Ha-da

El yurgan to'g'ri yo'ldan yurgani uchunki shu maqomga erishibdi, ha, bolalari ham o'ziga o'xshagan boodob, mehnatkash, odamiyatli deyavering. O'zi undog' bo'lsa-yu, bolasi bundog' bo'lsa, unaqa odamga sadqayi professorlik!

Xotini mulzam bo'lgan kishidek jim bo'lib qoldi. Turg'un ota xotinining fe'lini yaxshi bilardi. Demak, xotini nimadandir norozi.

– Ko'nglingiz to'lmadi-a gapimdan, onasi? – dedi Turg'un ota, xotinining ko'nglidagini bilmoqchi bo'lib.

Xotini asta boshini ko'tardi.

– Nimaga? Gapingiz to'g'ri. Lekin anavi buxorolikka tushgan kelinning qilig'i meni cho'chityapti. Eshitgandirsiz, u ham bir kattakon olimning qizi emish.

Turg'un otaning jahli chiqdi.

– Qizini shunday betamiz qilib qo'ygan otaning olimligiga voy, ha! Asil olim bo'lsa-chi, qizi qaynatasini quvib chiqarsa bir chekkada tomoshabin bo'lib turmas edi.

Hayf olimlig-e!

– Shuni aytaman-da, dadasi, – dedi kampir kuyinib. Turg'un ota jahldan tushish uchunmi, uzoq jim o'tirdi. Keyin uzr so'rayotgandek, xotiniga qarab jilmaydi.

– Yo'q, xavotir qilmang, onasi. Kenjangiz topgan qizning otasini men yaxshi bilaman. To'g'ri, juda katta olim. Shahrimizda to'rtta katta olim bo'lsa, u kishi bittasi. Ammo asil odam, qo'rqmang, harakatingizni qilavering, – dedi Turg'un ota o'rnidan turib.

Shu-shu to'y o'tdi, professorning qizi binoyidek kelin bo'ldi. Qaynanasining qo'lidan ishini oldi, uy ichlarini yog' tushsa yalaydigan qilib toza tutdi, idish tovoqlarni vaqtida yuvdi, hamma ishni bir zumda saranjomlab qo'ydi. Kenjaning onasiga shundog' jon kirdi-qoldi. Kimni ko'rsa, qayerda bo'lsa kelinini maqtaydi:

– Professor qudamdan aylanay! Qiz tarbiyalamabdi, huri tarbiyalabdi. Qani endi falonchi olimning qiziman, falon maktabni bitirganman, falon yerda ishlayman, deb dimog' qilsa! Yo'q, oy desa – oy, kun desa – kun!

Kenjaning onasi kelinini mana shu taqlid boshiga ko'taradi. Demak, kelin professorning taltaygan qizi bo'lib qolmagan, aksincha, *baland martabada turib ham odamshavandalikni unutmagan ota-onasidan chiroyli axloqni, mehnatsevarlikni, odamlarga odamlarcha muomala tariqini o'rganib kelibdi.*

Mana shu yerda bitta savol tug'iladi:

– Farzandi ana shunday boodob, odamshavanda kelin yo kuyov bo'lib yetilishi uchun ota-ona, albatta, olim bo'lishi shartmi?

Yo'q, shart emas. Ammo ota-ona farzand tarbiyasini o'zining zimmasidagi muqaddas burch deb biladigan ongli murabbiy bo'lishi shart. Bu masalada ota-ona qanchalik sinchkov, qanchalik o'tkir bo'lsa, farzandlari ham shunchalik odamshavanda, shunchalik zarshunos bo'lib yetiladilar.

Bola ham kattalar singari shirin so'z gadosi. Shirin so'z bilan bola ichida yashiriqliq hamma narsani bilib olish mumkin. Bu esa bola ham kattalarga o'xshash hurmattalab degan so'z. Hurmat bilan qilinadigan munosabat bolada ishonch, ochiq gapga mayl tug'diradi. U yuragida paydo bo'lgan har qanday havasni yashirmay aytadi. Havasi yaxshi bo'lsa – ota-onasidan madad oladi, yomon bo'lsa – tushuntirishgandan keyin qaytadi.

Bordi-yu, bola ko'nglining nozikligini qadr qilmay qo'pol muomala etdik? Unda bola o'jarlik qobig'iga kirib berkinadi. Zo'rlasangiz ham ko'nglidagini aytmaydi, aytadigan gapi «o'zim»dan nariga o'tmaydi. Har qancha urinsak ham, bu «o'zim» tagida nima ma'no borligini bilolmaymiz. Bu hol uning ko'ngliga qarab ish tutish imkonidan bizni mahrum etadi. Oqibatda, biz bolani qiziqtirgan yo bezdirgan narsadan bexabar qolamiz.

Ota-onadan lozimi esa yumshoq muomala bilan bola ko'ngliga yo'l topish, uning yurish-turishiga durustroq zehn solish edi. Ko'pincha biz bunday qilmaymiz. Yo beparvo qolamiz, yo qo'pol muomala qilamiz. Bir vaqt qarasakki, bola bo'laricha bo'lib bo'pti. Yaxshi bo'lsa-ku – xayr, yomon bo'lsa

sochimizni yulib, nima qilarimizni bilmay, nuqul bolani koyiymiz, sen unaqa, sen bunaqa deymiz, hatto uni haqorat qilishdan ham toymaymiz. Insof bilan aytganda, bu ahvol bizning hushyor, tadbirkor ota-ona emasligimizni bildiradi.

To'g'ri-da, bola xulqi – achigan qatiq emas, o'z-o'zidan buzilmaydi. U yomon qiliqni ko'chadan, beodob bolalardan o'rganadi. Bunda yana ota-ona aybdor. Shuning uchun aybdorki, bola tarbiyasida maktab, oila va muhit bilan bir qatorda ko'chani ham ahamiyati kattaligini esdan chiqaradilar. Holbuki, bola maktabda – muallimlari, uyda – ota-onalari nazoratida bo'lsa, ko'chada – o'z ixtiyorida bo'ladi. Shuning uchun bola tarbiyasida ko'cha axloqi naqadar muhimligini ota-onalar nazarlaridan qochirmasliklari kerak, aks holda...

Sobir aka o'g'lining yerda yurishiga ko'ngli bo'lmay, uni boshida ko'tarib yuradi. Bu narsa erkatoiy bolani havolantirmay qo'ymaydi. Shuning oqibati bo'lsa kerak, u ko'ngliga nimaiki kelsa qiladi – yaxshi narsa bo'lsa ham, yomon narsa bo'lsa ham o'ylab o'tirmaydi. Yaxshi narsa qilsa-ku durust, barakallo, de-yish kerak, yomon narsa qilsa-chi?

Sobir aka tergovchi xonasining eshigi yonidagi stulda mulzam bo'lib o'tiribdi. Miyasiga biridan biri vahimali o'ylar keladi. «Tergovchining dovdiratib qo'yuvchi savollariga qanday javob berar ekanman», deb vahm yeydi. Shu ezilib o'tirishda o'g'lining hamma sho'xliklari, hatto yomon xulqlari ko'z o'ngidan bir-bir o'tdi. Ilgari o'g'li to's-to'poloni bilan osmonni boshiga kiyib yurgan paytlari, Sobir aka hech qachon bunaqa o'ylarga berilmagan edi. Agar qo'shnilaridan birontasi:

Sobir aka, G'ofirjonningizni tiyib qo'ysangiz, bolamni urib, og'zi-burnini qon qilib yuboribdi, – desa, u aslo pinagini buzmay:

Ursa nima qilibdi! Yosh bola, urishadi, yarashadi, shunga ham ota go'ri – qozixonami! Boring, o'g'ling unaqa, o'g'ling bunaqa, deb hadeb menga ko'z yoshi qilib kelavermang. Ha, o'g'lingizga aytib qo'ying: kaltak yegisi kelmasa G'ofirjonning jig'iga tegavermasin! – deyar edi.

Eng yomoni shu ediki, u bu nohaq gapni o'g'lidan xilvatda emas, o'g'lining oldida aytardi. G'ofirjon bundan havolanar; ko'chada o'zidan kichikni tagiga bosib do'pposlasi, kattaga tosh otib bezorilik qilar edi.

Bora-bora bolalar bezib, u bilan o'ynamaydigan bo'lishdi. Bu narsa G'ofirjonning ko'zini ochishi kerak edi. Lekin unday bo'lmadi. G'ofirjon boshqa mahallalardagi o'ziga o'xshash bebosh bolalar bilan do'st tutinib, yomon ko'chaga kirib ketdi. Avval har xil mish-mishlar tarqaldi. Birov: «Sobir akaning o'g'li kissavur bo'lib ketibdi», desa, yana birov: «Kechalari xilvat joylarda yo'l to'sib, odamlarni talar emish», deyardi. Bu xunuk gaplar Sobir akaning qulog'iga yetmadi emas, yetdi. Lekin u parvo qilmadi. «Birov qo'ldan ushlab olibdimi?! Odamlar gapiraverishadi-da!» derdi.

Sobir akaning xotini bolasining nojo'ya harakatlaridan har vaqt tashvishda yurardi. Keyingi mish-mishlar ona qalbini chilpora qilib tashladi. U zor-u zor yig'lab eriga yalindi:

– Jon dadasi, menga rahmingiz kelmasa, bolangizga rahmingiz kelsin! U yomon yo'lda yuribdi, hamma aytyapti, o'zim ham sezyapman. Hali kech emas, qo'lga olaylik. Nasihat qiling. Nimaiki yomonlik qilsa, yosh dedik, o'g'il bola sho'xligi dedik, mana, oqibati nima bo'ldi? Keling, jon dadasi, yomon yo'ldan qayirib oling, bir kun emas, bir kun qaqshab qolmaylik tag'in!

Sobir aka:

– E, bor-e, nafasingni sovuq qilma! – deb xotinini jerkib tashladi-yu, parvoyi falak bo'lib yuraverdi.

G'ofirjon kecha kechqurun ko'chaga chiqib ketganicha uyiga kelmadi. Saharlab eshikni bir militsioner kelib taqillatdi.

– Tez kiyinib chiqing, uchastkaga chaqirishyapti sizni, – dedi u. Sobir akaning rangi o'chib ketdi.

– O'zi nima gap? – dedi esxonasi chiqib.

– O'g'lingiz...

Sobir aka ko'z o'ngi tinib qichqirdi:

– Yo'g'-e?

– Ha.

Mana, Sobir aka militsiya uchastkasida o'tiribdi. Uni bu yerga militsioner emas, bola tarbiyasiga beparvo qaraganligi keltirdi...

Bola tarbiyasiga oid har xil misollardan ancha-muncha keltirish mumkin edi, lekin bolalarni yoshlikdan taltaytirib, erka qilib o'stirish, ularning xulq-atvorlariga, o'qish-o'rganishlariga, yurish-turishlariga beparvo qarash naqadar yomon oqibatlariga sabab bo'lishi shu birgina misoldan ko'rinib turibdi. Shuning uchun bola tarbiyasida ko'cha ta'siriga hushyor bo'lish, uning zarracha zarari sezilganda bolani bu yomon ta'sirdan qutqazish payiga tushish kerak.

Ma'lumki, har bir ota-ona, har bir maktab bolani tarbiyalab katta hayotga uzatadi. Hayot esa juda talabchan. Shu sababli, uning badanimizdagi xilma-xil tomirlar va tomirchalar singari har yoqqa cho'zilib ketgan chigal yo'llarida adashib qolmasliklari uchun bolalarimizning qadamlarini yoshliklaridan to'g'ri tashlaltirishimiz, bu masalada rahnamo bo'lishimiz zarur. Yoshlikda chalishgan qadam umrni armonda o'tkazadi. Ha-da, hayotga ochiq ko'z, ravshan aql bilan kirish, omonsiz zarbalarga uchramaslik choralari ko'rish, ya'ni yomon yo'lni qo'yib, yaxshi yo'ldan borish – abadiylik yo'lidir. Shu yo'ldan borgan kishining nomi o'chmaydi, uning shoni umridan uzoq yashaydi.

OQKO'NGILLIK

Ota-onadan lozimi – bola dilini gavhardek toza, tilini novvotdek shirin qilib tarbiyalash ekani haqida ancha batafsil so'zlashib oldik. Lekin bu mavzu ham o'zicha bir dunyo, bu haqda qancha dalil, qancha misol bilan bahs etmaylik, yana aytadigan gapimiz qoladi. Ana shunday gaplardan biri – oqko'ngillik masalasidir. Bu masalaga yuqoridagi suhbatlarimizning mantiqiy davomi deb qarasa to'g'ri qilgan bo'larmiz. Keling, odamlarimizdagi oqko'ngillik kabi yaxshi fazilatlar hamda ularga dog'tushiradigan ba'zi illatlar ustida ham to'xtab o'taylik.

Ma'lumki, oqko'ngil odam har qachon boshqalar baxtiga, ularning xizmatdagi yo shaxsiy hayotdagi yutuqlariga xuddi o'z baxti, o'z yutug'i kabi qarab quvonadi. Agar bu quvonch zamiriga chuqurroq razm solinsa, yuksak, oliyjanob bir ma'no tantanasi ko'zga chalinadi. Oqko'ngil odam shaxslar baxtida jamiyat baxtining in'ikosini ko'radi!

Lekin ichiqora, baxil, ziqna odam birovning baxtini ham, yutug'ini ham ko'rolmaydi. Bundaylar ichiqoralik qilib: «Menda-ku yo'q, senda nima uchun bo'lishi kerak!» dey-dilar-da, baxillik va hasad qutqusining qullari bo'lib qoladilar.

Xo'sh, bunday yaramas qiliq, ya'ni baxillik qayerdan paydo bo'ladi?

Albatta, baxillik qon yo jon bilan o'tadigan fiziologik hodisa emas. Har qanday chaqaloq yaxshi fazilatni ham, yomon illatni ham keyin – yashash, o'sish jarayonida orttiradi. Agar shunday bo'lmasa, yomon xulq-atvorli ota-onaning bolasi har vaqt yomon, yaxshi xulq-atvorli ota-onaning bolasi har vaqt

yaxshi bo'lib o'sishi kerak edi. Ammo hayotda, haqiqatda bunday emas. Aslida bolani chinakam inson qilib yetishtiradigan, uni yomon xulq-atvordan saqlab tarbiyalaydigan eng katta, eng boobro' murabbiy – ota-ona, oila muhiti yo shu oilada ota-ona o'rnini bosgan katta yoshli odamlardir. Bular nazorati bo'lmasa, maktab ham qiyin ahvolga tushib qoladi. Shunisi ham borki, har bir ota-ona bolasining xulq-atvori, aqliy-jismoniy tomoni qanday bo'lishidan qat'i nazar kam-ko'stsiz o'sishini, oilada, hayotda baxtli bo'lishini istaydi. Shu tabiiy istak mayli bilan ba'zi oilalarda ota-onalar bolalarini kichikliklarida qo'g'irchoqdek yasatishadi, qo'llarini sovuq suvga urdirmay papalashadi, erkato'y, tantiq qilib o'stirishadi. Natijada bunday bolalar injiq, ichi tor, ziqna bo'lib yetilishadi. Bularda boriga qanoat qilish, yo'g'iga ko'nikish xislati bo'lmaydi. Aksincha, ko'ngillari tusa-gan narsani har qanday tadbir bilan, harom-xarish yo'llar bilan bo'lsa ham muhayyo qilish taraqqiy topadi. Agar mana shunday mayl tomiri vaqtida qirqilmasa, u bolani oxirda ma'nan mayib qiladi. Bunaqa bola ota-onasining qudratli panohidan havolanib, uyida hech kimning gapini quloqqa olmaydi, maktabda sinfdoshlarini, hatto muallimlarini ham nazariga ilmaydi, jamoasida hamma o'zini baravar tutishi kerakligini pisand qilmaydi. Bu xulq-atvor bolani katta hayot qiyinchiliklaridan, ya'ni har qanday bola katta bo'lganida duch keladigan mehnat mashaqqatlaridan qo'rqadigan qilib qo'yadi.

Mehnat qiyinchiligidan qo'rqadigan odamning psixologiyasi ma'lum. U oson, yengil yo'l bilan tirikchilik qilish payiga tushadi. Oxirda u havoyi, yengil-yelpi hayotga o'rganib, o'zining insonlik sharafigini ham, jamiyat oldidagi burchini ham unuttida-da, mayda, bachkana, qirriq odamga aylanadi. Bunday qirriqlar hayotda sharaf topolmaganlari, tevarakdagi odamlarning hurmatini qozonolmaganlari uchun boshqalarning hayotdagi, mehnatdagi yutuqlariga, el orasida topgan xurmatlariga hasadlanib, ichlari kuyib qaraydilar.

Ba'zi otalar, ko'pincha onalar bolalariga bo'lgan mehlrlarining qullari bo'lib qolib, bu mehr noto'g'ri izhor qilinganda

keltiradigan zararni ko'rmaydilar. Agar shu taqlid noto'g'ri mehr chuqurroq tahlil qilinsa, buning kasri o'z bolalarigagina emas, boshqa bolalarga ham urganini ko'ramiz.

Mana bu voqeaga bir diqqat qiling-a. Yaqinda bir tanishim qizining tug'ilgan kuni munosabati bilan mehmon chaqiriq qildi. Ikkita kambag'alning to'yini bemalol obod qila oladigan to'kinlik to'g'risida gapirmayoq qo'yaylik. Mayli, yurtimizdagi ma'murchilikning nishonasi bu. Dasturxonda odam jonidan boshqa hamma narsa bor. Mehmonlar ham ko'p. Hali qo'l urilmagan dasturxon atrofida nuroniy chol-u kampirlardan tortib, miyig'i endi sabza ura boshlagan yigitchalar, bo'ylariga yetgan qizlargacha bor. Hamma nimanidir yo kimnidir kutadi. Hech kim churq etmaydi. Birontasi yuragi siqilib ketib gap boshlasa, gap gapligicha qoladi – qovushmaydi. Narigi xonada bir qizaloq chinqirib yig'lar, allakimni bemaza so'zlar bilan so'kar, bu esa o'rtaqa noqulaylik solar edi: – Uzoq tortishuvdan keyin qo'shni xona eshigi taraqlab ochildi-yu, o'n ikki-o'n uch yoshlardagi bir qiz, asov toychoqdek orqasiga tisarilib tirxishlik qilib chiqdi. Tinmay yig'lar, ko'z yoshlari yuzini yuvar edi. Bir tomonidan onasi, yana bir tomonidan otasi suyab, erkalab yurib qizchani to'rdagi bo'sh stulga o'tqazishdi. Qizcha mehmonlarga salom ham bermadi, tevaragida kimlar borligiga parvo ham qilmadi. Mehmonlardan ba'zilar uni yupatmoqchi bo'lishgan edi, qizcha bo'rsiqib ketgan lablarini burib, «Bar! Bar!» deb jerkib tashladi. Onasi: «Hay, unaqa dema, qizim, uyat bo'ladi», demadi. U butunlay boshqa gapni aytdi.

– Voy, shu zamonning bolalari-yey, o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim! – dedi.

Men qizining betamizligidan fig'oni chiqyapti shekilli, deb o'ylabman. Yo'q, unday emas ekan. U goh qizining to'zg'ib ketgan o'jar sochlarini silab, goh yosh yuvib tushayotgan lo'ppi yuzidan o'pib sayray ketdi:

– Xonzodamning tug'ilgan kuniga atab bir ko'ylak tik tiruvdim, hay-hay-hay! Kiygizib ko'rdim, biram yarashdiki, kelinchakning xuddi o'zginasi bo'ldi-qoldi! Qaranglar, o'rtoq-

larining bir ko'zlarini kuydirsin, deb maktabiga kiygizib yubor-maymanmi? Bir qorang o'chkur shundog' ko'ylakka siyoh sochib yuboribdi-da! Bechora qizim qon yig'lab keldi. Yig'la-masinmi, metrini yigirma so'mdan olib tiktirganman-da!..

Bu onaning balanddan turib hovriqishi, mushtumday qiz-chasini kelinchakka o'xshatishi ota-ona sha'niga isnoddan boshqa narsa emas edi. Agar qizini o'n uch yasharidan kelin-chak bezaklariga o'rgatsa u kelinchak bo'lganda chinakam os-tonasi tillodan uyda turaman, deb xarxasha qilasmikan?

Mehmondorchilik menga tatimadi. UZR aytib chiqib ket-dim. Lekin bu mojaroda kim aybli, qiziga o'xshash betamiz onaning so'zi bilan aytganimizda, «bir qorang o'chkur» nima uchun yap-yangi ko'ylakka siyoh sochdi, uni siyoh sochishga nima majbur qildi, degan savollar meni bezovta qilardi. Haqiqatan ham, bu qo'pol hazil yo shumlik oqibatimidi? Yo bo'lmasa bolalar qo'lidan kela oladigan bir norozilik yo nafrat alomatimidi?

Sinfdosh kiyimiga siyoh sochish yo uning o'quv qurolla-riga zarar yetkazish yomon narsa, albatta. Bu qattiq qoralanadi-gan, yo'l qo'yilmaydigan beboshlik. Lekin hech narsa besabab bo'lmaganidek, bu beboshlikning ham sababi bordir? Keling, shunday beboshlikni, ya'ni ayni holda uning zamirida yotgan ziqnalikni tug'diradigan sababni qidirib ko'raylik.

Ma'lumki, maktabning o'z qonun-qoidasi bor. Ota-ona-sining imkoniyatidan qat'i nazar, hamma bola maktabga bir xil kiyinib borishi, o'zini bir xil tutishi kerak. Agar Xonzoda-ning onasiga o'xshab, maktablar qonunini mensimaydigan onalar maktabga o'z arzandalarini bugun bir xil, ertaga ik-kinchi xil, indinga yana boshqa xil kiydirib yuboraverishsa, bunday qonunbuzarlarga maktab ma'muriyati ham indamasa, yo biron andishaga borib, o'zini ko'rmaganga solsa, mak-tab qoidasigina emas, bolalar ko'ngli ham buziladi. Bu xil yasan-tusan, ayniqsa, qizlarga yomon ta'sir qiladi. Ular sinf-da yo qatorlarida Xonzodaga o'xshagan yasan-tusanli qizlarni ko'rganlarida, o'zlari ham shunaqa kiyinib, shunaqa bezanib

yurishni xohlab qoladilar. Bu xohish ota-onasining qo‘li kalta-roq qizlarni o‘ksitsa, boshqalarni, menga ham olib bering, deb ota-onalariga xarxasha qildiradi. Shuning uchun Xonzoda mojarosida eng oldin onaning o‘zi aybdor. «Metrini yigirma so‘mdan oluvdim-a!» deb kuyinib-yonib zorlangan bu ona mushtumday qiziga sarf qilgan pulini ko‘radi-yu, tumshug‘i yonidan naridagi narsalarni ko‘rmaydi. U o‘z bolasini mana shunday e‘zozlashi, paxtaga o‘rab papalashi orqasida boshqa bolalarda o‘ksinish uyg‘otayotganini xayoliga ham keltirmaydi. U bilmaydiki, o‘ksinish – odam ko‘nglini kir qiladigan yomon illatlardan biri.

Darhaqiqat, mundog‘ o‘ylab qaralganda, bola hadeb o‘k-sinaversa kuygunchakka, kuygunchaklik hasadga, hasad esa baxillikka, nihoyat, baxillik ziqnalikka aylanganini ko‘rish mumkin. To‘g‘ridan ham, Xonzodaning onasi qizini maktabga yasantirib yubormasa, qimmatbaho ko‘ylakka siyoh ham to‘kilmas, siyoh to‘kkan bola ko‘ngliga ziqnalik qurti ham kirmas edi. Shu birgina misoldan ham ko‘rinib turibdiki, boladagi baxillik illatida dastavval kattalar, jumladan, ota-ona, ularning bola tarbiyasiga mas‘uliyatsiz qarashlari aybli.

Baxillikni tug‘diruvchi illat, asosan, bola tarbiyasiga noto‘g‘ri qaralgan joyda uchraydi. Qo‘limizdagi bir to‘da maktub shu joydan shikoyat qiladi.

«O‘qituvchimizning qiliqlari g‘alati. Katta amalda ishlaydigan odamlarning bolalari yomon o‘qishsa ham, yalang a‘lo baho qo‘yadi...» (Xiva. ...maktabning 7-sinf o‘quvchisi Karomatxon Rasuleva.)

«Maktabimiz jamoa xo‘jaligidan ancha yiroq. Biz hamma-miz yayov boramiz-u, rais bolalarini jamoa xo‘jaligi «Volga»sida eltib qo‘yadi...» (Hazorasp. ...maktabning 8-sinf o‘quvchisi Hakim Niyozmetov).

«Tarix o‘qituvchimiz shu yil kurortga borgan ekanlar, qaytishlarida Moskvadan qizlariga tilla soat olib kelibdilar. Yoqut toshchalar bilan bezatilgan, bilaguzukli tag‘in! Sinfimizdagi qizlarning hech bittasida yo‘q bunaqa ajoyib soat. Dugonam

maktabga taqib keladi. Har ko'rganimda yuragim jig'illab, mening ham shunaqa soatim bo'lsa, deymen. Axiyri oyimlarga yig'lab yalindim, menga ham olib bering, deb. Oyimlar bilan adamlar yaxshi oylik olishadi. Ikkalasini qo'shsak, ikki yuz so'mdan ancha ortadi. Pullari bo'la turib olib bermaganlariga juda yomon xafa bo'ldim.

– Maktab bolasiga tilla soat yarashmaydi, qizim. Hali kichikinasan, o'qishingni o'yla, maktabingni bitir, oliy ma'lumot ol, ishga kir, keyin soat bir gap bo'lar, – dedilar.

Hayronman, dugonam xohlasa, ota-onasi darrov muhayyo qiladi. Adalari kurortga ketayotganlarida, dugonam: «Tilla soat olib keling», deb tayinlagan ekanlar, so'zlarini qaytarmay, biram chiroylisini olib kelibdilarki, ko'rgan kishi yana bir ko'rsam deydi. Yo mening ota-onam xasismi, mendan pullarini qizg'anishadimi yoki meni dugonamning ota-onalarichalik yaxshi ko'rishmaydimi?» (Toshkent, ...maktabning 9-sinf o'quvchisi Sharifa Kamolova.)

Yo'q-yo'q, Sharifaxon, ota-onangiz sizni dugonangizning ota-onasidan ko'proq, to'g'riroq yaxshi ko'rar ekan. Ular sizning buguningizni emas, ertangizni o'ylashadi, yomon oqibatlariga olib borish ehtimol bo'lgan yanglish havas qurboni bo'lib qolmasligingizni istashadi. Shuning uchun hayron ham bo'lmang, ota-onam meni kam sevadi, deb ko'nglingizni ham cho'ktirmang. Farzandga, ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarga ota-ona sevgisi xuddi shunday qattiqqo'l bo'lishi kerak.

«Nechun bunday?» savollari bilan tugagan yuqoridagi bir necha maktub parchalari ko'rsatib turibdiki, bolalar o'zlariga bo'ladigan munosabatdagi har xillikdan eziladilar, kichkina yurakchalariga noto'g'ri munosabat xo'rlicini sig'dira olmaydilar. Natijada, ularning g'am-u g'ussadan, tengsizlik alamidanda musaffo holda yayrab turishi lozim bo'lgan toza yuraklariga yomon dard cho'kadi, keyin bu dard bora-bora baxillik, ziqnalik qurtiga aylanadi.

Ajabo, bunday hollar faqat maktabdagina bo'ladimi? Oilada-chi?

O'zbek oilalarining aksariyati ayolmand keladi – bu hech kimga sir emas. Yana shu ham sir emaski, mana shunday ko'p bolali oilalarda ota-onalar o'z farzandlariga ba'zan bir ko'z bilan qaramaydilar. Yo otaning, yo onaning, yo bo'lmasa har ikkalasining erkatoysi, ya'ni arzandasi bo'ladi. Ular boshqa bolalarining ko'zlarini baqraytirib turib, ana shu erkatoyni boshlariga ko'taradilar, boshqa bolalarining sho'xliklariga yo injiqliklariga yo'l qo'ymaydilar, ammo arzandalarining har qanday qiligi'ni, yaramas xulqini kechiradilar. Unga yaxshi, qimmatbaho kiyimlar olib beradilar, uni shokoladlar bilan siylab turadilar. Oqibatda: ota-ona e'tiboridan chetda qolgan bolalarda haligi erkatoysga nisbatan ko'rolmaslik, oilasiga nisbatan esa o'gaylik hissi tug'iladi. Bunday bolalar voyaga yetib, mustaqil hayot kechira boshlaganlarida ota-onalariga mehrsiz, oqibatsiz bo'lib qoladilar. Bola tarbiyasining temir qonunini bilmagan yo vaqtida pisand qilmagan ota-onalar bir kun kelib bolalaridan oqibat ko'rmasalar, tepa sochlari tik bo'lib, bolalarini ayblaydilar. To'g'ri, bola har qanday vaziyatda ham ota-onasini unutmasligi kerak, bu uning bo'ynidagi muqaddas burch. Ammo ota-ona bolalari yoshligida ularga har xil qarab ko'ngillarini sovitib yuborgan bo'lsa-chi? Ota-ona bolaning suyangan tog'i. Bola uchun ota-onadek yaqin, mehribon, g'amxo'r odam yo'q. Shu boisdan bo'lsa kerak, ota-ona quchog'i – bola o'chog'i, deydilar. Ana shunday yaqin, dilbar kishisidan olalik ko'rgan bola yuragida umr bo'yi yuvilmaydigan dog' qolmaydimi?

Aql-idroki puxta bo'lmagan ba'zi nodon bolalar, kichikligimizda bizni xo'rlashgan, deb ota-onalaridan qasos olishgacha boradilar. Goho qasddan, goho muruvvati yo'qligidan ota-onalarini qo'msamaydilar, kasal bo'lsalar qaramaydilar, ulug' ayyom kunlarida yo'qlamaydilar. Bolalarini go'daklikdan bir xilda ko'rmay, olalab qaragan ota-onalar keyincha, bolalari katta bo'lganlarida, ulardan oqibatsizlik ko'rib, dudlari osmonga chiqadi. Ammo bu oqibatsiz qayerdan kelganini, nimaning mevasi ekanini payqamaydilar.

Bolalarimizni jamiyatga, mehnatga har taraflama sog'lom, yetuk qilib topshirishda maktab, shubhasiz, yetakchi rol o'ynaydi. Bu esa bolalar tarbiyasidagi benihoya mas'uliyatli burchini maktab bir zum ham unutmasligi kerak, degan so'z. Agar ba'zi kam farosatli ota-onalar bolalarini Xonzodaga o'xshatib havolantirib yuborsalar, maktab qonun-qoidasini buzsalar, Xivadan Karomatxon yozganidek, ayrim muallimlar o'quvchilariga har xil ko'z bilan qarasalar, o'zlariga yaqin kishilarining bolalarini to'g'ri yo'lga solib yuborish o'rniga noto'g'ri yo'llarda rag'batlantirsalar, bunday bolalar oxirda jamiyatga nafi emas, zarari tegadigan takabbur, sirkasi suv ko'tarmaydigan jirraki, nihoyat, tekintomoq bo'lib yetishadilar. Ko'p afsuski, bunday bolalar kattalarning noto'g'ri munosabatlari natijasida o'zlarigina mayib bo'lib qolmay, sog'lom o'sayotgan bolalarni ham goho zaharlaydilar. Demak, muallimlar, maktab ma'murlari shunday hollarda hech kimning yuziga qaramay hamma uchun baravar bo'lgan maktab qonunini qattiq turib himoya qilishlari, uni buzuvchilarga qarshi shafqatsiz bo'lishlari lozim. Gap bitta yo ikkita bolaning tartibsizligi ustida ketayotgandek tuyilsa ham, qoidani qattiq turib talab qilish zahirida ijtimoiy manfaat borligi bunday masalalarda bizni chindan ham qattiqqo'l bo'lishga majbur etadi.

Shu sababli sinf rahbarlari bunday hollarda juda ham hushyor, jangovar bo'lsalar tuzuk. Sinfga biron qiz yo o'g'il bola qoidadan tashqari kiyimda yo alfozda kelsa, uni dag'allik bilan emas, yotig'i bilan tartibga chaqirish, agar bola buni uqmasa yo o'z dalilini keltirib gap qaytarsa, u holda bolaning ota-onasi bilan tezda suhbat o'tkazish, ularga maktab qonun-qoidasini tushuntirish lozim bo'lar.

Bu talablar maktablar uchun yangilik emas, albatta. Maktab rahbarlari oldida hamma vaqt burch bo'lib kelayotgan hayotiy masalalar bular. Faqat shunisi achinarliki, maktablarda bu talablarga hamma vaqt ham rioya qilinavermaydi, ko'p vaqt esdan chiqariladi yoki ortiqcha tashvish deb qo'l siltanadi.

Istar edikki, har bir bola yashab turgan yorug' kunlari singari chehrasi charog'on, dili pok – oqko'ngil bo'lib yetilsin!

BU YO‘LDA XATO QILMA

*Tushsa boshingga mushkul –
Aql kengashiga tushkil*

Bahor – fasllarning eng qaynoq, eng sertashvish, ayni zamonda eng zavqbaxshi. Unda gulyaproqlarning atri, jon-baxsh yellarning sho‘xligi, uyg‘ongan hayotning jilvasi... Daraxtlar gullaydi, qushlar kuylaydi... Ularning gullarida ham, bularning kuylarida ham zurriyot istagining taronasi. Nebaxt, tabiat taqozosi bu!

Bu taqozodan inson ham bahramand. Uning ham bahor o‘simliklari kabi qiyg‘os gullaydigan, qushlar kabi sevgi taronasini kuylaydigan oltin davri bor. Bu davr uning o‘n sakkiz yoshi. Buni «balog‘at» yo «sevgi yoshi» ham deydilar. Mayli, gap uning nima deyilishida emas, mohiyatida. Darhaqiqat, o‘n sakkizga kirganki bor, qalbi muhabbatning yo alami bilan jarohatlangan, yo lazzati bilan baxt dukuriga to‘lgan. Demak, sevgi hammaning boshida bor gap.

Xo‘sh, hammaning boshida bo‘lgan bu savdoga hamma ham bir xil qaraydimi?

Afsuski, yo‘q. Ba‘zi yoshlar sevgiga shunchaki ko‘ngil xushligi deb yengil-yelpi qarashsa, ba‘zi keksalar sevgini, uning bog‘lovchi, yaratuvchi, baxt-saodat keltiruvchi kuchini tan olmaydilar. Ular yoshlar sevgisini afsona, ota-ona ra‘yini qaytarish uchun bir bahona deb biladilar. Lekin shunisi quvonchliki, sevgini muqaddas, chinakam insoniy his deb biladigan va shunga astoydil amal qiladigan xulqi chiroyli yoshlarimiz juda-juda ko‘p. Bular yosh nihollarning gurkirab o‘sislari uchun toza havo, oqin suv, charog‘on quyosh qanchalik zarur bo‘lsa, qalblarda endi-endi uyg‘ona boshlagan sevgi kurtak-

larining kamoli uchun ham toza yurak, toza tilak, toza munosabat kerakligini yaxshi biladilar. Shuning uchun bular bir ko'rishdayoq oshiq bo'lib darrov uylanish payiga tushmaydilar, chunki uylanish – ota yo ona bo'lish demakdir. Bu esa balog'atga yetgan, uylanish oldida turgan har bir yosh-yalang zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, kelajak oilaning baxtli yo baxtsiz bo'lib qolishi ana shu mas'uliyatning to'g'ri yo noto'g'ri tushunilishiga bog'liq. Shu boisdan ko'p yoshlarimiz oila qurish masalasiga benihoya jiddiy qaraydilar. Yigit oilani tebratishga qodirmanmi, bunga ilm-u hunarim yetadimi, deb o'ylasa, qiz bolalariga yaxshi ona bo'lish g'amini yeydi. Shunisi ham borki, bu xil yoshlar uylanish tilaklarini ota-onalaridan maxfiy tutmaydilar. Chunki ular farzand uchun eng ko'p jonkuyar, eng to'g'ri maslahatgo'y, eng yaqin do'st ota-onalari ekanini yaxshi biladilar.

Darhaqiqat, ota-onalarning roziligi, ayniqsa, maslahati bilan qurilgan yosh oila qariyb zavol ko'rmaydi.

Bitta afsus yeydigan joyimiz bor. U ham bo'lsa, ba'zi ota yo onada uchrab qoladigan asovlik. Ular sevgi yoshiga yetgan, turmush qurish arafasida turgan qizlari yo o'g'illarining bo'lg'usi qaylig'i bilan biron yerda gaplashib turganlarini ko'rib qolishsa, ularni behayolikda ayblab, darrov choponlarini teskari kiyib oladilar. Bunday ota-onalar jigarbandlarining baxtlarini o'zlarining diniy yo urfiy odatlari yo'lida qurbon qilayotganlarini jaholat ustida sezmay qoladilar. Farzand nodon bo'lsa, shunday paytlarda «Hap senimi!» deydi-yu, o'chakishib borib ZAGSdan o'tib keladi. Qasdma-qasdlikka qilingan bu yaramas qiliq jaholat ustidagi ota yo onaning alaminini beshbattar orttiradi. Oqibat, o'rtaga sovuqchilik tushadi, ota yo ona bolasi bilan yuz ko'rishmas bo'lib ketadi. Holbuki, yarani bu qadar madda bog'latib yuborishning hech hojati yo'q edi. Nimaga desangiz, bir tomon oyoq tirab turib olgani bilan ikkinchi tomon o'rtaga tushar, uni axiyri insofga keltirardi. Demak, shunday paytlarda shoshma-shosharlik bilan ish tutish emas, sabr-qanoat bilan kutish kerak ekan.

Biz yuqorida, ba'zi ota-onalar bolalarining baxtlarini o'zlarining diniy yo urfiy odatlari yo'lida qurbon qiladilar, dedik. Keling, shu gapimizni misol bilan quvvatlaylik.

Bu voqea O'shda bo'lib o'tdi. Bir xo'ja qizi o'rta maktabni o'zi bilan birga bitirgan «qoracha» yigitga ko'ngil beribdi. Bu sevgini bir qarashda xushtor bo'lish yo er qilishga shoshish oqibati deb bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi bu muhabbat o'zlari bilan birga o'sgan, o'zlari bilan birga voyaga yetgan, necha yillik sinovdan o'tgan chin muhabbat. Yigit xo'ja oilasining taqvodorligini, fuqaroga qiz berish u yoqda tursin, uning sovchisini ham ostonadan hatlatmasligini bilar, shunga qaramasdan, qalbida qulf urgan sevgi g'unchasining ochilishidan umidvor yurar edi.

Qiz-chi? Qiz hammadan ham ko'proq katta buvisidan qo'rqardi. Siz bu katta buvining mo'minligini, shirin-so'zligini, bo'lajonligini ko'rasiz-u, yo'g'-e, bu farishta-ku, deysiz.

To'g'ri, qiyofada farishtaga o'xshab ko'ringan bu «beozor» kampir o'g'illarini, qator-qator nevara-chevaralarini o'zining bid'at panjasida tutib keladi. Bu zang bosgan panjadan chiquvchi yo unga e'tiroz bildiruvchi «qahramon»ning ahvoliga voy! Bid'at o'rgimchagi o'rab olgan bu oila kishilari kampirning qarg'ishidan, oq sutini ko'kka solishidan qo'rqadi. Qiz ham shundan qo'rqar edi. Axiyri qo'rqqani bo'ldi. Bu istarasi issiq, farishtasifat kampir nevarasining qoracha yigit bilan topishganini eshitdi-yu, yalmog'iz tusiga kirdi. Nevarasini ko'p yomon so'zlar bilan qarg'adi, unga badbaxtlik tiladi, bu bilan ham ko'ngli to'lmay, o'g'liga buyurib, qizni uyga qamattirib qo'ydi. Faqat qiz oyog'iga kishan solinmadi, qo'llari orqasiga qilib ustunga bog'lab qo'yilmadi, bundan boshqasi qilindi. Farishta tus kampirning buyrug'i bilan oila a'zolarining kattadan-kichigi bir-bir kirib, qorachaga tegmoqchi bo'lgan qiz yuziga tufladi, urdi, sochlarini yuldi. Ammo qiz bu qora iskanjadan qo'rqmadi, akalaridan biri bittasi bilan qizni, yana bittasi bilan qora kuyovni chavaqlash uchun ikkita xanjar qildirib kelganda ham vafodor qiz ahdidan qaytmadi. Oxir uni uzun sochlarini bo'yniga chulg'ab bo'g'ishdi! Shunda ham u

labzidan qaytmadi. Sevgisi o'tkinchi havas, aldamchi his emas ekan, «O'lsam o'laman, lekin shu yigitdan boshqasini demayman!» deb turib oldi.

Shu tenglik, shu hurlik zamonda xo'jachilikning bu yaramas da'vosi mahalla-ko'yni, ayniqsa, qizning do'st-u dugonalarini qattiq xafa qildi. Yoshlar bu xunuk voqeani o'zlarining yoshlik huquqlariga haqorat deb bilib, qoloq tushunchaga qarshi bosh ko'tardilar. Ular bu harakatlarida haqli edilar.

Darhaqiqat, odam odamga do'st, odam odamga suyanchiq bo'lgan shu baxtli zamonda «men – xo'ja, sen qoracha!» deb bir-birini ilg'ash yoshlar ongiga aslo sig'mas edi. Ular jamoatchilik ta'siri bilan to'yni boshlab yubordilar. Ozib, to'zg'ib, birgina ustuxon bo'lib qolgan jafokash qiz bid'at avaxtasidan chiqarildi, kuyov tomonidan keltirilgan kelinlik sarpolarini kiydirishib, uni to'y bazmi to'riga, kuyov yoniga keltirib o'tqazdilar. Farishtasifat kampir yoshiga yarashmagan bir chaqqonlik bilan baland chorpoyaga sakrab chiqdi-da, kelin bilan kuyovni issiq davrasida yayratayotgan kuyovnavkarlar ro'parasida turib olib, qorachaga tekkan nevarasini-yu xo'ja qizini olgan «gumroh qoracha»ni qarg'ay boshladi. Lekin uning nohaq, nomunosib qarg'ishi to'y tantanasining sho'x sadolari ostida ko'milib ketdi...

Bu kichkina, lekin mazmuni katta misoldan ko'rinib turibdiki, jamiyatimizda eskilikning allaqanday kovaklarda mog'or bosib yotgan shu xil yaramas illatlari yosh avlod qalbida bir umr bitmaydigan jarohatlar ochyapti. Urf-odat va bularga oid tushunchalar sevgi qo'yniga qora ilon bo'lib o'rmalab kiriyapti. Bu sarqit qora iloni insonga faqat bir martagina berilgan umrni zaharlab, dunyoni ko'zlarga qorong'i qilyapti. Oqibat, ba'zi yoshlar sevganiga, baxtiga yetolmay o'zlarini nobud qilishga majbur bo'lyaptilar.

Mana yana bir misol. Urgutlik To'lqinjon o'z do'stining boshiga tushgan katta baxtsizlikdan yozadi:

«...U bir qizni chin ko'ngildan sevadi. Lekin qiz eshonlar zotidan. Bular ko'p yillar sevishib, bir-biriga suyanishib yurishdi. Eshon qizining oddiy fuqaro yigitiga berilmasligini, ya'ni o'r-

tada nikohga yo'l yo'qligini ikkalasi ham bilar, shuning uchun bu jar o'lim chohiga aylanib borardi. Qiz boshqaga tegmaslikka, yigit boshqaga uylanmaslikka qasamyod qildi. Ular endi dunyodan shunday o'tib ketishmoqchi! Yo ajab, sevganingga yetolmasang, xo'ja, eshon, sayid, mir kabi eskilik sarqitlari yorug' yo'lingda qora g'ov bo'lib yotsa!..»

Xatdan ma'lum bo'lishicha, To'lqinjonning do'sti eskilik sarqitlarining qora tushunchalariga qarshi kurash ochmagan. Sababi – qiz: «Meni otam duoyibad qiladi, qarindoshlarim, yor-u do'stlarim oldida yuzim qaro bo'ladi», deb turib olibdi. Yigit ham qizning bu xato andishasiga shilq etib tushibdi-yu, baxtini taqdir hukmiga havola qilib, tinib-tinchib keta qolibdi.

To'lqinjon ana shular haqida yozgandan keyin do'sti nima qilishi kerakligini so'raydi.

Bunday qaraganda, yigit bilan qizni o'z baxtlari uchun kurashmadi, eski urf-odatning zang bosgan zanjiriga qo'l-oyoqlarini tutib berdi, deb ayblash mumkin. Shunday deb ayblash kerak ham. Nimaga desangiz, o'shlik xo'ja qizi eshon bid'atidan qolishmaydigan xo'ja bid'atiga qarshi qattiq turib kuragi, bo'yniga o'lim sirtmog'i chulg'anganda ham qo'rqmadi. Chunki sevgi yo'lida kurash uning uchun yashash demak edi. U chuvalchang bo'lib yerda sudralmasdan yashash uchun, o'zining g'ururi, huquqi bilan qaddini baland ko'tarib yurish uchun: dunyoga bid'at quli bo'lib emas, erk huri bo'lib kelgani uchun kurashdi. Ofarin, ming ofarin, dovyurak qiz!

To'lqinjonning do'sti kurashga kirmasdanoq qurolini tashlagan. Agar u ham o'shlik qoracha kuyov singari harakat qilsa, jangga o'zi yolg'iz emas, do'st-birodarlari, mahalla-ko'y kishilari bilan birgalikda kirsam, uning mushkuli ham o'shliklarniki singari xayrli bitarmidi!

Sevgi yurak chashmasidan suv ichgan oh-vohga emas, aql chashmasidan suv ichgan mardlikka suyanadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, «Jondan kechmasang, jonona qayda!» – deyдилar ota-bobolarimiz. To'lqinjonning do'sti esa shu katta, shu yorug' hayotimizda o'zi yolg'iz emasligini, atrofida yor-u do'stlari bor-

ligini, boshiga tushadigan har qanday kulfatda yor-u do'stlari, el-u yurti yordamga yugurishi aniqligini nazardan qochirgan. Shunday kezlarda mushkulini oson qiladigan tadbirlar shu qadar ko'pki, bularning birontasidan u yigit foydalanmagan. Qizning otasi eshon bo'lsa eshondir. Lekin qizning o'zi maktabda ta'lim olgan, yigit-chi? Atrofida aql-idroki baland, odobi mustahkam, boshqalarga ta'siri o'tkir, dono yoshlar ko'p emasmi? Haqiqatan ham shunday. Ana shuning uchun yigit o'rtoqlari bilan birgalikda qizga ta'sir o'tkazishi, uni xato tushunchalar qurboni bo'lib ketishdan qutqazishi kerak edi. To'g'ri-da, otasi eshon bo'lgani uchun bu bechora qiz baxtsiz bo'lib qolishi kerakmi? Yo'q, u ham hamma qatori baxt nashidasidan bahramand bo'lishga haqli. Bordi-yu shu haq toptaldi, qiz baxtsiz bo'ldi. Unda kim aybdor? Eshon otami, eshon ota ta'siriga tushib qolgan nodon qizmi yo o'zi, sevgani, kelajak avlodi baxti uchun kurashish kerakligiga fahmi yetmagan lapashang yigitmi?

Ko'rib turibsizki, bu ikki yosh davri, zamonasi bergan katta huquqlardan foydalanmagan. Holbuki, tumshuq tagiga emas, uzoqroqqa qaralganda bu chigalni ham yechadigan tadbir topilardi. Shuning uchun boshi berk ko'chaga kirib qolinganda yurak xarxashasidan ko'ra aql maslahatiga ko'proq quloq solinsa, najot topiladi.

ISHQ BOSHQA, HAVAS BOSHQA

Juflar o'rtasidagi muhabbat ko'p hollarda oila qurish bilan natijalanadi. Lekin bu oilaga juftlarning hammasi ham bir xil ong, bir xil intilish, bir xil tayyorgarlik, bir xil orzu-havas bilan kelmaydi. Aql-idrok, odamiy munosabat, chin muhabbat, yaxshi tilak asosiga qurilgan oilagina yashab qoladi. G'araz, hirs, aldov, zo'rlik asosidagilari esa ba'zan oy to'lmay, ko'pincha yil ko'rmay qazoga uchraydi. Bizning jamiyatimizda ibratli oilalarning haddi hisobi yo'q. Ammo biz hozir bu haqda emas, sevgi yoshiga yetganda es-hushini yo'qotib qo'ygan ba'zi shoshma-shosharlar ustida to'xtalmoqchimiz.

Toshkentda o'n yetti-o'n sakkiz yoshlik bir qiz qirqdan allaqachon oshib ketgan bola-chaqali bir odamni «yaxshi ko'rib» qopti. Shuning uchun qizning nomini ham, manzilini ham ochiq aytishni ep ko'rmadik. Garchi u yaxshi ish qilmagan bo'lsa ham, biz uni «yaxshi qiz» deb atab turaylik. Ana o'sha «yaxshi qiz» bizga yozgan maktubining oxirida:

«...U kishining vafodor rafiqasi bo'lsa-yu, qiz buni ko'ra-bila turib yaxshi ko'rib qolsa, qanday bo'ladi? Qiz nima qilishi kerak?» – deb so'rabdi. Ko'rib turibsizki, boyoqishning dardi kuchli.

Yaxshi qiz, yuragingizda bexosdan lovullab ketgan o't, siz o'ylaganingizcha, muhabbat o'ti emas, u bir sarob, to'g'rirog'i, o'tkinchi havas. Siz o'zingizni insofga, aql-idrokka chaqiring. Bu ishq shalolasi emas, havas jazavasi ekaniga shikasta ko'nglingizdan, xatti-harakatlaringizdan, nihoyat, sizni beqaror qilgan o'sha odamdan joziba omillarini qidiring. Balki, u

odam ashulachi yo cholg'uchidir, yozuvchi yo rassomdir. Agar sizda ham san'atning shu turlaridan birontasiga yoshlikdan, yurak-yurakdan ishqibozlik bo'lsa, demak, u kishi sizni san'ati bilan sehlaladi. Nimaga desangiz, qizlarda (yigitlarda ham) tug'iladigan sevgi hayratlanishdan, zavqlanishdan boshlanadi. Uning nimasidir yoqadi, maftun qiladi. Sizda ham shunday bo'lgan. Bunday hollar ko'proq ta'sirchan odamlarda uchraydi. Taassurot uni har ko'yga soladi: goh yig'latadi yo kuldiradi, goh sevdirdi yo nafratlaniradi, hatto qaltis harakatlarga olib boradi. Bu ixtiyor jodugari o'z vasvasasidan tinib, odam hovuridan tushsa-chi? Unda odam o'zining qilmishidan xijolat bo'ladi, ko'r-ko'rona harakati uchun o'zidan nafratlanadi. Agar bu nojo'ya harakati el og'ziga tushgan bo'lsa-chi? O, nomus kuchidan yerga kirib ketadi. Yaxshi qiz, sizning ertangizda ham shu gap bor hali. Qarang, yoshi o'zingiznikidan qariyb ikki baravar ulug', ya'ni ochiq qilib aytganda, otangiz tengi bir kishiga «ko'ngil» bergansiz. «Hayotda bunday hollar uchramaydimi!» deysiz. To'g'ri, uchraydi. Lekin qayerda, qanday holatda?

Kichik tomon shoshilgan, ya'ni tezroq birontasiga tegib olish payiga tushib, bosayotgan qadami oxiri pushaymonlik, sharmandalik chohiga qulatishi muqarrarligini o'ylab ko'rman bo'lsa; katta tomon esa xudbin, ya'ni o'z nafsini o'ylovchi, shilqim, yoshiga yarashmagan qiliqlardan ibo qilmaydigan, besharm, ya'ni el-ko'y oldida yuzi qaro bo'lish xavfidan qo'rqmaydigan andishasiz, vijdotsiz odam bo'lsa, sizning boshingizga tushgan savdo sodir bo'ladi.

O'zingizga munosib bo'lmagan odamga ko'ngil beribsiz, deb sizdan, yolg'iz o'zingizdan o'pka qilsak, uchishga talpinib turgan ko'ngil qushingizni makr-u hiyla bilan tuzoqqa ilintirgan u noinsofni oqlagan bo'lamiz. Yo'q, uni oqlash fikrimiz yo'q, aslo oqlayolmaymiz. Bu nomunosib harakatda siz qanchalik xato ketgan bo'lsangiz, u odam ham axloq bobida shunchalik hayosizlikka yo'l qo'ygan. Aniqroq qilib aytganda, zamonamiz axloqini, odamgarchilik burchini oyoqosti qilgan. Aslida u kishi bolasi baravar tajribasiz bir qizning o'ziga boshqacha qarayot-

ganini ko'rib, darhol uni to'g'ri yo'lga solib yuborishi, chipqonning bu qadar madda bog'lab ketishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Lekin u kishi, yuqorida aytganimizdek, o'z nafsini o'ylovchi xudbin, shafqatsiz odam ekan.

Maktubingizdan ma'lum bo'lishicha, siz, yaxshi qiz, badiiy asarlarni ko'p o'qir ekansiz. Bu sizda estetik his-tuyg'ularning kuchli ekanidan dalolat beradi. Buningiz yaxshi. Ammo badiiy asarlarni faqat zavqlanish, qahramonlar bilan kulish yo yig'lash uchungina o'qimaydilar. Kitobdan hayotni, yaxshi-larga ergashib, yomonlardan qochishni o'rganadilar. Shuning uchun, hayotni tajriba orqali bilmaganda ham, o'qigan kitoblaringizdan uncha-muncha bilib olishingiz mumkin edi. Siz bo'lsangiz, ishq bilan havas farqiga ham bormagansiz. Rafdagi kitoblaringizni varaqlab ko'ring, balki, shu varaqlarning bi-rontasidan bilmay bosib qo'ygan qadamlari oqibatida qonqaro qaqshab qolganlar faryodi eshitilar?

Mana ulardan biri:

*Bilmayin bosdim tikanni,
Tortadirman jabrini,
Bilsam erdim, bosmas erdim,
Tortmas erdim dardini.*

Siz-chi, yaxshi qiz, qadamingizni bilib bosyapsizmi? Yo'q, bilmaysiz! Bilganingizda, bunday beor qadamdan hazar qilar, qizlik iffat va iboyingizni shabnam gavharlari kabi toza, be-dog' saqlar edingiz. Qadamingiz benihoyat qaltis! Siz «ko'ngil bergan» kishingizning o'z rafiqasi, bola-chaqasi, issiq ini, shirin baxti borligini bilasiz. Bila turib, shu issiq inni buzmoqchisiz, ota-onasi bag'rida baxtiyor yashab, gulday yashnab turgan ma'sum bolalarning jarangli kulgilarini mungli yig'iga aylantirmoqchisiz, ularni tirik yetim qilmoqchisiz. Eriga vafodor hayot yo'ldoshi, bolalariga mehribon ona bo'lgani uchun dunyoda o'zini eng baxtli ayol hisoblab faxrlanib, boshi osmonga yetib yupgan gunohsiz bir xotinni bag'ritoshlik bilan tul qilmoqchisiz, uning baxtini o'g'irlab olmoqchisiz. Qizlik g'ururingizga,

qizlik shuuringizga hecham yarashmaydigan shu nobop qilg'ingiz bilan tikan bosibgina qolayotganingiz yo'q, undan bat-tarini qilyapsiz. Siz o'zingiz u ma'sum oila bag'riga tikan bo'lib sanchilyapsiz!

Siz masala zamiridagi shu xunuk oqibatni o'ylab ko'rdingizmi, yaxshi qiz! O'ylab ko'rmagan bo'lsangiz, albatta, o'ylab ko'ring. Zinhor shunchaki o'ylab ko'rmang. O'zingizni o'sha yomon harakatlaringiz oqibatida zor-u fig'on yig'lab qoladigan mushtipar ayol o'rniga, qon-qon chinqirib qoladigan gunohsiz bolalarning baxtini o'g'irlatgan onasi o'rniga qo'yib ko'ring. Bir zum bo'lsa ham shunday qilib ko'ring. Agar bir yomon qiz qizlik sha'niga to'g'ri kelmaydigan past-kash qiliqlar bilan yoringizni chalg'itib ketsa, ya'ni bolalarinigizning otasini bag'ritoshlik bilan tortib olsa, qani, siz nima qilardingiz, yaxshi qiz? A, qanday ahvolga tushardingiz?

Kitob o'qishni yoqtirganingizga qarab, biz sizni estetik tuyg'usi kuchli odamdirlsiz, deb edik yuqorida. Qiziq, estetik tuyg'usi kuchli odam insonparvar bo'lardi, o'zining baxti yo rohatini deb birovlarining turmushini zaharlashdan saqlanardi, sizda bo'lsa bularning aksi.

Shu yerda xalqimizning bir hikmatli so'zi esga tushib ketdi. «Pichoqni o'zingga ur, og'rimasa birovga», deydi.

Siz-chi, yaxshi qiz, pichoqni avval o'zingizga urib ko'rmay, boshqalarga uryapsiz!

ISMINI YASHIRGAN KISHI

Ota-ona, farzand burchi haqida ba'zi mulohazalarimizni izhor qildik. Lekin onda-sonda bo'lsa ham uchrab turadigan boshqa toifadagi farzandlarning qilmish-qidirmishlarini eshitib yoqamizni ushlaymiz. Vijdon qiynog'iga tushib qolgan ana shunday farzandlardan biri radioning yoshlik tahririyatiga xat yozib, tim qorong'ida paypaslab ziyo qidirib yurganini aytibdi. Biz quyida uning xatini aynan ko'chirib, shu haqda o'z fikrimizni aytmoqchimiz:

«Ota-ona va farzand, ularning o'zaro munosabati, farzandlik burchi kabi mavzusidagi eshittirishlaringizni imkon boricha bitta ham o'tkazmay tinglayman. Eshittirishlaringiz qattiq ta'sir qiladi, bigizdek botadi. Soatlab o'yga tolaman, g'am qilaman. Bundan bir-ikki yilcha burun farzand ota-onani rozi qilishi kerak, ota-ona rozi – el-yurt rozi, degan jummalarni tasdiqlar edim. Endi-chi! Beparvo-yu befarqman. Agar hozir mening so'nggi o'n-o'n besh yillik bosib o'tgan yo'lim yoki tarjimayi holimga nazar tashlansa, men o'z tug'ishganlarimdan, qavm-qarindoshlarimdan o'ch olgan qotil, yaramas, past kishi bo'lib chiqaman. O'n yildirki, men uyda bo'lganim yo'q. (To'g'rirog'i, o'n besh yil.) Men atayin qilganim yo'q buni. Bu ish shunday bo'lib chiqdi. Taqdir shu tariqa yo'lga soldi.

Xizmatdan qaytib ishga joylashdim. So'ng institutga, kechki o'qishga kirdim. Hozir uchinchi kursdaman.

Har bir xolis niyatli kishi hozir ham meni maqtaydi, ibrat oladi. Bir vaqtlar men bu bilan faxrlanar edim. Endi-chi? Beparqman, chunki bundan ikki yil burun menda g'oya va ke-

lajak bor edi. Ota-ona baribir kechiradi, institutni tamomlab borsam quvonadi, deb o'zimni yupatar edim. Endi-chi? Qishloqning qorasini ko'rishga toqatim yo'q Hayotning shiddatli shamollari meni shu ko'yga soldi. Endilikda men o'z kelajagimdan ko'rqadigan bo'lib qoldim. Jami do'stlarim barhayot, agar ular bilan bir-ikki soatdan ortiqroq birga bo'lsam, ayniy boshlayman, yakkalikni qo'msay boshlayman. (Bir kishi istisno.) Kelgusi kasbim meni kishilar zich joyga borib ishlashni taqozo qiladi. Menda esa kishilarga qo'shilishdan ko'ra ularga chetdan tomoshabin bo'lish mayli kuchli. Bu mening uchun rohat. Shu damgacha biror sevgan qizim yo'q. Oxirida o'z-o'zimga nafratim oshib ketadi. Axir, hayotimning shunday bo'lishini bir necha yil burunoq bilganimda yashashdan voz kechardim.

Men sho'x bolaning qo'liga tushib qolgan termometr simobidekman. (Bola suvga tiqsa pasayib, o'tga solsa yuqori ko'tariladi.)

Har kuni ming bor ruhan yiqilib part bo'laman, ming bor tik turaman. Halokat tomon ketayotganim yo'qmikan? U holda yashashga ham hojat yo'q. Nega buni sizga yozyapman? Axir, menda eng to'g'ri yo'lni, eng to'g'ri maslahatni kishi o'zi o'zigagina bera oladi, degan aqida hukmron-ku! Qariyalarga (ota-onamga) gohida rahmim keladi. Ular mendan tiriklayin ajralishdi. Pochtadan yo'qlab oladigan qilib hushim kelsa yozib, kelmasa yozmay turgan so'nggi nishona xatimdan ham ularni mahrum – judo qildim.

Xohlasangiz, radio orqali menga «retsept» bering, xohlang jim bo'lib keta qoling. Fojia bilan tugash xavfi bo'lgan oqibatning zora oldini olish mumkin bo'lsa, degan umid bilan yozib edim.

Xatim cho'zilib ketdi.

Shuncha sirimni ochganimdan so'ng o'zimni sir tutishim tabiiy. Sizga salom bilan Maxfiyroz.

Toshkent, yanvar 1964-yil».

Maxfiyroz, sizga javob berishdan oldin shoir Tolib Yo‘ldoshning quyidagi she‘rini o‘qishingizni tavsiya etamiz:

*Bir qatra suv bo‘lib shimilsam yerga,
Mendan biror giyoh unib chiqsa.
Hayotga kelibman, shunday ketmasam,
Ketimda aytgulik biror nom qolsa!*

Birodar Maxfiyroz, «Fojia bilan tugash xavfi bo‘lgan oqibatning zora oldini olish mumkin bo‘lsa, degan umid bilan» yozgan xatingiz, shubhasiz, javobsiz qolmaydi.

Matbuot o‘ziga kelgan xatlarni hech vaqt oqibatsiz qoldirmaydi. Shuning uchun siz noumid bo‘lib qo‘l siltamang, javobimiz hozir.

Muddaoga o‘taylik. Bir-biriga qarama-qarshi fikrlaringiz, omonat taxminlaringiz mazmunidan maslahatga ehtiyoj sezibsiz. Shuning o‘zi katta gap. Axir, ehtiyoj bor joyda, bilasiz, harakat bor, zero, har qanday mushkulotdan qutulishning birdan bir yo‘li harakatdir. Shu sababli maktubingiz, unda yuritgan fikrlaringiz bizga noma‘qul sabablar bilan yoqangizga yopishgan falokatdan qutulishga intilganingizni, ya‘ni fojia bilan tugashi xavfini tug‘dirgan oqibatning oldini olish yo‘lida birinchi, dadil odim tashlaganingizni bildiradi. Endi maktubingizdagi fikrlarni tartibi bilan ko‘zdan kechiraylik. «Ota-ona va farzand ularning o‘zaro munosabati, farzand burchi» kabi mavzudagi eshittirishlarimizni imkon boricha tinglar, bulardan qattiq ta’sirlanar, soatlab o‘yga tolal, g‘am chekar ekansiz. Bundan bir-ikki yil burun farzand ota-onani rozi qilishi kerak, chunki ota-ona rozi – el-yurt rozi, degan aqidada yurgansiz. Endi hamma narsaga befarq, beparvo qarab qolibsiz. So‘nggi o‘n-o‘n besh yil ichida bosib o‘tgan yo‘lingizga nazar tashlansa, qavm-qarindoshlaringizdan, tug‘ishganlaringizdan qasos olayotgan qotil, yaramas, past kishi bo‘lib qolganingizni ko‘rish mumkin emish. Keyin bu ayanch xulosaning sababi qilib, taqdir hukmi bilan uyingizda o‘n besh yil bo‘lmaganingizni yozibsiz.

Qani endi shu satrlarda oldinga surgan fikr va mulohazalaringizni bir tahlil qilib ko'raylik. Siz o'n besh yil qayerda, qanday holatda bo'lgansiz, mayli, bu yog'i sir sandig'ingizda qolsin. Ammo «Xizmatdan qaytib ishga joylashdim, hozir kechki institutda o'qiyapman», deganingizdan, keyingi vaqtlarda armiyada xizmat qilganingizni, undan bo'shaganingizga uch yil bo'lganini taxmin qilish mumkin. «Bundan bir-ikki yil burun farzand ota-onani rozi qilishi kerak, ota-ona rozi el-yurt rozi», degan qanoatda ekaningiz bu taxminimizni tasdiqlaydi. Siz armiyadan oliyjanob hislar, yaxshi fazilat bilan qaytgansiz. Ammo unga qadar boshingiz ustidan qanday bo'ronlar o'tgan, ota-onangizga bo'lgan mehr-u muhabbatingizni qanday qahratonlar sovutgan, bu yog'i bizga jumboq. Sizdagi ruhiy tushkunlik sabablarini ochiq bilsak, bemor dardini aniq bilgan shifokor singari, so'ragan retseptingizni qiynalmay yozib berardik. Lekin haqiqat tarozisining pallasida oqqush patichalik tosh bosmaydigan andishalaringiz bizni bu imkoniyatdan mahrum qiladi.

O'ylab qarang, kechagina ota-ona diydorini orzu qilar edingiz, ularning mo'ltiragan ko'zlarini ko'rishga mushtoque dingiz, ota-ona roziligi – el-yurt roziligi, deb bilardingiz, ularni rozi qilishdan, xizmatlarini bajo keltirishdan ham muqaddasroq narsa yo'qligiga ishonardingiz, ota-onasidan yuz o'girib farzandlik sha'niga dog' tushirgan betamiz yoshlardan nafratlanardingiz – sizda chinakam insoniy fazilat chiroy edi. Siz bu ajoyib chiroydan, afsuski, yuz o'giribsiz. To'g'ri, dunyoda hech narsa sababsiz bo'lmaydi. Sizdagi bu o'tkinchi holatning ham sababi bo'lishi kerak. Biz bu holatni atayin «o'tkinchi» dedik. Ishoning, qalbingizda yana fazilat quyoshi chaqnaydi, yuzingizda yana mehr oftobi nur sochadi.

Maxfiyroz, fikringizni yig'ishtirib olib, xayotga mundog' razm soling-a, og'ir darddan yo baxtsiz hodisadan mayib bo'lib o'lim changalida yotgan kishilarning o'lim bilan olishganlarini, to oxirgi nafasleri chiqquncha ham hayot uchun kurashganlarini ko'rasiz. Bu xil odamlar dunyoga so'ppayib kelib, so'ppayib ketishni o'zlarining insonlik sha'nlariga isnod deb biladilar.

Rus adibi Nikolay Ostrovskiy ko'zlaridan, sog'lig'idan tamom ayrilib o'lim to'shagida yotgan holda o'limni emas, hayotni o'yladi, hayot tantanasi uchun mehnat qildi. Urush qahramoni Meresyev o'z yoqasiga chang solgan o'limdan ustun chiqdi. Biz bularni esingizga solmasdan ilojimiz yo'q. Haqiqiy inson, asil odam shuki, sharaflı o'lim oldida qo'llari bo'shashmaydi, oyoqlari qaltiramaydi, o'zini yo'qotmaydi. Aksincha, o'lishga mahkumlighi muqarrarligini bilsa, o'zidan birorta nom-u nishon qoldirib ketishga harakat qiladi. Bu xil o'lim mardlar o'limi. Lekin o'z joniga qasd qilish uchun hech qanday sabab bo'lmagan holda o'limga quchoq ochib borish, ya'ni umidsizlikka, ruhiy tushkunlikka berilish nomardning ishi!

Maxfiyroz, yashash uchun kurash – har bir inson bo'ynidagi qarz. Dunyoga kelgan odamki bor, u qadri hol xalq xizmatini qiladi. Birov ko'proq, kattaroq ish qiladi, bu ishi bilan o'zini ham, xalqini ham, hatto zamonasini ham tarix sahifasiga sharaflı zarhallari bilan yozib ketadi; birov kamroq, kichikroq ish qiladi, lekin uning shu kichik ishi ham katta ishlar bitigida loaqal bir nuqta bo'lib o'rin oladi. Demak, yashash ma'nosining zamirida xalq xizmatini qilish, Vatanni sharaflash burchi ham bor. O'z joniga qasd qilish esa – ana shu muqaddas burchdan qochish degan so'z. Bunday odamlarni, silliq qilib aytganda, «Dezertir» deydi. Bilasiz, dezertirlik – bilagida kuchi, tomirida qaynoq qoni bo'lgan, qasd qilsa tog'ni tolgon qilish qo'lidan keladigan yigit kishi uchun ko'p xunuk narsa, yigit sha'nini yerga uradigan, jo'ralaridan ayiradigan, yakkalikni qo'msatadigan yaramas, pastkash narsa!

Maxfiyroz, javobimizni bu qadar chuqurlashtirib yuborganimizga ajablanmang. Garchi siz «Eng to'g'ri yo'lni, eng to'g'ri maslahatni odam o'ziga o'zi beradi», degan «aqida»da bo'lsangiz ham, yana «halokat tomon ketayotganim yo'qmikan?» deb so'ragansiz. Modomiki, siz halokatdan gap ochibsiz, yuqoridagi mulohazalarimiz uchun e'tirozga o'rin qolmaydi. Ko'nglingiz cho'kmasin, yigit, siz halokat sari ketayotganingiz yo'q. Boshida ota-onasi bo'lgan, ularning xizmatlarini qilish burchi

hamon zimmasida qolib kelayotgan farzand yo'li halokat yo'li emas, yo'q-yo'q, u yo'l insonlik yo'li, sharaf yo'li, baxt yo'li. O'zingiz o'ylab ko'ring, bolalarining orzu-havasi, muhabbati bilan baxtli bo'lgan ota-ona chehrasidagi quvonchni, ko'zlaridagi minnatdorlik o'tini ko'rishday baxt bormi farzand uchun? Yo'q, o'zini bilgan farzand uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak. Lekin siz hali hozir bu baxtning nimaligini, uning shukuhini bilmaysiz. Ha, siz shuni bilishga tirishing. Ota-onangizni zor-ufig'on yig'latmang, yo'lingizda sarg'aytirib o'tkazmang, boring, bir mahallar sizning go'daklik yig'ingiz, shirin kulgingiz bilan obod bo'lgan, kindik qoningiz to'kilgan aziz uyingizga boring. Yo'qotgan farzandlik baxtingizni uyingizdan topasiz. Ammo uyingizga kirayotganingizda, ota-onangizga salom berib kiring. Ular oldidagi farzandlik qarzingizni to'lashdan shuncha yillar qochib yurganingiz, nomardlik qilganingiz uchun uzr so'rang. Ular – ota-ona, mehri oftob kishilar, gunohingizni o'tishadi, bag'irlariga bosib suyishadi. Siz dimog'ingizni o'tkir tuting, sizga tashna bo'lgan onayizor bag'riga boshingizni qo'ying, tabarruk hidini hidlang... Balki, bu hidni tanirsiz? Balki, bu chaqaloqlik kunlaringizni, ona bag'rida yayragan damlaringizni eslatar! Balki, bu hid kechalari boshingizda aytilgan allalarni eslatar! Balki, bu hid tetapoya qila boshlagan murg'aklik kezlaringizda ota-onangizning baxt bilan, umid bilan chaqnagan nuroniy ko'zlarini eslatar!

Maxfiyroz, onayizoringiz sizga qanchalik tashna bo'lsa, otangiz ham undan kam tashna emas. Siz buni esdan chiqarmang. Sizni odam qilguncha mehnat toshi ostida ezila-ezila soqollari oqargan tabarruk zot shu otangiz emasmi? Ha, otangiz. Siz uni oqargan soqolidan, sizni ko'rib yoshlangan ko'zlaridan o'ping. Ha, shunday qiling. Albatta, shunday qiling. Shunday qilganingizda, «har kuni ming bor ruhan» yiqilmaysiz, yuragingizning allaqayeriga botib turgan gumrohlik nishtarining og'rig'ini sezmaysiz, jo'ralarigiz, oshna-og'aynilaringiz orasida ota-onadan, ota-ona oldidagi farzandlik burchidan gap ketganda yerga qarab qolmaysiz. Hammasidan ham, ota-onalari tirikligida qadrlariga

yetmay, ular o'lib ketganlaridan keyin dog'-u hasratda yongan beparvo farzandlar singari armon qilmaysiz!

Armon! E-voh, bu naqadar dahshatli so'z! Yo'q-yo'q, bu so'z emas, nishtar! Bu insonni alam to'liqlariga shafqatsiz irg'itadigan, bag'riga xanjar bo'lib sanchiladigan, goh qon yig'latib, goh zahar yutqazadigan achchiq pushaymonlik! Ajabo, armonga yo'l qo'ymaslik mumkin bo'lgan holda bu azobni, bu gumrohlikni nechun o'zingizga ravo ko'rdingiz, Maxfiyroz? Nahotki sizda o'z nodonligingiz uchun boshqalardan, ota-ona kabi eng tabarruk, eng aziz kishilardan qasos olish fikri bo'ldi? Nahotki sizda sizni bunyodga keltirgan oliyjanob insonlarga shukronalik bilan xizmat qilish o'rniga ularni el-ko'y oldida yerga qaratish qasdi bo'ldi? Yo'q-yo'q, bu gumrohlik, farzand yuzini qora qiladigan nontepkilik! Siz bundan saqlaning, Maxfiyroz! Sizga o'xshash nomard farzand yuzigagina emas, dunyoda odamman deb bosh ko'tarib yurgan har qanday kishi sha'niga qora dog'bu! Siz endi bu sharmandalikning davom etishiga yo'l qo'ymaysiz, insonlik sharafingizga isnod keltirmaysiz, farzandlik baxtingizga zavol yetkazmaysiz biz bunga aminmiz.

Maxfiyroz, shuncha gaplashdik, keling, yana bir gapi-miz maxfiy qolmasin, bunisiga ham quloq soling. Yaqinda bir do'stimizning mehmoni bo'ldik. Davrada yetti kishi bor edi. Oltitasini tanisak ham, yettinchisini birinchi ko'rishimiz. Hali yigirma beshga qadam qo'ymagani aniq sezilib turgan bu navqironning zahil chehrasida nimaningdir alami bordek, ko'zlari bir nimadan qo'rqayotgandek tuyular edi. Ko'zlari yerdan ko'tarilguday bo'lsa, allaqaylarda bejo yuguradi. Undagi olazaraklik bizda avval g'alati taassurot qoldirdi. Lekin hayotda har xil odamlar bo'ladi, bu ham o'shanaqalardan bittasidir-da, deb qo'ya qoldik. Ammo qanoatimiz uzoqqa bormadi.

Gap gapga ulashib borib, yosh qalamkash Sa'dulla Siyoyevning yaqinda radioda o'qib eshittirilgan «Bilmayin bosdim tikanni» sarlavhali hikoyasiga taqaldi. Unda onasini sarg'aytira-sarg'aytira o'lim to'shagiga yotqizgan vijdotsiz o'g'il bemehrlikidan gap ketar edi. Shunda boyagi yigit birdan qizarib,

boshi yerga tushib ketdi. Yonimdagi do'stim menga qarab, labini tishlab qo'ydi. Men hayron bo'ldim. Shu mahal yigit o'rnidan asta turib chiqib ketdi. Hayronligim yana ortdi. Do'stimga savol nazari bilan qaradim. U bir nima deyishdan avval o'zini tashqariga urdi. Men hayajonli bir majhuliyat ichida edim. Qolgan yor-u birodarlar ham churq etmay o'tirib qolishdi. Oradan soatlar kabi uzun bir necha daqiqa o'tdi. Do'stim xomush qaytib kirdi.

Men shoshib so'radim:

– Nima gap?

Do'stim juda omonat qilib jilmaydi. Bu jilmayishda zahar bor edi.

Ketib qoldi. Bilmasdan yarasiga tuz sepib qo'ydik-da, – dedi-yu, yigitning ketib qolish sababini juda qisqa qilib so'zlab berdi: Otasi frontga ketganda, bu bola yo'rgakda qolgan edi. G'arib onasi uni ming azob bilan voyaga yetkazdi-yu, lekin bu nodon ona qadriga yetmadi. – Do'stim, hikoyasining u yog'ini aytilish qiyindek, bir necha zum yerga qarab indamay o'tirdi. Keyin past yo'tal bilan tomog'ini qirib olib asta davom etdi: – Bola texnikumni bitirgandan keyin allaqayerlarda yo'q bo'lib ketdi. Onam bor edi, deb o'ylamadi-da. Qo'ying-chi, onasi bechoradan xabar olmadi. Qani endi ikki enlik xat bilan onayizorini yo'qlab qo'ysa! Yo'qlamadi-da. Bamisoli suvga tushib cho'kib ketgandek yo'q bo'ldi-qoldi. Oh, ona, ona! Qidirmagan, qidirib bormagan joyi qolmadi. Ha, bu nomard onasini emas, ona sho'rlik bolasini qidirdi. Qo'ying-chi, topdi ham. Qashqadaryoning allaqaysi rayonida elektromontyor ekan. Uylanibdi, bitta qizcha ham ko'ribdi. Qarang, bundan ona bechora bexabar. – Do'stim bo'g'ilib yoqasini ushladi. – Tavba, shunchalik bag'ritosh, bemehr, bemuruvvat bola bo'ladimi! Ona oldidagi qarzidan, insonlik burchidan qochganligi uchun tavba qilishi, onasining oyoqlariga yiqilib uzr so'rashi, hech bo'lmasa, onasini bir oy-yarim oy olib qolib gunohini yuvishga, xatosini tuzatishga harakat qilishi kerak edi. U bo'lsa nene sargardonliklar bilan qidirib borgan boyoqish onani uyiga sig'dirmay, uch kun deganda qaytarib yubordi.

– Gapning qisqasi, ikki yil bo‘ldi – onasi yig‘lay-yig‘lay dunyodan o‘tdi. Har nima bo‘lsa ham bolasi, keyin armon qilib yurmasin, deb bu betamizga shoshilinch telegramma yubordik. Onasini ko‘mishga kelmadi-da! Rahmatlikning ko‘zlari ochiq ketdi. Oyim aytadilar, jon halqumiga kelib qopti-yu, har nafasda bir eshikka qarab: «Kelmadimi? Bolam kelmadimi?...» deb so‘rar emish. – Do‘stim anchagacha boshini ko‘tarolmay o‘tirdi. O‘rtaga aza sukunati tushgan edi. Bu sukunatni hech kim buzmas, bir nima deyishga so‘z topmas edi.

Nihoyat, do‘stim boshini ko‘tarib, hikoyasiga xotima yasadi:

– Mahalladagi odamlar shunday yomon nafratlanishdiki bu onabezoridan, qo‘ying, u yog‘ini so‘ramang. Ha, darvoqe, uni gazetaga yozmoqchi ham bo‘ldik avval, lekin sadqayi gazeta ketsin senga, deb yozmadik. O‘ziga xat yozib yubordik. Ammo yozganda ham juda xunugini chiqarib yozdik. Xatimizni olibdi-yu, hisob-kitobini qilib, bola-chaqasi bilan jo‘nab qolibdi. E, nodon, axir, kelar ekansan, sho‘rlik onang o‘lmasdan kelmaysanmi! Ko‘rdingizmi, onasini hasratda o‘ldirdi, o‘zini el-yurt oldida rasvo qildi. Endi to‘rtta odam bilan xotirjam o‘tirolmaydi, mahallaga qo‘shilolmaydi, gap onadan ketmasmikan, deb yuragi bejo bo‘ladi.

Maxfiyroz, bu ayanchli hikoyaning xulosasi o‘zingizga xavola. Hozir esa boshqa gapimiz bor. Siz bizga yozgan xat-ingizda, jumladan, «Kelgusi kasbim meni kishilar eng zich joyga borib ishlashni taqozo qiladi. Menda esa kishilarga qo‘shilishdan ko‘ra ularga chetdan tomoshabin bo‘lish mayli juda kuchli. Bu mening uchun rohat. Men yakkalikni qo‘msayman», deysiz. Bu shunchaki ruhiy tushkunlikmi yo yaramas telbalik? Agar buning oti telbalik bo‘lmasa, bunday xunuk fikrni yozish u yoqda tursin, o‘ylash ham ayb ekanini farq qilardingiz. Yo‘q, siz bekor qilasiz, sizdagi fojيانing bosh sababi – odamlar jamoasidan qochib yakkalikka intilganingizda. Ha, xuddi shunda. Siz buning aksini qiling. Yakkalikdan qochib, odamlar jamoasiga kiring. Bema‘ni o‘ylar, bema‘ni qarorlardan sizni faqat odamlar jamoasi, qutqazadi. Odamlar orasi-

da bo'lsangiz, sizni «hayotning shiddatli shamollari» – chirik xasday uchirib ketmaydi, sizni ikki yil burun tark etgan g'oya ham, kelajak ham amringizda bo'ladi, hayotda tomoshabin bo'lib qolmaysiz: kurashchi bo'lasiz. O'zingizning yorug' kelajagingiz: odamlar orasidan topadigan baxtingiz uchun kurashasiz. Bilasiz: «To'pidan ayrilganni bo'ri yeydi». Siz ham odamlardan ayrilmang. Ayrilsangiz g'am yeydi, yakkalik yeydi, tushkunlik yeydi. Odamlar orasidan, jamoa orasidan o'zingizga munosib joy olish uchun kurashing. Inson – kurash bilan inson!

Maxfiyroz: sizdagi yana bitta gumrohlikni betingizga solmasdan o'tish qiyin. Siz «Institutni tamomlasam: qishloqqa borishim kerak. Qishloqning qorasini ko'rishga toqatim yo'q», debsiz. Bay-bay-bay! Oq bilan qora farqini biladigan sizday zamona yoshlarining og'zidan bunday gapning chiqishi – ko'p xunuk narsa! Siz shaharda yashab, shahar institutlarining birida o'qiyotganingizni bilamiz. Ammo siz o'zingizga berilayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda qishloqning hissasi qanchalik katta ekanini bilmaysiz. Qishloqlarda tong yorishgandan tun qorong'isi tushguncha, bahordan bahorgacha mehnat qilayotgan azamat paxtakorlar mablag'ining ma'lum qismi sizning o'qishingizga ham sarf qilinmayotibdimikan? Siz shuni o'ylab ko'rdingizmi? Sizni hech nimaga zoriqtirmay boqayotgan, sizga ong, bilim berayotgan sevikli Vatanimiz farovonligida qishloq hissasi ham katta ekanini o'ylab ko'rmabsiz-da! O'ylab ko'rganingizda, qishloq qorasini ko'rgim kelmaydi, deyishdan uyalar edingiz. Axir, bu non ushatilgan dasturxonga oyoq boshish, tuzliqqa tupurish bo'ladi-ku! Sizda bunday his, bunday uyatli tushuncha bo'lmasligi kerak edi.

Maxfiyroz, xulosa shuki, Sizdan bitta emas, hali ko'p xatlar olamiz. Bu xatlaringiz ota-onangizni topganingiz, ulardan uzr so'raganingiz, yakkalikdan qochib, odamlar jamoasiga kirib olganingiz haqida bo'ladi. Ana unda ota-onangiz qo'ygan o'z nomingizni yashirmay: allaqanday «Maxfiyroz» bo'lmay yurasiz.

Bizning umidimiz shu.

MUNDARIJA

GO‘ZALLIK

Yuz chiroyi	5
Odamiylik	10
Mehnatsevarlik	21
Axloq.....	28

HUSN XAZINASINING DURDONALARI

Madaniylik	34
Shirinso‘zlik.....	38
Ko‘ngilxonlik.....	44

BO‘YNIMIZDAGI QARZ

Farzand burchi	48
Ota-onadan lozimi.....	78
Oqko‘ngillik.....	97
Bu yo‘lda xato qilma.....	105
Ishq boshqa, havas boshqa.....	111
Ismi yashirgan kishi	115

Adabiy-badiiy nashr

MIRZAKALON ISMOILY

ODAMIYLIK QISSASI

Axloq-odob mavzusidagi suhbatlar

«Ziyo nashr» nashriyoti
Toshkent – 2019

Muharrir

Badiiy muharrir

Musahhih

Sahifalovchi

Abdurahmon Jo'rayev

Hojiakbar Saydaliyev

Miryusuf Mirsolihov

Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
25.10.2019 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 ¹/₃₂.
Ofset qog'oz. «Times» garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 6,7. Nashriyot-hisob tabog'i 6,6.
Adadi 5000. Shartnoma № 16–19.
Buyurtma raqami 1051.

«Ziyo nashr»
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ
Kitob fabrikasida chop etildi
Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.
Tel.: 71 234-44-01/05
www.credoprint.uz


Ismoiliy, Mirzakalon.

I 81 Odamiylik qissasi. [Matn]: axloq-odob mavzusidagi suhbatlar / M. Ismoiliy
– T.: «Ziyo nashr» nashriyoti, – 128 bet.

ISBN 978-9943-5705-3-5

UO‘K: 821.512.154-32

KBK 84 (50‘)6



12+



ZIYO NASHR



t.me/ziyonashr



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-5705-3-5



9 789943 570535